ISSN 2072-0297

# МОЛОДОЙ® УЧЁНЫЙ

международный научный журнал

**СПЕЦВЫПУСК**

**(г. Ургенч)**

Является приложением к научному журналу «Молодой ученый» № 24 (158)



**24.1**
2017

16+

**ISSN 2072-0297**

# МОЛОДОЙ УЧЁНЫЙ

Международный научный журнал
Выходит еженедельно

№ 24.1 (158.1) / 2017

**СПЕЦВЫПУСК** (г. Ургенч)

Редакционная коллегия:

**Главный редактор:** Ахметов Ильдар Геннадьевич, *кандидат технических наук*

**Члены редакционной коллегии:**

Ахметова Мария Николаевна, *доктор педагогических наук*
Иванова Юлия Валентиновна, *доктор философских наук*
Каленский Александр Васильевич, *доктор физико-математических наук*
Куташов Вячеслав Анатольевич, *доктор медицинских наук*
Лактионов Константин Станиславович, *доктор биологических наук*
Сараева Надежда Михайловна, *доктор психологических наук*
Абдрасилов Турганбай Курманбаевич, *доктор философии (PhD) по философским наукам*
Авдеюк Оксана Алексеевна, *кандидат технических наук*
Айдаров Оразхан Турсункожаевич, *кандидат географических наук*
Алиева Тарана Ибрагим кызы, *кандидат химических наук*
Ахметова Валерия Валерьевна, *кандидат медицинских наук*
Брезгин Вячеслав Сергеевич, *кандидат экономических наук*
Данилов Олег Евгеньевич, *кандидат педагогических наук*
Дёмин Александр Викторович, *кандидат биологических наук*
Дядюн Кристина Владимировна, *кандидат юридических наук*
Желнова Кристина Владимировна, *кандидат экономических наук*
Жуйкова Тамара Павловна, *кандидат педагогических наук*
Жураев Хусниддин Олтинбоевич, *кандидат педагогических наук*
Игнатова Мария Александровна, *кандидат искусствоведения*
Калдыбай Кайнар Калдыбайулы, *доктор философии (PhD) по философским наукам*
Кенесов Асхат Алмасович, *кандидат политических наук*
Коварда Владимир Васильевич, *кандидат физико-математических наук*
Комогорцев Максим Геннадьевич, *кандидат технических наук*
Котляров Алексей Васильевич, *кандидат геолого-минералогических наук*
Кошербаева Айгерим Нуралиевна, *доктор педагогических наук, профессор*
Кузьмина Виолетта Михайловна, *кандидат исторических наук, кандидат психологических наук*
Курпаяниди Константин Иванович, *доктор философии (PhD) по экономическим наукам*
Кучерявенко Светлана Алексеевна, *кандидат экономических наук*
Лескова Екатерина Викторовна, *кандидат физико-математических наук*
Макеева Ирина Александровна, *кандидат педагогических наук*
Матвиенко Евгений Владимирович, *кандидат биологических наук*
Матроскина Татьяна Викторовна, *кандидат экономических наук*
Матусевич Марина Степановна, *кандидат педагогических наук*
Мусаева Ума Алиевна, *кандидат технических наук*
Насимов Мурат Орленбаевич, *кандидат политических наук*
Паридинова Ботагоз Жаппаровна, *магистр философии*
Прончев Геннадий Борисович, *кандидат физико-математических наук*
Семахин Андрей Михайлович, *кандидат технических наук*
Сенцов Аркадий Эдуардович, *кандидат политических наук*
Сенюшкин Николай Сергеевич, *кандидат технических наук*
Титова Елена Ивановна, *кандидат педагогических наук*
Ткаченко Ирина Георгиевна, *кандидат филологических наук*
Фозилов Садриддин Файзуллаевич, *кандидат химических наук*
Яхина Асия Сергеевна, *кандидат технических наук*
Ячинова Светлана Николаевна, *кандидат педагогических наук*

Журнал зарегистрирован Федеральной службой по надзору в сфере связи, информационных технологий и массовых коммуникаций.
**Свидетельство о регистрации средства массовой информации ПИ № ФС77-38059 от 11 ноября 2009 г.**
Журнал размещается и индексируется на портале eLIBRARY.RU, на момент выхода номера в свет журнал не входит в РИНЦ.
Журнал включен в международный каталог периодических изданий «Ulrich's Periodicals Directory».

Статьи, поступающие в редакцию, рецензируются. За достоверность сведений, изложенных в статьях, ответственность несут авторы. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов материалов. При перепечатке ссылка на журнал обязательна.

**Международный редакционный совет:**
Айрян Заруи Геворковна, *кандидат филологических наук, доцент (Армения)*
Арошидзе Паата Леонидович, *доктор экономических наук, ассоциированный профессор (Грузия)*
Атаев Загир Вагитович, *кандидат географических наук, профессор (Россия)*
Ахмеденов Кажмурат Максутович, *кандидат географических наук, ассоциированный профессор* (Казахстан)
Бидова Бэла Бертовна, *доктор юридических наук, доцент (Россия)*
Борисов Вячеслав Викторович, *доктор педагогических наук, профессор (Украина)*
Велковска Гена Цветкова, *доктор экономических наук, доцент (Болгария)*
Гайич Тамара, *доктор экономических наук (Сербия)*
Данатаров Агахан, *кандидат технических наук (Туркменистан)*
Данилов Александр Максимович, *доктор технических наук, профессор (Россия)*
Демидов Алексей Александрович, *доктор медицинских наук, профессор (Россия)*
Досманбетова Зейнегуль Рамазановна, *доктор философии (PhD) по филологическим наукам (Казахстан)*
Ешиев Абдыракман Молдоалиевич, *доктор медицинских наук, доцент, зав. отделением (Кыргызстан)*
Жолдошев Сапарбай Тезекбаевич, *доктор медицинских наук, профессор (Кыргызстан)*
Игисинов Нурбек Сагинбекович, *доктор медицинских наук, профессор (Казахстан)*
Кадыров Кутлуг-Бек Бекмурадович, *кандидат педагогических наук, заместитель директора (Узбекистан)*
Кайгородов Иван Борисович, *кандидат физико-математических наук (Бразилия)*
Каленский Александр Васильевич, *доктор физико-математических наук, профессор (Россия)*
Козырева Ольга Анатольевна, *кандидат педагогических наук, доцент (Россия)*
Колпак Евгений Петрович, *доктор физико-математических наук, профессор (Россия)*
Кошербаева Айгерим Нуралиевна, *доктор педагогических наук, профессор* (Казахстан)
Курпаяниди Константин Иванович, *доктор философии (PhD) по экономическим наукам (Узбекистан)*
Куташов Вячеслав Анатольевич, *доктор медицинских наук, профессор (Россия)*
Лю Цзюань, *доктор филологических наук, профессор (Китай)*
Малес Людмила Владимировна, *доктор социологических наук, доцент (Украина)*
Нагервадзе Марина Алиевна, *доктор биологических наук, профессор (Грузия)*
Нурмамедли Фазиль Алигусейн оглы, кандидат геолого-минералогических наук *(Азербайджан)*
Прокопьев Николай Яковлевич, *доктор медицинских наук, профессор (Россия)*
Прокофьева Марина Анатольевна, *кандидат педагогических наук, доцент (Казахстан)*
Рахматуллин Рафаэль Юсупович, *доктор философских наук, профессор (Россия)*
Ребезов Максим Борисович, *доктор сельскохозяйственных наук, профессор (Россия)*
Сорока Юлия Георгиевна, *доктор социологических наук, доцент (Украина)*
Узаков Гулом Норбоевич, *доктор технических наук, доцент (Узбекистан)*
Хоналиев Назарали Хоналиевич, *доктор экономических наук, старший научный сотрудник (Таджикистан)*
Хоссейни Амир, *доктор филологических наук (Иран)*
Шарипов Аскар Калиевич, *доктор экономических наук, доцент (Казахстан)*
Шуклина Зинаида Николаевна, *доктор экономических наук (Россия)*

**Руководитель редакционного отдела:** Кайнова Галина Анатольевна
**Ответственный редактор спецвыпуска:** Шульга Олеся Анатольевна
**Художник:** Шишков Евгений Анатольевич
**Верстка:** Бурьянов Павел Яковлевич

Почтовый адрес редакции: 420126, г. Казань, ул. Амирхана, 10а, а/я 231.
Фактический адрес редакции: 420029, г. Казань, ул. Академика Кирпичникова, д. 25.
E-mail: info@moluch.ru; http://www.moluch.ru/.
Учредитель и издатель: ООО «Издательство Молодой ученый».
Основной тираж номера 500 экз., фактический тираж спецвыпуска: 20 экз. Дата выхода в свет: 05.07.2017. Цена свободная.
Материалы публикуются в авторской редакции. Все права защищены.
Отпечатано в типографии издательства «Молодой ученый», 420029, г. Казань, ул. Академика Кирпичникова, д. 25.

На обложке изображен русский и советский математик *Андрей Николаевич Колмогоров* (1903–1987), один из основоположников современной теории вероятностей и исследователь ряда других теорий: топологии, геометрии, математической логики, классической механики, теории турбулентности, сложности алгоритмов, информации, теории функций, тригонометрических рядов, теории меры, теории множеств, дифференциальных уравнений, динамических систем, функционального анализа и ряда других областей математики и её приложений. Известны также его работы в статистической физике (в частности, уравнение Джонсона — Мела — Аврами — Колмогорова).

Родился Колмогоров в Тамбове, с семи лет жил в Москве. В ранние годы обучением Андрея и других соседских детишек занимались его тетушки. Они организовали что-то вроде частной школы и издавали для них рукописный журнал «Весенние ласточки», в котором были опубликованы первые творческие работы учеников, в том числе придуманные Андреем арифметические задачки. Позже он был определен в частную гимназию Репман. По свидетельству первых учителей Андрея Колмогорова, они «не успевали его учить». Математику он изучил самостоятельно по «Энциклопедическому словарю Брокгауза и Ефрона».

Будущий академик в свои первые студенческие годы увлекался также историей. Выполнив первое серьезное историческое исследование о земельных отношениях в Новгородской земле, опираясь на материалы писцовых книг XV–XVI вв., он представил его на семинаре Бахрушина. Результаты его сохранились, но были опубликованы только в 1994 году. Автору исследования было заявлено, что выводы не могут быть окончательными, и для каждого из них нужно несколько доказательств. Тогда он окончательно решил уйти в науку, где для подтверждения результата достаточно всего одного доказательства, — в математику.

Окончив первый курс Московского университета экстерном, молодой Колмогоров в свои 19 лет получил мировую известность, удивив специалистов неожиданными результатами своих математических исследований: построил пример ряда Фурье, расходящегося почти всюду, а вслед за ним — пример такого ряда, расходящегося в каждой точке.

В 1928 году Колмогорову удалось выявить и доказать необходимые и достаточные условия справедливости закона больших чисел. В 1930-е годы он заложил также основы теории марковских случайных процессов с непрерывным временем.

Пик его математической карьеры пришелся на 1950–60-е годы, когда он, уже будучи профессором МГУ, получил выдающиеся результаты:

– в небесной механике, сдвинув с мёртвой точки задачи, оставшиеся нерешёнными со времен Ньютона и Лапласа;

– в решении 13-й проблемы Гильберта о возможности представления произвольной непрерывной функции нескольких действительных переменных в виде суперпозиции непрерывных же функций двух переменных;

– по динамическим системам, где введённый им новый инвариант «эпсилон-энтропия» привёл к перевороту в теории этих систем;

– в теории вероятностей конструктивных объектов, где предложенные им идеи измерения сложности объекта нашли применение в теории информации, теории вероятностей и теории алгоритмов.

За выдающиеся заслуги в области математики Колмогоров удостоен целого ряда премий и орденов, включая семь орденов Ленина, Орден Октябрьской Революции, Орден Трудового Красного Знамени, Золотую медаль имени Гельмгольца Академии наук Германии.

В 2002 году Лондонский университет учредил Медаль Колмогорова.

*Екатерина Осянина, ответственный редактор*

# СОДЕРЖАНИЕ

**Abdikarimova Z. B.**
«70 miqdor qoidasi» va uning iqtisodiy-matematik mazmuni ....1

**Aliyeva G. I.**
Turizmning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni .... 3

**Атабаева К. Р.**
Таълим тизимида масофавий ўқитишнинг афзалликлари .... 5

**Атабаева К. Р.**
Замонавий педагогик технологияларнинг таълим-тарбия жараёнидаги аҳамияти ....7

**Bekjanov D. Y.**
Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning istiqbollari ustuvor yo'nalishlari .... 9

**Qo'chqarov Sh.**
Kasb-hunar kolleglarida seminar mashg'ulotlarini tashkil qilishning o'ziga hos xususiyatlari....12

**Qo'chqarov Sh.**
Fermer xo'jaliklari moliyaviy xo'jalik faoliyati natijalari tahlili ....15

**Матжонов Б. Р., Рўзматова З. Қ.**
Касб-ҳунар коллежлари ўқув жараёнида модул тизимидан фойдаланишнинг афзалликлари ....18

**Матжонов Б. Р.**
Хоразм вилоятининг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши ва инвестиция сиёсатини бошқаришнинг муҳим вазифалари.... 20

**Маткулиева С. И.**
Корхоналарда модернизациялаш жараёнларини ифодаловчи кўрсаткичлар, уларни аниқлаш ва таҳлил қилиш йўллари ....22

**Маткулиева С. И.**
Международные стандарты финансовой отчетности ....25

**Рўзметов Б. Ш., Атабоев Д. Б.**
Ҳудудларни ижтимоий–иқтисодий ривожланишида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ўрни (хоразм вилояти мисолида) ....27

**Рўзметов Б. Ш., Юсупов М. Б.**
Минтақани ижтимоий–иқтисодий ривожланишида туристик хизматлар бозорининг ўрни....29

**Khodjaniyazov E. S.**
Advantages and disadvantages of ISO 9001 certification in the sphere of service ....31

**Cho'ponov S. O.**
Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasining roli ....33

**Юсупова И. Р.**
Мамлакатимизда мавжуд ишбилармонлик муҳити натижасида ҳалқимиз фаровонлигини ошиб бормокда ....35

**Юсупова И. Р.**
Детско-юношеский туризм как средство патриотического воспитания ....37

**Юсупова И. Р.**
Мамлакатимиз иқтисодиётини ривожлантиришда солиқ сиёсатининг роли ....39

**Юсупова И. Р.**
Формирование экономического мышления у студентов бакалавриата филологического направления ....41

**Якубов А. Г.**
Суғурта бозорининг Ўзбекистон Республикаси молия тизимидаги ўрни ва роли ....42

**Якубов А. Г.**
Япония банк тизими ҳамда уни тартибга солиш механизми ....44

# «70 miqdor qoidasi» va uning iqtisodiy-matematik mazmuni

Abdikarimova Z. B.
Urganch davlat universiteti (Ўзбекистон)

*Maqolada «70 miqdor qoidasi» ning iqtisodiy ahamiyati va matematik kelib chiqishi tasvirlanadi.*

Абдикаримова Зухра Бахрамовна, студент
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)

*В статье приведены экономическое значение и математическое происхождение «правила количества 70».*

*The article focuses on economic importance of «Rule of 70» and describes mathematical origin of it.*

Har qanday davlatning asosiy maqsadi mamlakatda iqtisodiy o'sishga erishish va uning barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Jamiyat a'zolarining ehtiyojlari yuksalib borayotgan sharoitda ularga farovon hayot sharoitlarini taminlab berishning birdan bir yo'li iqtisodiy o'sish orqaligina amalga oshirilishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish umumiy tarzda ishlab chiqarish va uning omillari natijasini miqdor va sifat jihatidan o'zgarishlarini ko'rsatadi. Bu o'zgarishlar iqtisodiyotning ravnaq topishida, yaratilgan mahsulotning hajmi ortib, sifati yaxshilanib, tarkibi xilma-xillanib borishida ifodalanadi [1]. Shu sababdan iqtisodiy o'sish mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati o'sayotganligidan dalolat beradi.

Iqtisodiy o'sish sur'atining ahamiyati iqtisodchilar tomonidan qo'llaniluvchi «70 miqdor qoidasi» yordamida tushuntiriladi. Bu qoidaga ko'ra, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan YaIM hajmini 2 baravarga oshirishda qancha vaqt talab etilishini aniqlash uchun 70 sonini yillik o'sish sur'atlariga bo'lish kerak bo'ladi. [2] Masalan, O'zbekistonda YaIM ning yillik o'sish sur'ati 8 % ni tashkil etadigan bo'lsa, mavjud YaIM hajmini ikki barobarga oshirish uchun qancha yil kerak bo'lishini aniqlash uchun 70 sonini 8 ga bo'lish (70:8) kerak bo'ladi. Demak, mavjud YaIM hajmini ikki barobarga oshirish uchun 8.75 yil kerak bo'lar ekan. YaIM hajmini ikki barobarga oshirish uchun talab qilinadigan yilni aniqlash uchun nega aynan 70 sonini yillik o'sish sur'atlariga bo'lish kerakligini matematik hisob-kitoblar natijasida aniqlashga harakat qilamiz.

Bizga quyidagilar berilgan bo'lsin:

a. YaIM ning dastlabki hajmi
b. yillik o'sish sur'ati
c. yil

Bir yildan so'ng YaIM miqdori a*(1+ b/100) ga teng bo'ladi. Keyingi yillar uchun ham xuddi shu ko'rinishda YaIM hajmini aniqlab olamiz.

1. $a*(1+\frac{b}{100})^2$
2. $a*(1+\frac{b}{100})^3$
3. $a*(1+\frac{b}{100})^4$

n ta yildan so'ng YaIM ning miqdori foizlar hisobiga umumiy ko'rinishda quyidagicha bo'ladi:

$$a*(1+\frac{b}{100})^n \qquad (1)$$

Endi (1) ifodani masalaning asosiy maqsadi bo'lgan, ya'ni YaIM hajmini ikki barobar oshirishni nazarda tutuvchi ifodaga tenglaymiz,

$$a*(1+\frac{b}{100})^n = 2a$$

$$(1+\frac{b}{100})^n = 2 \quad (2)$$

Olingan (2) ifodaning ikkala tarafini ham natural logarifmlash orqali n ning nimaga teng ekanligi aniqlanadi.

$$\ln(1+\frac{b}{100})^n = \ln 2$$

$$\mathrm{n}(1+\frac{b}{100}) = \ln 2 \quad (3)$$

$$\mathrm{n} = \frac{\ln 2}{\ln(1+\frac{x}{100})}$$

Ln2 ning taqribiy qiymati 0,693 ga teng ekanligini inobatga olsak, tenglamada asosiy muammolardan biri ushbu tenglikni hisoblashga qaratiladi.

$$\ln(1+\frac{x}{100}) \quad (4)$$

Ushbu ifodaning qiymatini aniqlab olishda uni talabalarga oliy matematika kursidan [3] ma'lum bo'lgan Teylor qatori bo'yicha $x_0 = 0$ nuqta atrofida yoyamiz:

$$F(x) = f(x_0) + \frac{f'(x_0)}{1!}(x-x_0) + \frac{f''(x_0)}{2!}(x-x_0)^2 + \frac{f'''(x_0)}{3!}(x-x_0)^3 .... \frac{f^{(n)}}{n!}(x-x_0)^n$$

$$\mathrm{F(x)} = \ln(1+\frac{x}{100})$$

$$\mathrm{F(x_0)} = \ln(1) = 0$$

$$\mathrm{F'(x_0)} = \frac{1}{1} * \frac{1}{100} = \frac{1}{100}$$

Ikkinchi ifodadan so'ngi qiymat shunday kichik miqdorni tashkil qiladiki, natijada (4) ning qiymati quyidagi ifodaga teng ekanligi nazarda tutiladi:

$$F(x) \approx F(x_0) + \frac{F'(x_0)}{1!}(x-x_0) = 0 + \frac{1}{100}(x-0) = \frac{x}{100}$$

Shu sababdan, (1.3) tenglamaning qiymati umumiy ko'rinishda quyidagicha bo'ladi:

$$n = \frac{0,693}{\frac{x}{100}} = \frac{69,3}{x} \approx \frac{70}{x}$$

O'zbekistonda mustaqillikga erishilgan yillardan buyon yuqori va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish davlat siyosatining asosiy maqsadiga aylangan. Ayni shu maqsadni amalga oshirish borasida olib borilgan iqtisodiy islohatlar tufayli barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishildi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik ta'minlandi. Quyida O'zbekistonning 2007–2015-yillar mobaynidagi YaIM ning hajmi va o'sish sur'atlari aks etgan.

Ushbu grafikda YaIM ning yillar bo'yicha nominal qiymati aks ettirilgan bo'lib, bu yerda uning o'sishi narxlarning o'zgarishi bilan bog'liq jarayon hisobga olinmagan holat uchun ko'rilgan. O'rtacha o'sish sur'atini 8 % deb oladigan bo'lsak, 2008-yilda YaIM hajmini ikki barobarga oshirish uchun 70:8=8.75 yil talab qilingan edi. Ayrim yillar uchun foizning 8 % dan yuqori ekanligi, inflatsiya darajasi hisobga olinmaganligi, irratsional sonlar bilan bog'liq xatoliklar uning miqdorini oshib ketishiga olib kelgan.

Umuman olganda, ushbu qoidani qo'llash orqali mamlakatlar uzoq muddatli oraliqda iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatiga erishishlari mumkin.




**O'zbekistonning iqtisodiy o'sish dinamikasi (mlrd. dollar hisobiga)**

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Sh. Sh. Shodmonov, U. V. G'ofurov. «Iqtisodiyot nazariyasi». Toshkent-2010.
2. D. Tojiboyeva. «Iqtisodiyot nazariyasi». Toshkent. — 2003.
3. F. Rajabov, S. Masharipova, R. Madrahimov. «Oliy matematika». Toshkent. — 2007.

# Turizmning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni

Aliyeva G. I.
Урганч давлат университети (Ўзбекистон)

Алиева Гулнара Ильдаровна, старший преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)

Turizm boshqa sohalarga nisbatan tez taraqqiy etadigan tarmoqdir, chunki bu soha mamlakatimiz uchun unchalik katta investisiyani talab qilmasdan rivojlanishi mumkin bo'lgan sohadir. Boshqa sohalar, jumladan havo, temiryo'l, avtomobil transporti, ovqatlanish va savdo shahobchalari, mehmonxonalar rivoj topsa o'sha joyda turistik ob'ektlar mavjud bo'lsa bemalol turizmni rivojlantirish mumkin.

Turizm sohasidagi mutaxassislarning fikricha, u XXI asrda dunyo miqiyosida eng ustuvor foyda keltiruvchi sohaga aylanadi. Hozir u dunyo bo'yicha avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o'rinni egallab turibdi. [1] Bu soha dunyo sanoati va qishloq xo'jaligidan o'zib ketdilar.

Turizmning tez rivojlanishiga yana bir sabab, u yuqori darajadagi katta ilmiy tadqiqot xarajatini (naukoyomkiy) va quvvatni ko'p sarf qiladigan (energoyomkiy) texnologiyani talab qilmaydi. Biroq, turizm boshqa sohalarni rivojlantirishni taqozo qiladi. SHu tufayli ushbu soha bilan ko'pgina xizmat ko'rsatuvchi sohalar bir-biri bilan uzviy bog'liq ravishda rivoj topmog'i lozim.

Turizmning yuqori daromad keltiruvchi soha bo'lganligi tufayli ko'pgina davlatlar va tadbirkorlar uning rivojlanishi uchun katta e'tibor bermoqdalar. Ular yangi-yangi mehmonxonalarni qurmoqda, eskilarini rekonstruksiya qilib ta'mirlamoqda, qaysiki ularni ham jahon standartlari talablariga moslashtirmoqda. Bunga birgina Samarqand shahrida qurilgan o'nlab shaxsiy mehmonxonalarni misol keltirish mumkin. Ular hech kimning ta'ziqi yoki ko'rsatmasisiz o'z tashabbuslari bilan qurilgan ob'ektlardir. Maqsadi shu sohani rivojlantirib katta foyda olish. Bu esa o'z navbatida, turizmni rivojlantirish uchun eng muhim omillardan biridir.

Bugungi globallashuv jarayonida qariyb barcha mamlakatlar iqtisodiy faoliyatida turizm sektori yuqori daromad manbai sifatida alohida ahamiyatga ega. Mazkur sohaning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ta'siri nafaqat valyuta tushumi, ish o'rni yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, balki ajdodlardan meros qolgan madaniyat va qadryatlarning saqlashning bosh omilidir. Shu sababdan, turizmning iqtisodiyotga ta'sirini to'liq tushunish va samarali faoliyat yuritishni ta'minlash maqsadida ko'plab xalqaro turistik tashkilotlar faoliyat olib boradi. Bular ichida Dunyo sayohat va turizm kengashini (WTTC) alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir. WTTC jahon miqyosida turizm va sayohatning iqtisodiy-ijtimoiy ulushini belgilaydigan global hokimyatdir. Ushbu hokimyat turizm

sektorining barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlaydigan hamda yangi ish o'rinlari yaratishda, sayyohlik eksportini boshqarishda va samaradorlikka erishishda hukumatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlaydi. 25 yildan buyon WTTC turizm va sayohatning iqtisodiy ta'sirini o'rganib kelmoqda. 2015-yilgi ma'lumotlar yillik iqtisodiy hisobotlar 184 mamlakat va 25 ta hududni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlarga muvofiq, dunyo bo'yicha 2014-yilda sayohat va turizm 7,6 trillion AQSH dollari, ya'ni umumiy YaIMning 10 %i va 277 million ish o'rni (har 11dan 1 kishi turizm sohasida ishlaydi) ga teng bo'ldi. Yaqin yillarda turizm dunyo miqyosida avtomobil sanoati, moliyaviy xizmatlar va sog'liqni saqlashga qaraganda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. O'tgan yil ham bundan mustasno bo'lmadi. Xalqaro turistlar tashrifi 1,14 mlrdga teng bo'ldi va bu ko'rsatkichning 46 %i rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Aytish joizki, ayni davrda davom etayotgan Rossiyadagi retsessiya, ya'ni iqtisodiy tanglik jahon turizmiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Shunga qaramasdan, jahonning ko'plab mamlakatlari shular qatorida O'zbekiston ham iqtisodiy o'sishda davom etdi. Ma'lumki, O'zbekiston turizm sanoatida katta imkoniyatga ega davlatdir. Bugungi kunda mamlakatimizda 4000 dan ortiq tarixiy obidalar va muzeylarimizda 2 mlndan ziyod qadimiy eksponatlar saqlanayotgani fikrimizning yorqin dalilidir. Shuningdek, Respublika bo'yicha jami 550 ta sayyohlik kompaniyasi turoperatorlari faoliyat yuritmoqda. Mintaqamizdagi tarixiy ob`yektlar, arxitektura va shaharsozlik obidalarining aksariyatini qamrab olgan 110 ta xalqaro sayyohlik yo'nalishi bo'yicha sayyohlarga xizmat ko'rsatilmoqda. Bu yo'nalishlarning 65 tasi tarixiy madaniy meros ob`yektlari, 30 tasi tabiiy rekreatsion, 15 tasi sog'lomlashtirish turizm elementlarini o'z ichiga olgan ekologik yo'nalishdir. Hozirda yurtimizda 50.000 dan ziyod o'ringa ega bo'lgan 500 dan ortiq mehmonxona, motel va kempinglarda sayyohlarga xalqaro standartlar bo'yicha xizmat ko'rsatilmoqda. Bu raqamlar mamlakatda turizm sohasini jadal rivojlanayotganligidan dalolatdir. WTTC ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston iqtisodiyotida turizm ulushi quyidagi raqamlarda aks etdi(1-jadval).

Jadval 1. **O'zbekiston iqtisodiyotida turizm ulushi [2]**

| Turizmning ulushi | 2014-yil | 2015-yil | 2015–2025 yillar (prognoz) |
|---|---|---|---|
| YaIMdagi to'g'ridan to'g'ri ulushi | UZS1,317.1mlrd (YaIMning 0,9 %i) | 3,9 %ga o'sish | UZS2,468.0mlrd(6,1 % o'sish) |
| YaIMdagi umumiy ulushi | UZS4,208.8 mlrd (umumiy YaIMning 3 %i) | 4,7 %ga o'sish | UZS7,889.9mlrd 6 %ga o'sish (umumiy YaIMning 2,9 %i) |
| Ishchi kuchi to'g'ridan to'g'ri ulush | 118.500 ish o'rni (umumiy ishchi kuchining 0.8 %i) | 1.3 %ga o'sish | 175.000 ish o'rni, 3.8 %ga o'sish (umumiy ishchi kuchining 0.8 %i) |
| Ishchi kuchining umumiy ulushi | 387.500 ish o'rni (umumiy ishchi kuchining 2.6 %i) | 2 %ga o'sish (395.500ta ish o'rni) | 568.000 ish o'rni, 3.7 %ga o'sish (umumiy ishchi kuchining 2.5 %i) |
| Sayyohlik eksportida | UZS 524.0 mlrd (umumiy eksportning 1.6 %i) | 3.8 %ga kamayish | UZS 972.8 mlrd, 6.8 % ga o'sish (umumiy eksportning 1.6 %i) |
| Investitsiya | UZS 711.0 mlrd (umumiy investit-siyaning 2.2 %i) | 7.3 %ga o'sish | UZS 1,321.0 mlrd, 5.6 %ga o'sish (umumiy investitsiyaning 2.1 %i) |

Yuqoridagi raqamlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz iqtisodiy hayotida turizm sanoatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonning xalqaro turizm bozorida o'z o'rnini egallayotganligidan dalolatdir.

O`zbekistonning 70 % hududlarini cho`l va adur mintaqasi egallaydi. Bu mintaqada hozircha 55 ta turistik resurs royhatga olindi. Bu resurslar 14 ta alohida —alohida mavzularda ekanligi bepayon chol tabiati chol xalqi hayoti cholning osimliklar olami va hayvonot dunyosidan mahalliy turizm va halqaro turizmni rivojlantirishda foydalanilsa turistlar oqimini yanada oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Mirzayev M. A., Aliyeva M. T. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma.-T.: O'zbekiston faylafuslar jamiyati, 2011.
2. Fayzieva S. H. Osnovnie napravleniya razvitiya turizma v Uzbekistane. // Ekonomicheskiy vestnik Uzbekistana. № 3–4, 2004.

# Таълим тизимида масофавий ўқитишнинг афзалликлари

Атабаева Каромат Ражабовна, старший преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)

*Мазкур мақолада таълим тизимида масофавий ўқитишнинг афзалликлари кенг ёритилган.*

*В данной статье рассмотрены преимущества дистанционного обучения в системе образования.*

*In this paper given opportunities of online education in the education system.*

Мамлакатимизнинг таълим соҳасини ислоҳ қилиш бўйича асосий ҳужжатларидан бири бўлган Ўзбекистон Республикаси «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» [1] да бозор иқтисодиёти талабларига жавоб берадиган кадрларни тайёрловчи таълим муассасаларида ўқув жараёнини ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ), интернет ва компьютер тармоқлари негизида ташкил этиш зарурлиги алоҳида таъкидланган. Мамлакатимиз таълим тизимида ушбу вазифалар ўз вақтида ҳамда самарали амалга оширилмокда. Белгиланган мақсадга эришишда узвий ва изчил, ўзаро уйғунлашган тадбирлар босқичма-босқич амалга оширилиб келинмоқда. Жумладан, ўқув жараёнига кенг форматли коммуникация тармоқлари ва интернет технологияларини жорий қилиш мақсадида «Электрон таълим» миллий тармоғини барпо этиш ҳамда барча олий ўқув юртларини, кейинчалик эса академик лицей ва касб-ҳунар коллежларини ягона компьютер ахборот тармогига улашни таъминлаш вазифаси»... [2] белгилаб берилиб ҳозирги даврда мазкур тадбирлар комплекс тарзда муваффақиятли амалга оширилмокда.

Ушбу вазифаларни янада муваффақиятли бажарилиши учун бу борада ўз ижобий натижасини бера оладиган янги инновацион чора-тадбирлар ҳамда таклифлар ишлаб чиқилиб соҳа амалиётига жорий қилиниши зарур. Шундай тадбирлардан бири ривожланган мамлакатлар таълим тизимида сифатли кадрлар тайёрлаш учун кенг кўламда самарали қўлланилаётган ўқиш жараёни замонавий АКТларга асосланган масофавий таълим (МТ) шаклидир.

Таълим тизими тажрибалари кўрсатмокдаки, ўқув жараёнида интернет тизими ва АКТни янги билимларни эгаллаш, саклаш, узатиш ҳамда амалий қарорлар қабул қилиш воситасига айлантириш ҳисобига кадрларнинг сифат даражасини тубдан яхшилашнинг имкониятлари тобора кенгайиб бормокда. Интернет тизими ва АКТ имкониятларидан МТда фойдаланиш аввало таълим сифати, ижтимоийлиги, оммабоплиги ҳамда иқтисодий жиҳатдан ҳаммага мақбул бўлишлигини таъминлайди. Булардан ташқари МТни анъанавий ўқитиш шаклига таққосланганда бир қатор афзалликлари ҳамда ижобий жиҳатлари мавжуд. Таъкидлаш керакки, ўқитишнинг замонавий МТ шаклини мамлакатимиз олий таълим тизимида самарали жорий этиш учун етарли имкониятлар мавжуд.

Ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) — бу, кенг кўламдаги тушунча бўлиб, унга технологик воситалар ёрдамида коммуникацияга жалб этилган тизимлар, жараёнлар ва шахслар киради.

Масофали таълим — бу, замонавий АКТ ёрдамида масофавий ўқитиш жараёни қўлланадиган, таълим даражасини (таълим цензини) тасдикдовчи, таълим олишнинг педагогик тизимидир.

Масофавий таълим — ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда, масофадан туриб, ўқув ахборотларининг алмапгувини таъминлайдиган, ўқув жараёнини олиб бориш ҳамда бошқариш тизимини амалга оширадиган билим ва кўникмаларни эгаллаш жараёнидир.

Масофавий таълим — бу, муайян соҳада мутахассислар тайёрлаш тизимидаги барча фанларни комплекс тарзда масофавий ўқитишга асосланган, бироқ, комплекс доирасида ўқиш жараёни учун қатъий белгиланган жой ва вақт мезони шартли ўрнатилмаган таълим шаклидир.

Бу таъриф моҳиятини тўла ва тўғри тушуниш учун, уни юқорида қайд этилган масофавий ўқитишнинг таърифи билан бирга келтириш керак, албатта.

**Масофавий ўқитиш** замонавий таълимнинг энг муҳим ва тобора оммавийлашиб бораётган шакли саналади. Замонавий шароитда ахборот-коммуникацион технологияларнинг тезкор ривожланиши таълим жараёнида уларнинг имкониятларидан фойдаланиш учун қулай шароитни вужудга келтирди. Айни вақтда етакчи хорижий мамлакатлар масофадан ўқитиш борасида бой тажриба тўпланган.

Масофавий таълим технологияси 1969 йилда Англия премьер-министри Г.Вильсон ташаббусига кўра шакллантирилган деб ҳисобланади. Аммо масофадан ўқитиш анча олдинроқ, яъни, биринчи барқарор, мунтазам почта алоқасининг шаклланиш даврида юзага келган. 1858 йилдан бошлаб Лондон университетида барча хоҳловчиларга уларнинг мустақил билим олишлари, барча ихтисосликлар ва барча соҳалардаги академик даража учун имтиҳон топширишларига рухсат этилган. 1938 йилдан буён Сиртқи таълим бўйича Халқаро кенгаш, 1982 йилдан бошлаб, Масофавий таълим бўйича Халқаро Кенгаш номи билан машҳур халқаро таълим ташкилотлари сифатида фаолият кўрсатмоқда.

Очиқ университетлардаги ўқиш харажатлари анъанавий институтларда ўқитишга қараганда 8—10 марта арзон. М: Англияда турғун ўқишга 3000, масофавий ўқитиш орқали билим олишга эса атига 300 фунт стерлинг тўланади. Биноларга хизмат кўрсатиш, жиҳозлар ва лаборатория учун

харажатлар, ўқитувчи, маъмуриятлар ва хизмат кўрсатувчи ходимлар штати қисқаради. Таълим олувчиларга филиаллар тармоғи, телестудия ва компьютер тармоғи орқали маслаҳатлар берилади. Англияда ўқувчиларни тайёрлаш дастури 130 та курсни ўз ичига қамраб олади, уларнинг кўплари фанлараро боғланиш хусусиятига эга.

Масофавий таълим АҚШда ўтган асрнинг 60-йилларнинг ўрталаридан, Европада эса 70-йилларнинг бошларида жадал ривожлана бошланди.

Ўқитишнинг бу шакли таълим олувчилар ва ўқитувчиларнинг бир-бирлари ҳамда ўқитиш воситалари билан ўзаро таъсирининг мақсадга йўналтирилган интерфаол жараёнидан иборат бўлиб, бунда таълим жараёни уларнинг географик фазовий жойлашишига боғлиқ бўлмайди. Таълим жараёни кичик тизимлардан иборат, яъни ўқитиш мақсади, мазмуни, методлари, воситалари, ташкилий шакллари, назорат, ўқув-моддий, молиявий-иқтисодий, меъёрий-ҳуқуқий ва маркетинг каби элементларни қамраб олган ўзига хос педагогик тизимда кечади.

МТ турли географик минтақаларда жойлашган ўқитувчи ва талабани боғловчи жараён бўлиб, ўзаро алоқалар махсус технологиялар ёрдамида амалга оширилади. Узаро алоқаларни амалга оширишда турлича усуллар қўлланилади: почта ёки телефакс орқали босмахона материалларини алмашиш, аудиоконференция, видеоконференция, компьютер орқали виртуал конференция кабилардир.

Ўқув юртидан узокда яшовчилар, қатнаб ўқиш учун шароити бўлмаганлар, малакасини оширишни хохловчилар, ногиронлар ва яна бошқа турли сабабларга кўра, бевосита олий ўқув юртига бориб ўқиш имкониятига эга бўлмаганларнинг масофадан туриб билим ва таълим олишга бўлган талаблари ортиб бориши табиийдир.

Масофавий таълим ўқитишнинг анъанавий усулларидан фойдаланиш, турғун шароитда ўқиш имкониятига эга бўлмаган, имкониятлари тиббий шарт-шароитлар туфайли чегараланган шахслар, шунингдек, кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш курсларининг тингловчилари, хорижий мамлакатларнинг таълим муассасаларида ўқитиш истагида бўлган абитуриентлар, иккинчи мутахассисликни эгаллашни хоҳловчи кадрларга жуда қулай шароитни яратиб беради.

Айниқса, иш билан банд бўлган катта ёшдаги кишилар, иккинчи мутахассислик бўйича таълим олишни хохдовчилар учун МТ жуда кулай воситадир.

МТга қуйидаги бешта асосий ҳолат билан тавсифланувчи таълим сифатида қараш мумкин:

ўқитувчи ва ўқувчининг мавжудлиги;

— таълим жараёнининг маълум масофада амалга оширилиши;

— ўргатувчи ва ўқувчининг ўзаро иккиёқлама мулоқоти;

— масофавий ўқиш учун мўлжалланган махсус материаллар;

— мавжудлиги;

— ҳар икки томоннинг компьютер ва бошқа техника ва коммуникация;

— воситалари билан таъминланганлиги.

Бизнинг фикримизча, олий таълимда, шу жумладан МТда АКТ тизимни» шакллантириш ва ривожлантиришда қуйидагилар муҳим ҳисобланади:

1. мақсадларини амалга ошириш учун юқори малакали кадрларни қайта тайёрлаш;

— янги эҳтиёжлардан келиб чикиб мутахассислар тайёрлаш, яъни бозорни шакллантириш;

— янги кадрларни тайёрлашда сифатга бўлган талабларни тўғри инобатга олиш;

2. субъектлар билан интеграция асосида ҳамкорлик килиш;

— фаолият учун зарур бўлган ёки жалб килинган механизмлар;

— тармоғини тузиш ва улар билан биргаликда ишлаш;

— бозор унсурларини яратиш, ўзгартириш ва такомиллаштириш;

— Масалан, солиқ қонунлари, ташқи муҳит ва хавфсизликни тартиблаштириш;

3. билимларнинг товарга айланиш жараёнини жадаллаштириш, уларни амалиётга жорий этишга каратилган инновацион фаолиятларни молиялаштириш.

АКТни жамият ва иқтисодий соҳаларда қўллаш инновацион ривожланишини таъминлайди. Унинг соҳалари:

— АКТ таълим тизимларини бошқаришда қўллаш;

— АКТ кутубхона ва ахборот ресурс марказларини ташкил этишда;

— қўллаш ҳамда АКТни дарс бериш жараёнида қўллаш.

Юқорида таъкидланганидек, зарур билимларни сотиш ва сотиб олиш унинг товарга айланганлигини билдиради. Чунки, билимларнинг мунтазам равишда янгиланиб турилиши ва уларни иш кучи томонидан қўлланилиши ижтимоий — иқтисодий тараққиётнинг калитидир. Билим беришга ихтисослашган олий таълим ва ўрта махсус ўқув юртларида инновациялар кенг кўламда қўлланилиши зарур. Яъни, масофавий ўқитишни мактаб таълимига татбиқ этиш, янги фанлар ва технологияларни қўллаш кабилар шулар жумласидандир. Ушбу жараённинг оммавийлашиши натижасида, университетларнинг ишлаб чиқариш ва бозор билан алокаси юзага келишида муҳим аҳамият касб этади.

Шунингдек, таълим жараёнига АКТ ни қўллаш қуйидагиларга имкон беради:

— шахснинг интеллектуал ва ижодий қобилиятини;

— ривожлантиришига;

— жамиятнинг ҳар бир аъзоси ўз малакасини ошириш ва фаолият соҳасини ўзгартира олишига;

— қулай таълим учун шарт-шароит яратиш ва самарасини;

— оширишга;

— таълим ресурсларидан самарали фойдаланиш асосида бир талабага;

— тўғри келувчи харажатларни пасайтиришга;

— олий ўқув юртларида анъанавий таълим шаклида ўқиш имкони;

— бўлмаган шахсларга МТ воситасида олий маълумот олишга ва шу кабилар.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, таълим тизимида АКТ ни қўллаш, ҳам иқтисодий, ҳам ижтимоий самара беради. Шуниг учун бу борадаги назарий, услубий ва бошқа жиҳатларни давр талаблари асосида такомиллаштирилиши бугунги кунниг долзарб вазифаларидан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:


1. Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида»ги Қонуни.Тошкент,1997.
2. Каримов И. А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш,халкимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. —Т.: Ўзбекистон, 2011.—35 б.
3. Абдуқодиров А. А. ва бошқалар. Ахборот технологиялари. — Т., 2002.
4. Абдуқодиров А. А., Пардаев А. Х. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. — Т.: Фан, 2009.


## Замонавий педагогик технологияларнинг таълим-тарбия жараёнидаги аҳамияти


Атабаева Каромат Ражабовна, старший преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)



*Мазкур мақолада замонавий педагогик технологияларнинг таълим-тарбия жараёнидаги аҳамияти кенг ёритилган.*

*В данной статье рассмотрено значение современных педагогических технологий в процессе учебно-воспитательной работы.*

*In this article the significance of modern pedagogical technologies of teaching and educational work is widely illustrated.*


Ўзбекистон Республикасида таълим-тарбия тизимини тубдан ислоҳ қилиш мустақилликнинг илк кунлариданоқ энг мухим вазифалардан бири сифатида доимий диққат-эътибор марказида бўлиб келмоқда. Юртимизда таълим соҳасини ривожлантириш ва ислоҳ этишга йўналтирилаётган йиллик харажатлар ялпи ички маҳсулотнинг 10—12 фоизини ташкил этаётгани ва бу соҳани давлат бюджети харажатларидаги улуши 35 фоиздан зиёд экани, бундай кўрсаткичларни дунёнинг бошқа давлатларида камдан-кам учратиш мумкинлиги бугунги кунда Бирлашган Миллатлар Ташкилоти, ЮНИСЕФ, ЮНЕСКО ва бошқа нуфузли халқаро ташкилотлар томонидан эътироф этилаётганлиги фикримизнинг ёрқин далили бўла олади [1].

Мустақил фикрлайдиган, замонавий илм-фан ва касбҳунарларни пухта эгаллаган, ўз юрти, ўз халқига фидойи, юртбошимиз бошлаган ишларни давом эттиришга қодир бўлган, ҳар томонлама соғлом авлодни тарбиялаш ҳар бир таълим берувчининг энг муҳим вазифаси, юртбошимиз таъбирлари билан айтганда балки бурчидир. Ушбу бурч ва вазифаларни бажариш ҳар бир педагогдан юксак билим, улкан маҳорат, замонавий илм-фаннинг ютуқларидан хабардор бўлиш, хорижий тилларни пухта эгаллаш, компьютер технологияларидан, интернетдан мақсадли фойдаланиш кўникмаларига ҳамда юқори малакага эга бўлишни талаб этмоқда.

Узлуксиз таълим тизимининг олдида турган энг муҳим ва энг долзарб вазифалардан бири-бу ўқитишда иннавацион таълим технологияларидан кенг фойдаланиш, уларни ўқув жараёнига тадбиқ этиш ва жаҳон стандартлари талабларига билимли, уддабурон, тадбиркор, ишининг кўзини биладиган ва рақобатбардош мутахассис кадрлар тайёрлаш, шу билан бирга комил инсон шакллантиришдан иборатдир.

Биринчи Президентимиз И. А. Каримов таъкидлаганларидек, «Шуни унутмаслик керакки, келажагимиз пойдевори билим даргоҳларида яратилади. Бошқача айтганда, халқимизнинг эртанги куни қандай бўлиши фарзандларимизнинг бугун қандай таълим ва тарбия олишига боғлиқ.Бунинг учун ҳар қайси ота-она. устоз ва мураббий ҳар бир бола тимсолида аввало, шахсни кўриши зарур. Ана шу оддий талабдан келиб чиққан ҳолда,фарзандларимизни мустақил ва кенг фикрлаш қобилиятига эга бўлган,онгли яшайдиган комил инсонлар этиб вояга етказиш-таълим-тарбия соҳасининг асосий мақсади ва вазифаси бўлиши лозим, деб қабул қилишимиз керак.Бу эса таълим ва тарбия ишини уйғун ҳолда олиб боришни талаб этади [2]

Ўқитувчининг самарали фаолият кўрсатишга ундовчи дарснинг методик ишланмасини пухта ишлаб чиқишдан фарқлиўлароқ,таълимтехнологияситалабаларфаолиятига нисбатан йўналтирилган бўлиб, у талабаларнинг шахсий

ҳамда ўқитувчи билан биргаликдаги фаолиятларини инобатга олган ҳолда, ўқув материалларини мустақил ўзлаштиришлари учун зарур шарт-шароитларни яратишга хизмат қилади.

Таълим технологиясининг марказий муаммоси — таълим олувчи шахсини ривожлантириш орқали таълим мақсадига эришишни таъминлашдан иборат.

Педагогик технология назарияси ўтган асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб асосланиб келинаётган бўлсада, айнан «педагогик технология» тушунчасига нисбатан турлича ёндашувлар мавжуд. Хусусан, педагог олим В. П. Беспалько педагогик технологияни «амалиётга тадбиқ қилинадиган муайян педагогик тизим лойиҳаси» дея таърифлайди ҳамда асосий диққатни ўқув-педагогик жараённи олдиндан лойиҳалашга қаратади [3].

Ўз моҳиятига кўра педагогик технология вақт тақсимотига мувофиқ дастурланиб, илмий жиҳатдан асосланган ҳамда кутилган натижага эришишни таъминловчи педагогик жараённинг барча босқич ва қисмларининг вазифалари аниқ белгиланган тизимни ифодалайди.

Таълимнинг самарадорлигини ошириш ва билимларни тўла эгаллашларига эришиш, шахснинг таълим диққат марказида бўлишини ва ёшларнинг мустақил билим олишларини таъминлаш учун таълим муассасаларига яхши тайёргарлик кўрган ва ўз соҳасидаги билимларни мустаҳкам эгаллашдан ташқари замонавий педагогик технологияларни ва интерфаол усулларни биладиган, улардан ўқув ва тарбиявий машғулотларни ташкил этишда фойдалана оладиган ўқитувчилар керак. Бунинг учун, барча фан ўқитувчиларини инновацион педагогик технологиялар ва интерфаол усуллар билан қуроллантириш ҳамда олган билимларини ўқув-тарбиявий машғулотларда қўллаш малакаларини ошириб бориш лозим.

Узлуксиз таълим тизимининг олдига қўйилган давлат ва ижтимоий буюртмага мувофиқ, олий ўқув юртлари таълим-тарбия жараёнининг самарадорлигини ошириш, илм-фаннинг сўнгги ютуқларини амалиётга жорий этиш орқали ижодкор, ижтимоий фаол, юксак маънавиятли, касб-ҳунарли, Она-Ватанга садоқат, миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбияланган, ижодий ва мустақил фикр юрита оладиган, давлат ва жамият олдида ўз бурчи ва жавобгарлигини ҳис этадиган баркамол шахсни камолга етказиш, уларнинг онги ва қалбига миллий истиқлол ғоясини сингдириш каби муҳим вазифаларни амалга ошириш назарда тутилади.

Ушбу вазифаларнинг муваффақиятли ҳал этилиши таълим-тарбия жараёнида замонавий педагогик технологиялардан фойдаланишни тақозо этади.

Ўқув-тарбия ишлари жараёнида ўқувчи-талаба ёшларни ижодий фикрлашга, ўзгарувчан вазиятларга ўргатиш, эркин рақобат асосида фаолиятни ташкил этиш ҳамда уларнинг амалий машғулотларда ахборот технологиялари, электрон дарсликлар ва мультимедиалардан фойдалана билиши муҳимдир. Бу эса талабаларда мустақиллик, эркин фикрлашни тарбиялашни, ўқув фаолиятини таҳлил қилишни, истиқболда касбий маҳорат орттириш уларнинг ички эҳтиёжига айлантирилишини талаб этади.

Замонавий педагогик технологиялар таълим-тарбия жараёнининг бир тизимга солинган илмий-назарий ва методик асосланган янги шакл, усул ва воситаларининг мажмуидир. Бунда янги мазмун, шакл, усул ва восита уйғунлигида мақсад, вазифа, фаолият ва педагогик натижа яхлитлиги таъминланади ҳамда ўқув мақсадларига эришишни кафолатлайдиган ўқув жараёни лойиҳалаштирилади ва амалга оширилади. Технологик ёндашув, энг аввало, тасвирлаш эмас, балки лойиҳалаштирилган натижаларни амалга ошириш имконини берувчи амалий кўрсатмали тузилмада ўз ифодасини топади.

Ҳозирги кунда таълим жараёнида интерфаол услублар (инновацион педогогик ва ахборот технологиялари)дан фойдаланиб, таълимнинг самарадорлигини кўтаришга бўлган қизиқиш, эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда. Замонавий технологиялар қўлланилган машғулотлар талабалар эгаллаётган билимларни ўзлари қидириб топишларига, мустақил ўрганиб, таҳлил қилишларига,ҳатто хулосаларни ҳам ўзлари келтириб чиқаришларига қаратилган. Ўқитувчи бу жараёнда шахс ва жамоанинг ривожланиши, шаклланиши, билим олиши ва тарбияланишига шароит яратади, шу билан бирга, бошқарувчилик, йўналтирувчилик вазифасини бажаради. Бундай ўқув жараёнида талаба асосий фигурага айланади.

Ўқув — тарбия жараёнида педогогик технологияларнинг тўғри жорий этилиши ўқувчиларнинг бу жараёнда асосий ташкилотчи ёки маслаҳатчи сифатида фаолият юритишига олиб келади. Бу эса талабалардан кўпроқ мустақилликни, ижодни ва иродавий сифатларни талаб этади.

Ҳар қандай педагогик технологиянинг ўқув — тарбия жараёнида қўлланилиши шахсий характердан келиб чиққан ҳолда, талабани ким ўқитаётганлиги ва ўқитувчи кимни ўқитаётганлигига боғлиқ.

Педогогик технология асосида ўтказилган машғулотлар ёшларнинг муҳим ҳаётий ютуқ ва муаммоларига ўз муносабатларини билдиришларига интилишини қондириб, уларни фикрлашга, ўз нуқтаи назарларини асослашга имконият яратади.

Ҳозирги даврда содир бўлаётган инновацион жараёнларда таълим тизими олдидаги муаммоларни ҳал этиш учун янги ахборотни ўзлаштириш ва ўзлаштирилган билимларни ўзлари томонидан баҳолашга қодир зарур қарорлар қабул қилувчи, мустақил ва эркин фикрлайдиган шахслар керак.

Бугунги кунда ўқитиш жараёнини самарали ва натижали бўлишини таъминлашга йўналтирилган интерфаол услубларнинг ва ўқитиш технологияларининг барчаси мамлакатимизнинг барча умумий ўрта таълим, ўрта махсус, касб-хунар ҳамда олий таълим муассасалари, ўқитувчилар малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш институтлари ва факультетларда кенг миқёсда қўлланилиб келинмоқда хамда ижобий натижалар бермоқда.

Бугунги кунда республика таълим муассасаларида интерфаол таълимни ташкил этишда қуйидаги энг оммавий технологиялар қўлланилмоқда:

1. **Интерфаол методлар:** «Кейс-стади» (ёки «Ўқув кейслари»), «Блиц-сўров», «Моделлаштириш», «Ижодий иш», «Муносабат», «Режа», «Суҳбат» ва б.
2. **Стратегиялар:** «Ақлий ҳужум», «Бумеранг», «Галерея», «Зиг-заг», «Зинама-зина», «Музёрар», «Ротация», «Т-жадвал», «Юмалоқланган қор» ва ҳ.к.
3. **График органайзерлар:** «Балиқ скелети», «БББ», «Концептуал жадвал», «Венн диаграммаси», «Инсерт», «Кластер», «Нима учун?», «Қандай?» ва б.

Интерфаол таълим бевосита интерфаол методлари ёрдамида ташкил этилади.

4. **Модулли-кредит тизими** замонавий таълимнинг энг такомиллашган шакли саналади. Бугунги кунда тараққийпарвар инсоният давлатлар ўртасида ижтимоий, иқтисодий, ҳарбий ва маданий соҳаларда ўзаро келишувга эришиш, ҳамкорликни йўлга қўйишнинг янгидан янги йўлларини излашда давом этмоқда.

Бугунги кунда таълим тизимида билимларни эгаллашнинг янги консепцияси — замонавий инновацион таълим технологияларнинг турли хил кўринишларини қўллаш жуда яхши самара бермоқда. Бунда таълимнинг янги методлардан фойдаланишда таҳсил олувчиларнинг интеллектуал, эркин фиклашни ривожлантириш, ўз фикрини асослаб беришга интилиши, ўзгалар фикрини тинглай олиши, муаммолар ечимини топишга ҳаракат қилиши, ижодий ва ахлоқий тараққиёти жараёнларига самарали таъсир этади.

Ўқитувчи таълим-тарбия жараёнида таълим методларидан фойдаланганда, аввало, бу методдан фойдаланишнинг ўрни, унинг самарадорлигини билиши муҳимдир. Бунинг учун ҳар бир педагог ҳаётий тажрибага эга бўлган, етарли билимлар билан қуролланган, таълим олувчиларга нисбатан муаммоларнинг ечимини олдиндан ҳал эта оладиган ва уларни таълим олувчиларга етказиш малакасига эга бўлиши лозим.

Шунингдек,инновацион технология асосида ўтказилган машғулотлар ёшларнинг муҳим ҳаётий ютуқ ва муаммоларига ўз муносабатларини билдиришларига интилишларини қондириб, уларни фикрлашга, ўз нуқтаи назарларини асослашга имконият яратади. Ҳозирги даврда содир бўлаётган инновацион жараёнларда таълим тизими олдидаги муаммоларни ҳал этиш учун янги ахборотни ўзлаштиришга ва ўзлаштирилган билимларни мустақил баҳолашга қодир, зарур қарорлар қабул қила олувчи, мустақил ва эркин фикрлайдиган шахслар керак. Шунинг учун ҳам таълим муассасаларининг ўқув-тарбиявий жараёнида замонавий ўқитиш услублари-интерфаол услублар, инновацион технологияларнинг ўрни ва аҳамияти беқиёсдир.

Шунинг учун ҳам бугунги кунда барча таълим муассасаларининг ўқув-тарбиявий жараёнида ўқитувчининг касбий маҳорати, ҳаётий тажрибаси, замонавий ўқитиш услублари-интерфаол услублар, инновацион технологияларнинг ўрни ва аҳамияти беқиёсдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:


1. Қаримов И. А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш — энг олий саодатдир. — Т.: Ўзбекистон, 2015, 11-б.
2. И. А. Қаримов «Юксак маънавият-енгилмас куч» — Т.:»Маънавият», 2008.(61-бет)
3. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. — М.: Педагогика, 1989.
4. Ишмухамедов Р. Ж. «Иннавацион таълим технологиялари» — Т. — 2008 й.
5. Йўлдошев Ж. Ғ., Ҳасонов С. Педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма. — Тошкент: Иқтисод-Молия, 2011.


# Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning istiqbollari ustuvor yo'nalishlari


Bekjanov Dilmurad Yo'dashovich
Урганч давлат университети (Ўзбекистон)

Бекжанов Дилмурад Юлдашович, старший преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)


Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga e'tibor yildan yilga oshib bormoqda. 2017 yilda bu sohani rivojlantirish bo'yicha alohida mintaqa va hududlarning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqan holda, alohida turizmni rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Hususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 maydagi «2017—2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shaxrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish Dasturi to'g'rida» gi PQ-2953-sonli qarori bunda yaqqol misol bo'ladi. Bunda mintaqa turizm salohiyatini oshirish va uni xalqaro miqyosda raqobatbardoshligi oshirishga alohida e'tibor qaratilgan [1, 3].

Xorazm viloyatida turizm sohasi respublikada eng rivojlangan viloyatlardan biridir. Ushbu viloyatda turizmni rivojlanishi o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, sohani yanada rivojlantirish uchun etarlicha imkoniyat va salohiyatlarga ega.

Viloyatda 255 madaniy meros ob'ektlari davlat ro'yxatiga olingan bo'lib, shundan 18 tasi arxeologiya, 133 tasi arxitektura, 66 tasi haykaltaroshlik yodgorliklari, 32 tasi muqaddas qadamjolardir.

Ulardan 53 ta madaniy meros ob'ektlari Xiva «Ichan-Kal'a» Davlat muzey qo'riqxonasi hududida joylashgan. Qolgan ob'ektlar viloyatning turli tumanlarida joylashgan. Bu esa viloyatda turizmni rivojlantirish potensiali, uning imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, hozirgi kunda viloyatda joylashgan ayrim turistik ob'ektlar ta'mirtalab ahvolga kelib qolgan. Ba'zi ob'ektlar turistik yo'nalishlar dasturiga kiritilmagan. Ta'mirtalab ahvoldagi ob'ektlarni ta'mirdan chiqarib, turistik yo'nalishlar dasturiga kiritilsa viloyatga turistlar oqimni ko'paytirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu bilan qo'shimcha valyuta tushimiga erishiladi, mahalliy aholi vakillaining ish bilan ta'minlanish imkoniyati yuzaga keladi.

Hozirgi kunda viloyatni tarixiy-madaniy merosi asosan BMT ning YUNESCO moddiy meroslarni asrash ro'yhatiga kiritilgan bo'lib, Xiva shahrining asosiy obyektlari ulardan joy olgan.




Rasm. 1. **2012–2016 yillar davomida Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan sayyohlar soni**

2012 yilga nisbatan viloyatimizda sayyohlik tashkilotlari soni 36 tadan 72 taga, shundan mehmonhonalar soni 26 tadan 52 taga, turoperator va turagentlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar soni 10 tadan 20 taga etdi. Xususan, 2016 yilning o'zida 10 ta mehmonxona va 3 ta turoperatorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sayyohlik tashkilotlari ish boshlashdi. Bugungi kunda chet el investitsiyasini jalb qilgan holda tashkil etilgan 5 ta mehmonxona faoliyat ko'rsatmoqda. Mehmonxonalardagi o'rinlar soni 1477 tadan 2300 taga etdi. Viloyatda turizm sohasidagi o'zgarishlar hamda yangi ish o'rinlarining yaratilishi natijasida bugungi kunda jami sayyohlik tashkilotlarida 450 nafardan ortiq xodimlar mexnat qilib kelmoqda [3, 12].

Xorazm viloyatida turizm sohasi respublikada eng rivojlangan viloyatlardan biridir. Ushbu viloyatda turizmni rivojlanishi o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, sohani yanada rivojlantirish uchun etarlicha imkoniyat va salohiyatlarga ega.

Mintaqada turizm industriyasining raqobatbardoshligini bevosita baholash uchun biz Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan sayyohlar tashrifi statistikasiga bevosita to'xtalib o'tamiz. Bu 2017 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jami xorijiy sayyohlar soni 46 600 kishini tashkil qiladi. Bu ko'rsatgich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 foizda ortganligi kuzatiladi.

Viloyatda turizmni rivojlantirish dasturiga asosan 2013–2015 yillarda jami 214,3 mlrd. so'mlik 200 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan.

Bugungi kungacha 108 ta loyiha to'liq bajarilib, 49,3 mln. dollarga teng investitsiya mablag'lari o'zlashtirildi, 36,5 mln. dollarlik 46 ta loyihada ishlar davom etmoqda.

«Turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xududning sayyohlik yo'nalishlari va xizmatlarini takomillashtirish, sayyohlik imkoniyatini namoyish qilish ishlarini amalga oshirish, sayyohlar uchun qo'shimcha ob'ektlar infratuzilmasini yaxshilash, turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish» bo'yicha dastur doirasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Shu jumladan, MDH mamlakatlaridan 2015 yil davomida 5767 nafar sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2016 yilda bu ko'rsatgich 6598 nafar kishini tashkil qilib, 15 foizga oshgan.

Birgina, 2015 yilning o'zida dunyoning 80 dan ortiq davlatidan 40,6 mingga yaqin xorijiy sayyohlar viloyatimizga tashrif buyurishgan bo'lishsa, 2016 yil yakuni bilan, bu ko'rsatkich 46,6 mingdan ortiqni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 % ga oshgan.

2017–2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shaxrining turistik salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. Unda chora-tadbirlar quyidagi guruxlarga bo'lingan holda amalga oshiriladi:




Rasm. 2. **Xorazm viloaytiga tashrif buyurgan sayyohlar soni**

1. Xorazm viloyati va Xiva shaxrining turizm infratuzilmasini rivojlantirish;
2. Turizm yo'nalishlari va xizmatlarini takomillashtirish;
3. Xududning turizm salohiyatini targ'ib qilish;
4. Turistlar uchun yondash infratuzilma obyektlari xolatini yashilash;
5. Turizm sohasida mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

Xorazm viloatida turizm xizmatlari va ushbu sohaning infratuzilmalari O'zbekistonnning boshqa tarixiy joylariga nisbatan sust darajada rivojlanganligi ta'kidlab o'tiladi. Aslida esa, bu xolat viloyatda turizm sohasi bo'yicha axborotlashuv past darajada ekanligi natijasidir.

Tahlillarxorijlikturistlarba'zanXorazmgatashrifbuyurushni rejalashtirmasliklariga bu yerdagi mavjud afzalliklar haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega emasliklari asosiy sabab sifatida ko'rsatilgan [4, 121]. Ayni paytda Xorazmga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar olingan taasurotlarni Samarqand va Buxoro shaxarlaridagidan aslo kam emasligini ta'kidlashadi. Bundan tashqari, xalqaro turizm axborot vositalarida turli xalqlar ovqatlarini tayyorlash faqat Toshkent shaxrida yaxshi rivojlanganligi, boshqa joylarda, hususan Xorazm viloyatida chet ellik sayyohlar uchun ovqatlanish uchun joylar nisbatan chegaralanganligi aytib o'tilgan.

Xorazm viloaytiga turizm industiyasini jadal sur'atlar bilan rivojlanishi uchun bu sohada xizmatlar sifatini oshirish eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda tashrif buyurgan har bir sayyohning xohish-istagini hisobga olish va xizmatlar sifatini yaxshilash uchun bu boradagi xalqaro standartlarni o'rgatish, hamda ularni soha vakillariga yetkazish darkor. Turizm sohasida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xalqaro andoza bo'yicha sifatga qo'yiladigan yangi talablar bilan turizm sohasi va boshqa tegishli soha vakillarini muntazam tanishtirib borish lozim.

Xizmatlar sifatini oshirish uchun mamlakatimizda professional malaka sertifikatlash tizimini joriy qilish,hamda turizm, ovqatlanish va boshqa xizmat ko'rsatish sohalarida «Iste'molchiga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish» konsepsiyasi keng targ'ib qilinadi.

Mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari uchun xalqaro standartlar asosida milliy talablarni o'rnatish va turizm sohasida faoliyat olib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari yordamida xizmat ko'rastish sifatini uzluksiz monitoring qilib borish maqsadga muvofiqdir.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. «2017–2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shaxrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish Dasturi to'g'rida» gi PQ-2953-sonli Qarori. www.lex.uz — Qonunchilik portali materiallari.
2. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Iqtisodiyot universiteti. O'zbekiston: moliyaviy — iqtisodiy inqirozi, innovatsion taraqqiyot va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish — Toshkent — 2009. 47 — bet.
3. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Xorazm viloyati boshqarmasi statistika ma'lumotlari Urganch, 2017 yil.
4. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. Toshkent 2014.

# Kasb-hunar kolleglarida seminar mashg'ulotlarini tashkil qilishning o'ziga hos xususiyatlari

Qo'chqarov Sh.
Урганч давлат университети (Ўзбекистон)

*Ushbu maqolada o'quv jarayonini tashkil etishda seminar darslarining alohida o'rni, seminar mashg`ulotlarining maqsadi, seminar-amaliy mashg`ulotlarning shakllari, seminar darsi funksiyalari yoritib berilgan.*

Кучкоров Шоназар, старший преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)

*В этой статье рассмотрены вопросы об особенной роли семинарских занятий в организации учебного процесса, цель и функции семинарских занятий.*

*In this article, the particular role of seminar lessons, the purpose of seminar training, the forms of practical seminar training and the function of seminar lessons are illustrated.*

O`zbekiston Respublikasida bugungi kunda olib borilayotgan chuqur islohatlar yosh avlodni har tomonlama aqliy, ahloqiy va jismoniy jihatdan rivojlanishida kasb hunar kollejlari asosiy o`rinni egallaydi. Mamlakatimizda yosh avlodni sog`lom ruhda tarbiyalash borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Hurmatli birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek «Kelajak avlod haqida qayg`urish sog`lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir». [1]

Yurtimizda sog`lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, davlat siyosatining ustivor yo`nalishlaridan biri bo`lib, millat genafondini asrash, oilada, jamiyatda sog`lom turmush tarzini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kasb-hunar kollejlarida maxsus fanlar bo`yicha darslarning sifatini yaxshilash, darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish va ularni samaradorligini oshirish, sport turlarini rivojlantirish va ommaviyligini oshirish, iqtidorli o`quvchilarni tanlash hamda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash dolzarb masalalardan biridir.

O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov alohida ta'kidlaganlaridek,...biz mamlakatimizning istiqboli — yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo`lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotda nechog`lik faol munosabatda bo`lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog`liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak». Shu sababli ham birinchi navbatda ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko`ikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qluvchi-ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatlarni ham kiritish g`oyasi kun tartibiga ko`ndalang qilib qo`yildi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga yo`naltirilayotgan yillik xarajatlar YaIMning 10—12 foizini tashkil etayotgani va bu sohaning davlat budjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ziyod ekani, bunday ko`rsatkichlarni dunyoning boshqa davlatlarida kamdan-kam uchratish mumkinligi bugungi kunda BMT, YUNISEF, YUNESKO va boshqa nufuzli halqaro tashkilotlar tamonidan e`tirof etilmoqda. [2]

Ma'ruza bilan birgalikda amaliy mashg`ulot ham o`quv jarayonining muhim shakllariga kiradi. U ta'lim, tarbiya berish hamda nazariyani amaliyot bilan bog`lash funksiyasini bajaradi. Amaliy mashg`ulot atamasi pedagogikaga oid adabiyotlarda tor va keng ma'noda talqin etiladi. Amaliy mashg`ulot keng ma'noda seminar (uning barcha turlari), mashq, laboratoriya ishini umumiy holda ifodalanishidir. Seminar amaliy mashg`ulotning shakllaridan biri bo`lib:

— ma'ruzada bayon qilingan nazariy qonun-qoidalarni mustahkamlash;
— fan bo`yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;
— talabalarni ilmiy tadqiqot, bilish qobiliyatlarini o`stirish vazifalarini bajaradi.

Seminar darsi talabalarni bilim olishlari, uni puxta o'zlashtirishlari va olgan bilimlarini kelgusida real hayotda qo`llashni o`rganishlarida alohida o`rin tutadi. Shuning uchun ham, seminar darsini qiziqarli, talabalarni faol qatnashishlarini ta'minlaydigan metodlarni qo`llab o`tish muhim ahamiyatga ega.

Ma'ruzada odatda bayon qilish etakchi rol o`ynaydi. Talabalar ma'ruza tinglashda passiv rol o`ynaydilar. Seminar darsida esa talabalar faol bo`lishadi. Darsda turli metodlarni qo`llab, ularning faolligini ta'minlash imkoniyati keng.

Ma'ruza darsi monolog tarzida bayon qilinsa, seminar darsi dialog asosida olib boriladi. Odatda, seminar darsida talabalarning bilimi, o`z ustida ishlash darajasi aniqlanadi, nazorat qilinadi. Seminar (lot. seminariyum — manba, ko'chma ma'noda — maktab) — o`quv amaliy mashg`ulot shakllaridan biri. Asosan oliy o`quv yurtlarida, ilmiy to`garak, anjumanlarda qo`llaniladi.

O`quv jarayonini tashkil etishda seminar darslari alohida o`rin tutadi. Seminar o`quv jarayonining talabalar bilimlarini mustahkamlashni ta'minlovchi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qiluvchi shaklidir. Seminar mashg`ulotlarining maqsadi talabalarning chuqur bilim olishini ta'minlash, olgan bilimni real hayotda qo`llashga o`rgatishdir.

Buning uchun talaba olgan axborotlarini tahlil qilish, ilmiy-tadqiqot o`tkazish, taqqoslash, xulosa chiqarishni bilishi kerak. Seminar darsining oldiga qo`yilgan bosh maqsadga erishish uchun dars oldiga qo`yilgan qator vazifalarni amalga oshirish kerak. Bu vazifalar seminar darslari bajaradigan funksiyalarda o`z ifodasini topadi:

— talabalarga professional ta'lim berish va tarbiyalash;
— mustaqil ishlash malakasini o`stirish;
— mantiqiy fikrlashga o`rgatish;
— nutqini o`stirish, ilmiy munozaralar olib borishga o`rgatish;
— mustaqil fikr yuritish va o`z fikrini o`rtoqlashishga o`rgatish;
— o`rtoqlari fikrini tanqidiy baholashga o`rgatish;
— talabalar bilimini nazorat qilish va baholash;
— nazariy olgan bilimlarini amaliyot bilan bog`lash.

Inson xotirasi — bu bizning biokompyuterdir. Odatda, yangi axborotni qabul qilar ekanmiz, avvalgi axborot qisman xotiradan ko`tariladi. Axborotlar nihoyatda xilma-xil bo`lib, inson har kuni o`z hayotida qabul qiladigan axborotlar miqdori, ularni turlicha qabul qilinishi, xotirada saqlanib qolishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Psixologlarning fikricha, olingan axborot, 1-chizmada tasvirlangandek, go`yoki filtrdan o`tib, saralanib, ma'lum bir jihatlari bilan ajralib turadiganlari xotirada saqlanar ekan.

Aytib o`tganimizdek, olimlarning ilmiy tadqiqotlari shuni ko`rsatadiki, oddiy inson odatda axborotlarni olgan manbasi, shakliga ko`ra turli darajada o`zlashtiradi.




Chiz. 1. **Olingan axborotning filtrdan o`tishi [3]**

Olingan axborot 1-chizmada go`yo filtrdan o`tishi ko`rsatilgan. Bu holda axborot qisqa muddat yodda saqlanadi. Qisqa muddat yodda qolgan bilim ikkinchi filtrdan o`tgach, shu bilimni yodda saqlash, foydalanish, takrorlash tufayli faol bilim zaxirasiga aylanadi.

Bu bilimdan foydalanib, takrorlab turilmasa, sust bilim zaxirasiga aylanadi va bora-bora xotiradan ko`tariladi. Uni quyidagi 2-chizmada ko`rish mumkin. Bulardan shunday xulosa chiqarish mumkin: talabalarning eng avvalo, o`quv materialini o`zlashtirishi, yodda qolishi uchun olinadigan axborotni iloji boricha eshitish va ko`rish orqaligina emas, balki gapirish, o`z faoliyatida sinab ko`rish orqali yetkazish katta ahamiyatga ega. Bunga erishishning yo`li seminar darslarini turli-tuman metodlar orqali olib borishdir. Aynan seminar darsida talabalar ma'ruza, kitob, jurnal va hokazolar orqali olgan axborotlari, bilimlarini tushungan holda gapirib berish, uni modellashtirish asosida sinab ko`rish imkoniyatiga ega bo`ladilar.

Seminar darsini o`tkazishda qo`llanadigan uslublar turli-tuman bo`lib, u yoki bu uslubni tanlash, o`rganilayotgan fanning xususiyatiga; o`tilayotgan mavzuga, seminar darsiga qo`yilgan maqsadga, tanlangan uslubni qo`llash imkoniyatiga bog`liq.

Hozirgi paytda iqtisodiy fanlarni o'rganishda nisbatan keng qo'llaniladigan uslublardan: ekspress savol-javob, savollar tizimiga asoslangan muhokama, seminar mashg`uloti rejasi bo'yicha atroflicha suhbat, modellashtiruvchi o'yin, doklad va referatlarni muhokama qilish, masala, mashq, test echish va ularning natijasini muhokama qilish, munozara va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Seminar mavzusi ma'ruza mavzusi bilan bir xil bo'lishi shart emas. Ba'zan mavzudagi ayrim savollar ma'ruzada ko'rib chiqilsa, ayrimlarini seminarda muhokama qilish mumkin. Hozirgi paytda ma'ruzada ko'rilgan mavzu albatta, seminarda ham muhokama qilinadi. Lekin ma'lum sharoitda seminar darsi va uning mavzusiga boshqacha yondashish




Chiz. 2. **Takrorlash**

mumkin. Aytaylik, adabiyotlar, axborot manbalari mavjud bo'lsa, seminarda mustaqil o'rganilgan mavzuni muhokama qilish mumkin.

Seminar darsini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni sinchkovlik bilan o'rganish zarur. Adabiyotlarni o'rganish dars jarayonida talabalarning diqqatini qaratish lozim bo'lgan masalalarni alohida ajratish, mavzuni qaysi usul asosida o'rganishni rejalashtirish va darsga tayyor-lanish imkonini beradi.

Savollarni murakkablashtirish hamda savollar tizimiga o'tish orqali mavzu mazmunini chuqur o'zlashtirish mumkin. Bu esa savolni muhokama qilish jarayonida vujudga kelgan muammoli vaziyatni o'rganib, uni yechish imkoniyatini beradi. Masalan, iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi nima? — degan savol qo'yilgan. Bu holda talaba iqtisodiyot nazariyasi fanining bosh muammosi -resurslarning cheklanganligi sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish muammosi — deb javob berishi mumkin.

Ana shu savolni aytaylik, quyidagicha savollar tizimi asosida ilgari surish mumkin: Iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi nima? Nima sababdan buni bosh muammo deb ataymiz? Sizningcha, iqtisodiyotda yana qanday muammolar bor? tarzida berish mumkin. Ana shu savollar tizimiga javob berish jarayonida talabalar iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi resurslarning cheklanganligi sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish ekanligini, bunga sabab, iqtisodiyotdagi barcha masalalarni qamrab olishi ekanligi oydinlashadi. Ularga misol qilib, tanlash muammosini, har bir uy xo`jaligi, firma, davlat o'z oldiga qo'ygan maqsad va unga erishish muammosini va hokazolarni ko'rsatish mumkinki, ularning barchasi resurslarning cheklanganligi bilan bog`liq.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Karimov I. A. Sog`lom xalq, sog`lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo`ladi // Xalq so`zi. — Toshkent: 8 dekabr 2004 y.
2. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish — eng oliy saodatdir. — T.: O`zbekiston. 2015. 236-b.
3. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi. O`quv qo`llanma. — T.: «Fan va texnologiya». 2007.

# Fermer xo'jaliklari moliyaviy xo'jalik faoliyati natijalari tahlili

Qo'chqarov Sh.
Урганч давлат университети (Ўзбекистон)

*Ushbu maqolada O`zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, moliyaviy xo'jalik faoliyatini tahlilini takomillashtirish yoritib berilgan.*

Кучкоров Шоназар, старший преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)

*В этой статье рассмотрены вопросы анализа финансово-хозяйственной деятельности сельскохозяйственных предприятий в условиях углубления реформ модернизации сельского хозяйства Республики Узбекистан.*

*This article illustrated the issues of the analyses of financial and economic activities of agricultural producers, in the context of deepening reforms to modernize the rural economy of the Republic of Uzbekistan.*

Mamlakatimizda islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi xo`jalik yurituvchi sub'ektlarning bozor qonunlari asosida faoliyat ko`rsatishini ta'minlaydigan erkin iqtisodiy makonni vujudga keltirmoqda. O`zbekistonda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashib borishi, jamiyatni modernizasiya qilish jarayonining jadallashishi bozor munosabatlarining ham takomillashib borishini, iqtisodiyotning tobora erkinlashib borishini ta'minlamoqda. Xalq xo`jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida shakllangan va erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko`rsatish uchun esa har bir korxona barqaror va mustahkam bo`lishi lozim.

Raqobatbardoshlikni ta'minlash ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda korxona faoliyatining moliyaviy natijalarini to`g`ri shakllantirish, korxonada inqirozga qarshi dasturni ishlab chiqish va barqaror rivojlantirish strategiyasini belgilashga ko`p jihatdan bog`liq.

Buning natijasi o`laroq, 2017–2021 yillarda O`zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining davlat dasturida fermer xo`jaliklari xususida «eng avvalo, qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko`rsatish bilan shug`ullanayotgan ko`p tarmoqli fermer xo`jaliklarini rag`batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish» [1] masalasi qo`yilgan.

Fermer xo`jaliklarining moliyaviy mablag`lari hajmi va tarkibi rivojlanish va samaradorlik darajasiga bog`liq. Korxona qanchalik yaxshi ishlasa uning pul daromadlari shunchalik ko`p bo`ladi.

Fermer xo`jaliklari moliyaviy-xo`jalik faoliyatida foydaning quyidagi ko`rsatkichlari hisoblanadi: yalpi foyda, asosiy faoliyatdan olingan foyda, umumxo`jalik faoliyatdan olingan foyda, soliq to`languncha olingan foyda, sof foyda.

Demak, xo`jalik faoliyatidan olingan foyda hisoblanayotganda moliya faoliyatidan ko`rilgan foyda hamda soliq to`languncha olingan foyda hisoblanayotganda favqulodda vaziyatlardan ko`rilgan foyda aniqlanadi, e'tiborga olinadi.

Bozor iqtisodiyoti jarayonida korxonalarning daromad turlari quyidagicha bo`ladi [2]:

1. Mahsulot (xizmat)ni sotishdan olingan sof tushum, uning hajmini aniqlash uchun sotish summasidan qo`shilgan qiymat solig`i, aksiz va eksport, bojxona to`lovlari ayirib tashlanadi;
2. Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;
3. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;
4. Favqulodda foydalar.

Sotishdan tushgan tushum-xo`jalik yurituvchi sub'ektlarning xo`jalik-moliya faoliyatining muhim ko`rsatkichidir. Mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko`rsatish jarayonida qiymatga ega bo`lgan mahsulot (ish, xizmat) yaratiladi, uning tovar qismining hajmi sotish narxlarida baholanadi va uni sotishdan tushgan daromad, sotishdan tushgan tushum deyiladi. Rivojlangan xorij mamalakatlari statistikasida ham sotuvdan tushgan tushum (Proceeds From Sales) va buxgalteriya hisobining xalqaro standartida esa (standart № 18 «Daromadlarni qayd qilish») «Daromad» deyiladi. Bu ko`rsatkich fermer xo`jaliklarining moliyaviy faoliyatining muhim ko`rsatkichlari sifatida qaraladi va uning hajmiga ko`ra fermer xo`jaliklarining reytingi va faoliyat faolligi darajasi baholanadi.

Sotuvdan tushgan tushum hajmini hisoblash xo`jalik yurituvchi sub'ektda qabul qilingan hisobchilik siyosati (tartib)ga ko`ra ikki usulda amalga oshirilishi mumkin:

a. xaridorga tovarning jo`natilishi (ishning bajarilishi, xizmatning ko`rsatilishi) va kontragentga tegishli hisob-kitob hujjatlarining topshirilishi (huquq tamoyili);

b. xaridor tomonidan tovar (ish, xizmat) haqining to`lanishi. Bunda naqd pulsiz hisob-kitoblarda korxonaga xizmat ko`rsatuvchi bankdagi hisob-kitob raqamiga pulning kelib tushishi, naqd pullik operasiyalarda-pul korxona kassasiga kirim qilinganidan so`ng (iqtisodiy tamoyil).

Bundan ko`rinadiki, xo`jalik yurituvchi sub'ektlarda foyda ko`rsatkichlarini hisoblashda sof tushumlar ko`rsatkichiga asoslanadi (1-jadvalga qarang). Ma'lumki, sotishdan tushgan sof tushum asosida hisoblangan foyda va rentabellik ko`rsatkichlari tovar (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish bilan shug`ullanuvchilar uchun tijorat (moliya) samarasi va samaradorligini baholashda qo`llanadi. Tovar (ish, xizmat) ishlab chiqarish yoki investisiya loyihasining byudjet samarasi va samaradorligi (respublika va mahalliy byudjetga keltiradigan daromadlari)ni o`rganishda sotuvdan tushgan yalpi tushum ko`rsatkichidan ham foydalaniladi.

Respublikamizda amal qilinayotgan hamma qonun va qoidalarga rioya qilgan holda foyda summalari aniqlangandan so`ng, uning statistik tahlili boshlanadi. Bu ishni statistikaning turli uslublari yordamida bajarish mumkin. Hamma uslublarni qo`llash, ishning hajmi oshib ketishiga olib kelishini hisobga olgan holda, biz faqat indeks metodi yordamida foydani tahlil qilish metodologiyasini ko`rib chiqamiz.

Ma'lumki, yalpi foydada mahsulotni (ish, xizmatni) sotishdan olingan foyda hissasi juda yuqori. Shu munosabat bilan aynan shu ko`rsatkichga ta'sir etuvchi omillarni o`rganish zarur. Sotishdan olingan foydaga ta'sir qiluvchi omillar quyidagilar:

1. sotiladigan mahsulot (ish, xizmat) hajmining o`zgarishi;
2. sotiladigan mahsulot (ish, xizmat) tarkibining o`zgarishi;
3. sotiladigan mahsulot (ish, xizmat) tannarxining o`zgarishi;
4. sotiladigan mahsulotga bo`lgan sotish baholari, ish va xizmatlarga bo`lgan tariflarning o`zgarishi kiradi.

Ushbu omillarlarning foydaning umumiy summasiga ta'sirini baholash uchun o`tgan va joriy davrdagi sotilgan mahsulotdan (ish, xizmat) tushgan tushum va ishlab chiqarish tannarxi haqida ma'lumotlar mavjud bo`lishi kerak va bu ko`rsatkichlarning joriy davrdagini o`tgan davr baho va tannarxida qayta hisoblash zarur.

**Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan yalpi foydaga ta'sir qiluvchi asosiy omillar**

| Ko` rsatkichlar | 2015 y | 2016 y | 2016 yilda 2015 yil narx va tannarxida |
|---|---|---|---|
| Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan sof tushum, sotish baholarida, ming so` m | 18236 | 20449 | 19694,8 |
| Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, ming so` m | 13859 | 14723 | 14690 |
| YAlpi foyda, ming so` m | 4377 | 5726 | 5004,8 |

$$\Delta \phi = \phi_1 - \phi_0 = 5726 - 4377 = 1349 \text{ м.с}$$

Endi omillar ta'sirini hisoblaymiz: Yuqorida ta'kidlanganidek, birinchi omil-sotilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmining o`zgarishi. Bu omilning ta'sirini o`lchash uchun quyidagi formula bilan sotilgan mahsulotning fizik hajmi indeksi aniqlanadi:

$$I_q = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_1 p_0} = \frac{19694{,}8}{18236} = 1{,}08 \text{ ёки } 108\ \%$$

Demak, sotilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi 8 % ga oshgan. Boshqa omillar ta'sirini yo`q deb faraz qilib, foyda summasini shu nisbatda o`sganligini aniqlaymiz:

$$\Delta\phi(q) = \phi_0 (I_q - 1) = 4377 \cdot 0{,}08 = 350{,}0 \text{ м.с}$$

Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) tarkibi o`zgarishining foydaga ta'siri quyidagicha o`lchanadi:

$$\Delta\Phi_{(T.C)} = \left(\frac{\sum \Phi_1}{\sum q_1 p_1} - \frac{\sum \Phi_0}{\sum q_1 p_0}\right) \cdot \sum q_1 p_0 = \left(\frac{5004{,}8}{19694{,}8} - \frac{4377}{18236}\right) \cdot 19694{,}8 = (0{,}2541 - 0{,}2400) \cdot 19694{,}8 =$$ Foyda

$$= 278{,}0 \text{ м.с}$$

summasiga sotilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxini ta'siri tannarx indeksi yordamida hisoblanadi, ya'ni tannarxi indeksining sur'ati bilan maxrajining farqi bilan

$$I_t = \frac{\sum q_1 z_1}{\sum q_1 z_0} \text{ бундан } \Delta\Phi_{(z)} = \sum q_1 z_1 - \sum q_1 z_0 = 14723 - 14690 = 33 \text{ м. с}$$

Tannarxning ortishi bilan foyda summasi korxona 33 ming so`mga kamaygan.

Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) bahosi o`zgarishining olinadigan foydaga ta'siri baho indeksi sur'ati va maxrajining farqi bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$I_p = \frac{\sum q_1 z_1}{\sum q_1 z_0} \quad \text{бундан} \quad \Delta\Phi_{(p)} = \sum q_1 z_1 - \sum q_1 z_0$$

$$\Delta\Phi_{(p)} = 20449 - 19694{,}8 = 754{,}0 \text{ м.с}$$

Biz joriy yilda bazis yiliga nisbatan foyda summasi 1349 ming so`mga oshganligini ko`rdik. Xo`sh bu o`zgarishga qaysi omillar ijobiy va qaysi omillar salbiy ta'sir ko`rsatgan ekan? Bu savolga javob berish uchun quyidagi formula bilan ularning birgalikdagi ta'sirini hisoblaymiz:

$$\Delta\Phi = \Delta\Phi_{(q)} + \Delta\Phi_{(T.C)} + \Delta\Phi_{(z)} + \Delta\Phi_{(p)}$$

$$1349\text{м.с} = 350{,}0\text{м.с} + 278{,}0\text{м.с} + (-33\text{м.с}) + 754{,}0\text{м.с}$$

Ko`rinib turibdiki, uchta omil (1,2,4) ijobiy, bitta (3) omil salbiy ta'sir ko`rsatgan. Hisoblangan ma'lumotlar yana shuni ko`rsatadiki, foyda summasi asosan sotish bahosining oshishi va sotilgan mahsulotning assortimenti o`zgarishi hisobidan oshgan.

Sotish xarajatlari mahsulotlarni xaridor va buyurtmachilarga ortib jo`natish va sotish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlarni o`z ichiga oladi.

Sotish xarajatlarni ish haqi xarajatlari, ish haqidan ajratmalar, material xarajatlari, asosiy vositalar va nomaterial aktivlar amortizasiyasi, reklama xarajatlari, ish va xizmatlar, boshqa xarajat moddalari bo`yicha tarkiblash va tahlil etish mumkin.

Sotish xarajatlarining qoplanishi korxonaning dastlab hisob foydasidan amalga oshiriladi. Ma'muriy xarajatlar qatoriga korxona boshqaruvi bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar kiritiladi va ularning korxona sarflari tarkibidagi salmoyoi sezilarli ulushni tashkil etadi. Bu bevosita rahbarlar va boshqaruv apparatini xizmati xarajatlaridir.

Boshqa umumxo`jalik xarajatlari qatoriga yuqoridagi tarkibga kiritilmagan xarajatlar ishlab chiqarishni takomillashtirish, o`zlashtirish va yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar kiritiladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil, 7 fevraldagi PF-4947-sonli «2017—2021 yillarga mo`ljallangan mamlakatni yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida»gi Farmoni // Xalq so`zi, 2017 yil, 8 fevral.
2. «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risida» NIZOM. Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qaroriga ilova.

# Касб-ҳунар коллежлари ўқув жараёнида модул тизимидан фойдаланишнинг афзалликлари

Матжонов Бекжон Равшонбекович, старший преподаватель;
Рўзматова Зулайҳо Қадам қизи, студент
Урганч давлат университети (Ўзбекистон)

*Ушбу мақолада Касб-ҳунар коллежлари ўқув жараёнида модул тизимида ўқитишнинг назарий ва амалий жиҳатлари ўрганиб чиқилган ва таҳлил қилинган.*

Матжонов Бекжон Равшонбекович, старший преподаватель;
Рузматова Зулайхо Кадам кизи, студент
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)

*В данной статье изучены и проанализированы теоретические и практические особенности преподавания в модульной системе учебного процесса профессиональных колледжей.*

*In this article there were studied and analyzed the theoretical and practical features of teaching in module system in the education process of professional colleges.*

Бугунги кунда республикамизда таълим тизими тубдан ислоҳ қилинмоқда. Барча фанлардаги сингари педагогик фанларни ўқитишда ҳам ўқувчининг индивидуал хусусиятлари, имкониятларини ҳисобга олиш, фанни ўқитишда турли педагогик технологиялардан фойдаланиш, дарсларни ДТС талабларига мувофиқ ташкил этишнинг мақбул йўли ҳисобланади. «Қадрлар тайёрлаш миллий дастури» нинг 3.3.3-бўлимида таълимни ташкил этиш ва ривожлантириш учун «янги педагогик ва ахборот технологиялари, тайёргарликнинг модул тизимидан фойдаланган ҳолда талабаларни ўқитишни жадаллаштириш» кадрлар тайёрлашнинг миллий модели элементи ва муҳим вазифа сифатида белгилаб қўйилган.

Ўқувчиларнинг ўқишини ташкил этиш воситаси сифатида модуллар тайёрлашнинг ҳар хил усуллари мавжуд. Модул дастури, мустақил ўқишга ўргатадиган ўқув қўлланма сифатида ўқувчига ўқув модулига киритилган ўқув материалини блокини ўқиш вақтида доимий фойдаланиш учун берилса таълим самарадорлиги ошади.

Модул қўлланмаси таркибида қуйидаги конструктив талаб ва қоидалар акс топади:

— модул ўқиш натижасида сифат характеристикаларига (шахсий ва билиш) киритилган комплекс мақсад.

— таълим стандартида берилган предмет «ўқув элементларида» мақсаднинг ойдинлашиши.

— модулни ўрганишнинг технологик усуллари бўйича дастур ва тавсиялар.

— якуний назорат топшириқларида ўзлаштириш даражалари эталон ва мезолон бўйича мақсадлар ойдинлашиши.

— ўз — ўзини назоратни ташкил этиш бўйича эталонлар.

Модулли ўқитиш, касбий таълимнинг қуйидаги замонавий масалаларини ҳар томонлама ечиш имкониятини яратади.

Модул — фаолиятлилик асосида ўқитиш мазмунини оптималлаш ва тизимлаш, дастурларни ўзгарувчанлиги, мослашувчанлигини таъминлайди:

— ўқитишни индивидуаллаштириш;

— амалий фаолиятга ўргатиш ва кузатиладиган характерларни баҳолаш даражасида ўқитиш самарадорлигини назорат қилиш;

— касбга қизиқтириш асосида, фаоллаштириш, мустақиллик ва ўқитиш имкониятларини тўла рўёбга чиқариш.

Модулли ўқитиш самарадорлиги қуйидаги омилларга боғлиқ:

— таълим муассасасининг моддий-техник базаси;

— малакали профессор-ўқитувчилар таркиби даражаси;

— ўқувчилар тайёргарлиги даражасига;

— кутиладиган натижалар баҳосига;

— дидактик материалларнинг ишлаб чиқилишига;

— модуллар натижаси ва таҳлилига.

Модулли ўқитишда амалий ва назарий машғулотлари билан бирга олиб борилади, ҳар бир модул янги материал билан тўлдирилиб борилиши керак.

Бир қатор тадқиқот ишларида модулли ўқитиш қўлланилганда қуйидаги афзалликлар ва имкониятлар бўлиши келтирилади:

— фанлар ичидаги модуллар орасидаги ўқитиш узлуксизлигини ва узвийлиги таъминланади;

— ҳар бир модул яхлит тугалланган ўқув жараёнига мослашган;

— ўқувчилар ўзлаштириши мунтазам ва самарали назорат қилинади;

— ҳар бир модул тўла ўзлаштирилгандан сўнг иккинчи модулга ўтилади. Бунинг натижасида, ўқувчи етарли билимларга, кўникмаларга эга бўлади.

Модулли ўқув материаллари билан мустақил ишлашни қуйидагича амалга ошириш мумкин:

— ўқувчилар ўқув материали тузилиши билан танишиш;

— берилган саволларга модулли ўқув материалидан ва бошқа манбалардан жавоб излаш;

— мавзуни мустақил ўрганиб реферат ёзиш;

— амалий топшириқларни технологик хариталардан фойдаланиб бажариб, натижалари бўйича ҳисобот ёзиш;

— тест саволларига жавоб бериш;

— ўрганилган маълумотни таҳлил этиш;

— модулли ўқув материалида берилган вазифалар ва машқларни мустақил бажариши.

Модулли ўқитиш тушунчасининг турлича таърифлари асосида ҳозирги педагогика фанида уни ўқув модулларини амалга оширувчи тизим эканлиги ҳамда ўқув маълумотлари материаллари нисбатан тугалланган ва яхлит, мустақил бирикмаларга ажратилган ҳолда ўқув жараёнини ташкил қилиш шакли ҳисобланади.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, бир неча модулларнинг яхлитлиги нафақат муайян бир ўқув мавзуси балки бутун бир ўқув фани мазмунини яратишга хизмат қилади.

Ўқитишнинг модулли технологияси асосида таълим жараёнини оқилона ва самарали ташкил қилиш мумкин бўлиб, бунда унинг узлуксиз такомиллашишига ёрдам берадиган омиллар намоён бўлади. Хусусан, ўқувчиларнинг билиш фаолиятини унумли ташкил қилиш учун етарли имкониятлар яратилади.

а. Ўқув модуллар ёрдамида ўқувчилар гуруҳини педагогик-психологик бошқариш ҳамда ўқув фаолиятини мазмунли тарзда олиб бориш таъминланади.

б. Ўқув материалини ўзлаштириш жараёнида мавзулараро ва фанлараро алоқалар мустаҳкамланади.

Модул тизимида ўқитиш бўйича олиб борилган ўрганиш ва таҳлиллар шуни кўрсатадики, модулли ўқитишга берилган тарифлар жуда кўп ва хилма — хил бўлиб, уларнинг умумий томонларини инобатга олган ҳолда, ушбу таърифларидаги қуйидаги муҳим жиҳатларини таъкидлаш мумкин: муайян дидактик мақсадларга қаратилганлиги, автоном ва яхлит ўқув тизими, ўқув маълумотларнинг мантиқан шаклланган бирлиги ёки блоки, мустақил таълим олиш жараёнини мувофиқлаштириш воситаси, фанлараро алоқаларни янада ривожлантириш ва мустаҳкамлаш имконияти.

Ўқитишнинг истиқболли тизимларидан бири сифатида модулли таълим технологияларида асосий ўқув мақсадлар жумласига қуйидагиларни киритиш мумкин. [1]

— ўқитишнинг (ўқув фанлар орасида ва ўқув фанининг ичида) узлуксизлигини таъминлаш;

— ўқитишни индивидуаллаштириш;

— ўқув материалини мустақил ўзлаштириш учун етарли шароит яратиш;

— таълим олувчининг ўзига мос суръатда ишлаши;

— уларга ўз имкониятларини аниқлаш;

— таълим мазмунини ўзгарувчан тарзда қуриш;

— унинг турли хил турлари ва шаклларини интеграциялаш;

— ўқувчиларда мустақил равишда таълим олиш кўникмаларини шакллантириш ва уларнинг юқори даражадаги натижаларга эриштириш. Ўз-ўзидан кўринадики, юқоридаги баён қилинган мақсадларнинг охиргиси модулли ўқитишнинг бош, етакчи мақсади ҳисобланади.

Модулли таълимнинг мазмуни таълим жараёнини модуллар асосида лойиҳалаштирилиши ва таълим олувчиларнинг индивидуал маромидан иборат. Бу маром ўқув предмети ва унинг бўлимлари мазмунини тартибга солиш, таълимнинг муайян босқичидан бошлаб йўналтирилган фаолиятни мантиқий боғланган қисмларга ажратишдан иборат. Сўнгра ажралган шу модулнинг ўзига тегишли мақсад, фаолият мазмуни ва таъсири доираси белгиланади. Модул технологиясининг мақсади унинг дастурини босқичма-босқич амалга оширилиши орқали рўёбга чиқади. Ушбу жараёнда содир бўлаётган ҳар бир фаолият битта ўқув элементи сифатида қаралади. [2]

Модулли ўқитиш, ўқув дастурларни тўла, қисқартирилган ва чуқурлаштирилган табақалаш орқали, ўқитишни табақалаштириш имконияти мавжуд бўлади, яъни ўқитишни индивидуаллаштириш мумкин бўлади.

Кўпчилик ҳолларда қуйидаги уч турдаги макромодуллар тузилиши мумкин:

а. гуманитар фанларни ўз ичига оладиган;

б. иқтисодий фанларни ўз ичига оладиган;

в. умумтаълим, умумтехник умумкасбий ва ихтисослик фанларни ўз ичига оладиган.

Ҳар қайси макромодулнинг мутахассисни шакллантиришда, ўз мақсад ва вазифаси бўлади. Маълум макромодулни ўрганиш мақсади, унга кирадиган фанларнинг ўрганиш мақсадларидан келиб чиқади.

Ҳар қайси макромодулнинг ўрганилиш мақсадлари тўплами, Давлат таълим стандартларида акс эттирилган, мутахассис тайёрлашнинг бош мақсадини ташкил этади. Ҳар қайси макромодулнинг мақсади аниқ тузилган бўлиб, биринчи фани ўрганила бошлаганида, ўқувчиларга етказилиши лозим. Макромодулнинг ҳар бир кейинги фани ўрганила бошланганида, у фаннинг ўрганиш мақсадлари талабалар эътиборига етказилади.

Ҳар қайси макромодул ичида, ўрганиладиган фанларнинг мақбул кетма-кетлиги ва уларни ўрганиш муддатлари ўрнатилади. Яъни ўқитишнинг узлуксизлигини таъминлаб, фанларнинг ўрганилиш муддатларини ва шу орқали макромодулни ўрганилиш муддатларини қисқартиришга эришиш зарур. Ўқув соатлари ҳажми катта бўлмаган (ҳафтада 1—2, айрим ҳолларда 3 соатли аудитория машғулотлари) фанлар, блок фанлар рўйхатига киритилиши, мақсадга мувофиқ бўлади ва улар ўқув семестрнинг биринчи ёки иккинчи ярмида ўтилиши мумкин.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Қасб-ҳунар коллежларида педагогик фанларни такомиллаштириш мақсадида ўқув жараёнини ташкил этиш шакли сифатида ўқув материалини мантиқий якунланган ўқув бирликлари — ўқув модулларига бўлиб ўқитиш тавсия этилди. Модулли ўқитиш ўқувчиларнинг билув фаолиятини фаоллаштиради ва уларда билимларни мустақил ўзлаштириш кўникмалари шакллантиришга хизмат қилади. Педагогик фанларни модулли ўқитишда ўқувчининг ўзи ўқув материали устида мустақил ишлайди, ўқитувчининг асосий вазифаси эса уни йўналтириб, назорат этиб туришдан иборат бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Даминов М. И. «Таълимда модулли технологияни қўллашнинг таҳлили ва моҳияти. Педагогик маҳорат.» — Бухоро, 2007. — № 1, — Б. 11–14.
2. Беднарчик Х. «Модульная система непрерывного профессионального образования.» Санкт-Петербург. 1999. 200–205 с.

# Хоразм вилоятининг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши ва инвестиция сиёсатини бошқаришнинг муҳим вазифалари

Матжонов Бекжон Равшонбекович, старший преподаватель
Урганч давлат университети (Ўзбекистон)

*Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасида янги иш ўринларини ташкил этиш ва аҳоли бандлигини таъминлаш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқилган ва таҳлил қилинган.*

Матжонов Бекжон Равшонбекович, старший преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)

*В данной статье разработаны и проанализированы меры по организации новых рабочих мест в Республике Узбекистан и обеспечению занятости населения.*

Мамлакатимизда саноат салоҳиятини ошириш ҳамда иқтисодиётни модернизациялаш шароитида, иқтисодиёт тармоқларига инвестицияларни жалб қилиш, уларнинг инвестицион жозибадорлигини ошириш, ялпи ички маҳсулотда саноат улушини ошириш, иқтисодий ўсишни таъминлаш, импорт ўрнини босувчи, экспортбоп маҳсулотлар ишлаб чиқариш, ишсизлик даражасини камайтириш шу билан бирга аҳоли реал даромадларини оширишда муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Биринчи президенти И. А. Каримов таъкидлаганларидек, «Мамлакатимиз иқтисодиётини таркибий ўзгартириш, тармоқларни модернизация қилиш, техник ва технологик янгилашга доир лойиҳаларни амалга ошириш учун инвестицияларни жалб қилиш борасида бажарилаётган ишлар алоҳида эътиборга лойиқдир.» [1]

Мамлакатимизда олиб борилаётган илоҳотлар натижасида 2015 йилда барча молиялаштириш манбалари ҳисобидан 15 миллиард 800 миллион АҚШ доллари миқдорида инвестициялар жалб этилди ва ўзлаштирилди. Бу 2014 йилга нисбатан 9,5 фоиз кўп демакдир. Жами инвестицияларнинг 3 миллиард 300 миллион доллардан зиёди ёки 21 фоиздан ортиғи хорижий инвестициялар бўлиб, шунинг 73 фоизи тўғридан-тўғри чет эл инвестицияларидир. [1]

Инвестицияларнинг 67,1 фоизи янги ишлаб чиқариш қувватларини барпо этишга йўналтирилди. Бу эса 2015 йилда умумий қиймати 7 миллиард 400 миллион доллар бўлган 158 та йирик ишлаб чиқариш объекти қурилишини якунлаш ва фойдаланишга топшириш имконини берди.

Мамлакатнинг замонавий иқтисодий ривожланиш даражаси ва шунингдек, олиб борилаётган инвестиция фаолиятининг ўсиш суръатлари инвестиция муҳитига боғлиқ бўлади. Инвестиция муҳити инвестиция ресурсларини жойлаштириш учун умумий мезон бўлиб, биринчи навбатда, капитал маблағларнинг даромадлилигини таъминлаб беради.

Маълумки, миллий иқтисодиётга хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг бир қанча шакллари мавжуд. Хорижлик инвесторлар қонунчиликка кўра Ўзбекистон Республикаси ҳудудида инвестицияларни қуйидаги йўллар билан амалга оширишлари мумкин:

1. Ўзбекистон Республикасининг юридик ва жисмоний шахслари билан биргаликда ташкил этилган хўжалик жамиятлари, банклар, суғурта ташкилотлари ва

бошқа корхоналарнинг устав жамғармаларида ва бошқа мол-мулкида улуш қўшиб қатнашиш. Бунга мисол қилиб хорижий инвестиция иштирокидаги корхона (ХИИК) ларни (устав капиталининг камида 30 фоизи хорижлик инвесторга тегишли бўлиши керак) келтириш мумкин, яъни қўшма корхоналар ташкил этиш хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг энг оммабоп шакли ҳисобланади.

2. Хорижлик инвесторларга тўлиқ қарашли бўлган хўжалик жамиятлари ва ширкатларини, банклар, суғурта ташкилотлари ва бошқа корхоналарни барпо этиш ва ривожлантириш, яъни соф хорижий инвестицияли корхоналар ташкил этиш орқали хорижий инвестицияларни жалб қилиш. Бунда жами (100 %) устав капитали хорижлик инвесторга тегишли бўлади.

3. Мол-мулк, акциялар ва бошқа қимматли қоғозларни, шу жумладан, Ўзбекистон Республикаси резидентлари томонидан эмиссия қилинган қарз мажбуриятларини сотиб олиш асосида хорижий инвестицияларни жалб қилиш.

4. Интеллектуал мулкка, шу жумладан, муаллифлик ҳуқуқлари, патентлар, товар белгилари, фойдали моделлар, саноат намуналари, фирма номлари ва ноу-хауга, шунингдек, ишчанлик нуфузига (гудвиллга) ҳуқуқлар киритиш орқали хорижий инвестицияларни жалб қилиш.

5. Концессиялар, шу жумладан, табиий ресурсларни қидириш, ишлаб чиқиш, қазиб олиш ёки улардан фойдаланишга бўлган концессиялар олиш асосида хорижий инвестицияларни жалб қилиш.

6. Савдо ва хизмат кўрсатиш соҳалари объектларига, турар-жой биноларига улар жойлашган ер участкалари билан биргаликда мулк ҳуқуқини, шунингдек, ерга эгалик қилиш ва ундан фойдаланиш (шу жумладан, ижара асосида фойдаланиш) ҳамда табиий ресурсларга эгалик қилиш ва улардан фойдаланиш ҳуқуқларини сотиб олиш орқали хориж сармоясини жалб қилиш.

7. Эркин иқтисодий ҳудудларни ташкил этиш орқали хорижий инвестицияларни жалб қилиш.

8. Халқаро лизинг амалиётини ривожлантириш орқали хорижий инвестицияларни жалб қилиш.

Маълумки, ҳудуднинг барқарор ривожланишини таъминлашдаги муҳим жараёнлардан бири инвестиция фаолияти, муҳити, салоҳияти ва жозибадорлиги ҳисобланади. Ушбу жараёнларни объектив зарурияти ва ўзига хос хусусиятлари ҳудуд иқтисодиётининг барқарор иқтисодий ўсишини таъминлашдаги ролини янада ошириш учун инвестицияларга бўлган талаби ва таклифи ўртасидаги мутаносиблик, инвестициялардан фойдаланиш даражаси ва самарадорлиги, инвестиция фаоллиги, пировардида эса инвестицион жозибадорликни назарий ва амалий жиҳатдан таҳлил этиш муҳим масаладир. [2]

**Хоразм вилоятининг 2011–2015 йилларда ЯҲМ тузилмаси**

| Тармоқлар | 2011 й. | 2012 й. | 2013 й. | 2014 й. | 2015 й. |
|---|---|---|---|---|---|
| ЯҲМ | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| Саноат | 7,9 | 9,2 | 9,2 | 9,5 | 11,9 |
| Қишлоқ хўжалиги | 33,9 | 35,2 | 34,6 | 33,8 | 31,7 |
| Қурилиш | 6,2 | 7,9 | 8,3 | 9,4 | 10,9 |
| Савдо ва умумий овқатланиш | 9,0 | 9,6 | 8,7 | 8,7 | 8,5 |
| Бошқа хизматлар ва соф солиқлар | 43,0 | 38,1 | 39,2 | 38,6 | 37,1 |
| ЯҲМни Республика ЯИМдаги улуши | 3,3 | 3,3 | 3,0 | 3,0 | 3,3 |

Жадвал маълумотларидан шуни кўриш мумкинки, 2012—2015 йиллардаги Хоразм вилояти ЯҲМда саноат, қурилиш, қишлоқ хўжалиги, савдо ва умумий овқатланиш ва бошқа хизматлар ва соф солиқлар ўсиш тенденцияси янаям атрофлича кўринишда бўлган.

Хоразм вилояти ЯҲМда саноатнинг улуши 2011 йилда 7,9 фоизни ташкил этган бўлса, 2015 йилда ушбу кўрсаткич 11,9 фоизга ошган бу ўсиш тенденцияси 4 фоизга етган. Бу вилоятда саноат ишлаб чиқариши самарали йўлга қўйилганлигидан далолат беради. Вилоят ЯҲМ таркибий қисмида энг юқори улуш қишлоқ хўжалигига тўғри келади. Бошқа тармоқларга нисбатан қишлоқ хўжалиги улуши 2011 йилда 33,9 фоизни ташкил этган бўлса, 2015 йилда бу кўрсаткич 31,7 фоизни ташкил этган. Хусусан қурилиш соҳаси вилоят ЯҲМида ўсиши кузатилган. Албатта бундай ўсиш вилоятда қурилиш реконструкция ишларининг самарали йўлга қўйилаётганлиги ва вилоятнинг барқарорлигини таъминлашда давлат томонидан олиб борилаётган сиёсат дастурига мувофиқлиги ҳамда вилоятга кириб келаётган инвестициялар салмоғи, соҳа ва тармоқларнинг тараққиёти билан белгиланади. Шунингдек, савдо ва умумий овқатланиш вилоят ЯҲМида 2011—2015 йиллардаги салмоғи пасайиш тамойилига эга бўлган. Бундай пасайиш рақобатнинг кескин кучайиши оқибатида юзага келган. [1]

Бугунги кунда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликка кенг йўл очиб берилмоқда. Буни вилоят ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичларидан ҳам билиш мумкин. Хоразм вилоятида 2012—2015 йилларда кичик бизнес субъектларининг иқтисодиёт тармоқларидаги улуши тўғрисидаги маълумотларига таянадиган бўлсак, 2012 йилда янгидан ташкил этилган кичик бизнес субъектлари (КБС) сони 731 тани ташкил этган бўлса, 2015 йилга келиб бу кўрсаткич 1201 тани ташкил этган. Ялпи ҳудудий маҳсулотда КБСла-

рининг улуши 2012–2015 йиллардаги улуши ҳам ўсиш тамойилига эга бўлган. Вилоят ялпи ҳудудий маҳсулотда кичик бизнес субъектларининг улуши 2012 йил 73,5 фоизни ташкил этган бўлса, 2015 йилда 73,9 фоизга ўсган.

Хоразм вилоятида 2012–2015 йилларда кичик бизнес субъектларининг иқтисодиёт тармоқларидаги улуши маълумотларига кўра, кичик бизнес субъектларининг жами инвестициялардаги улуши ҳам 2012 йилдаги 49,6 фоиздан 2015 йил 39,2 фоизга камайган.

Инвестиция, инвестиция фаолияти, инвестицион жозибадорликка доир кўплаб олимларнинг илмий ишланмаларини ўрганиш ва таҳлил қилиш натижасида худуднинг инвестицион жозибадорлиги тушунчасига қуйидагича таъриф берилди: «Минтақанинг инвестицион жозибадорлиги — бу инвесторлар учун алоҳида минтақага ёки ушбу минтақада жойлашган объектларга инвестицияларни жойлаштиришнинг мақсадга мувофиқлиги ва самарадорлиги, шунингдек инвестиция таваккалчилиги тўғрисидаги маълумотларни шакллантирувчи табиий-географик, ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, ҳуқуқий, ташкилий ва бошқа омилларнинг йиғиндисидир».

Хоразм вилоятида 2012–2015 йиллларда кам қувватли, паст рентабелли ва зарар кўриб ишлаётган корхоналарни соғломлаштириш бўйича қуйидаги ишлар амалга оширилган. Жумладан, 2012 йилда 109 та корхона соғломлаштирилган бўлса, 2015 йилга келиб эса 389 та корхона соғломлаштирилган. Бу бевосита қарийиб 2721 та аҳоли бандлигини таъминлашга йўл очиб берган.

Хоразм вилоятига 2012 йилда 54,4 млн.долларлик инвестиция киритилган бўлса, 2015 йилда инвестиция суръати 57 млн.долларга ўсган. Албатта бундай ўсиш вилоятдаги айрим соҳа ва тармоқларнинг жадал тараққиётига муносиб ҳисса қўшган. Шунингдек, инвестицияларнинг киритилиши бевосита худуднинг турли тармоқлари ривожланишига олиб келиш баробарида аҳоли иш билан бандлигининг таъминланишига олиб келган.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, инвестицияларнинг киритилиши биринчи навбатда аҳоли турмуш фаровонлигини ошишига ва аҳоли даромадларининг юқори суръатларда ўсишига олиб келади. Албатта бундай ўсиш худуднинг ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан юқори суръатларда ривожлантиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. И. А. Қаримовнинг мамлакатимизни 2015 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2016 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузаси \\ Халқ сўзи, 2016 йил 16 январь.
2. Федосеев В. В. Экономико-математические методы и прикладные модели. Учебное пособие. — М.: ЮНИТИ, 2007. — 520 с.

## Корхоналарда модернизациялаш жараёнларини ифодаловчи кўрсаткичлар, уларни аниқлаш ва таҳлил қилиш йўллари

Маткулиева Санобар Исмаиловна
Урганч давлат университети (Ўзбекистон)

Маткулиева Санобар Исмаиловна, старший преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)

*В данной статье указаны показатели предприятий, характеризующие определения процесса модернизации и пути анализа.*

Ҳозирги пайтда ҳаётимизнинг барча жабҳаларида кескин ўзгаришлар содир бўлмоқда. Шу туфайли бундай ўзгаришларга улгуриш воситаси сифатида кундалик иш фаолиятимизда ахборот технологиялари шиддат билан кириб келмокда. Булар эса фаолиятимиз натижаларига таъсир этувчи барча омилларни аниқлаш, уларнинг таъсирини ҳисоблаш имконини хам туғдирмоқда. Бундай шароитлардан фойдаланган холда хар бир корхонада ўзининг молиявий-хўжалик фаолиятини тизимли равишда таҳлил қилиш имкониятига хам эга бўлиб бормоқда.

Бозор муносабатларининг чуқурлашиб бориши, хар бир корхонада мавжуд бўлган ички имкониятларни хам аниқлаш ва уларни ишга солиб, ўзларининг рақобатбардошлигини таъминлаш заруратини туғдирмоқда. Бу эса ўз навбатида иқтисодий кўрсаткичларини яхшилашни, бунинг учун омилли тахлилдан кенг фойдаланишни хам такозо килмокда. Зеро, эндиги мутахассис хар бир кўрсаткичга таъсир қилувчи омилларни аниқлаш ва уларинг таъсирини хисоблаш йўлларини билиши, шу йўл билан корхонада мавжуд бўлган ички имкониятларни ишга солиш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш, буларни ишга

соладиган бошқарув корхоналарини қабул қила олиш кобилиятига эга бўлиши лозим. Бундай зарурият мавзунинг ўта долзарблигидан далолат беради.

Мазкур ишнинг максади, унинг объектив заруратидан ва кам ишланганлигидан келиб чикади. Чунки ҳозирги кунда иктисодий кўрсаткичларнинг омилли тахлили ўта зарур бўлишига карамасдан тахлилга оид адабиётларда кам ёритилган. Айрим дарсликлар ва ўкув кўлланмаларда хам омилли тахлил ва уни амалга ошириш масаласи тўлик ёритилмаган.

Жамиятда, унинг бир бўлаги бўлган корхонада содир бўладиган иктисодий жараёнлар ўз-ўзидан амалга ошмайди, балки улар маълум омиллар таъсирида рўй беради. Шу туфайли корхона ишини яхшилаш учун унинг натижасига кандай омиллар ижобий, кайсилари салбий таъсир килганлигини билиш лозим. Бу ижобий омилларни кучайтириш, салбий таъсир килган омилларни бартараф килиш имконини беради. Шу туфайли иктисодий тахлили жараёнида омилли тахлил усулларидан фойдаланиш учун унинг табиатини, мазмуни, турлари, бир-бири билан богланиш моделларини ўрганишни такозо килади.

Корхоналарнинг хо́жалик фаолиятини таҳлил қилишдан ко́зланган асосий мақсад резервларни аниқлашдир. Резервларни аниқлашни осонлаштириш учун уларни илмий асосда туркумлаш керак. Резервлар қуйидагилардан иборат: халқ хо́жалиги, тармоқ, регионал (ёндош) ва ички хо́жалик резервлари. Айтайлик, машинасозлик саноатида маҳсулот таннархини арзонлаштириш борасида бо́лган катта резервлардан бири — рангли металларни пластмассалар билан алмаштириш ҳисобланиб, бу о́з навбатида кимё саноатини янада ривожлантиришни тақозо килади. Шу сабабли бундай резервлар халқ хо́жалиги резервлари қаторига киради. Ихтисослаштириш даражасини ошириш эса тармоқ резервлари қаторига кириб, у асосан вазирликларга бог`лиқдир. Регионал резервларга, айтайлик, бир маъмурий раёнда жойлашган турли бошқармаларга қарашли саноат корхоналарини кооперативлаштириш мисол бо́ла олади. Ички хо́жалик резервларини аниқлаш ва уларни хо́жалик айланмасига ёʻналтиришда корхоналар катта имкониятларга эга. Бу эса асосан уч гуруҳ ишлаб чиқариш ресурслари, (меҳнат ресурслари, меҳнат воситалари ва меҳнат предметлари) омилларидан оқилона ва самарали фойдаланишга бог`лиқ.

Мамлакатимизда иқтисодий — ижтимоий юксалишларни ифодаловчи кўрсаткичларга эришганлигимизнинг муҳим омиллари бугунги кунда иқтисодиётни модернизациялаш ва диверсификация қилишдан иборат бўлиб қолди.

Модернизация тушунчаси француз тилидан олинган бўлиб, «модернисер» — «замонавий», замонавийлаштириш деган маънони англатади.

**Модернизация** дейилганда, кўп қиррали иқтисодий, ижтимоий ва маънавий ҳаётни замон талабидан келиб чиққан ҳолда замонавийлаштириш мақсадида янгилашга эришиш тушунилади. Мамлакатимизнинг Биринчи Президенти «Бизнинг ўз олдимизга қўйган асосий мақсадимиз-бошлаган ислоҳотларимиз, иқтисодиётимизни янгилаш ва модернизация қилиш жараёнларини давом эттириш ва чуқурлаштириш, ҳаётимиз даражаси ва сифатини изчил ошириб боришни таъминлаш, тенглар ичида тенг бўлиб, жаҳон ҳамжамиятида муносиб ўрин эгаллашидан иборатдир» деб таъкидлаганлар. [1] Модернизацияни иқтисодиёт соҳаси билан бирга ижтимоий ва маънавий ҳаётимизда ҳам амалга оширишимиз, яъни иқтисодиётга мос тарзда замон талабидан келиб чиққан холда янгилашга эришишимиз даркор.

Бизнинг фикримизча, иқтисодиётни модернизация қилишнинг 4 та тури мавжуд:

1. Ишлаб чиқариш воситаларини модернизациялаш.
2. Технологик жараёнларни модернизациялаш.
3. Иқтисодиётни бошқариш усулларини модернизациялаш.
4. Ходимлар малакаси ва кўникмасини модернизациялаш.

Ушбу турларнинг бир-бири билан боғлиқлигини қуйидаги расмда келтирамиз (1-расм)




**Расм. 1. Иқтисодиётни модернизациялаш турлари [2]**

Ишлаб чиқариш воситаларини модернизациялаш дейилганда, эски ишлатилиб келинаётган ишлаб чиқариш воситаларини (техникаларни) бугунги кун талабига мос ҳолда замонавийлаштириш мақсадида янгилаш, яъни янги техникаларга алмаштириш тушунилади. Масалан, нон ишлаб чиқаришда олдин ишлаб чиқариш воситаси сифатида оддий тандирдан фойдаланилган, сўнгра у механизациялаштирилган махсус қурилмаларга алмаштирилган. Ҳозир эса, нонни ультратовушли печларда автоматик усуллар билан хам тайёрламоқда. Ушбу жараёнларнинг барчаси нон ишлаб чиқаришда ишлаб чиқариш воситаларини (техникани) модернизация қилишдан иборатдир.

Технологик жараёнларни модернизациялашда олдинги технологияларга нисбатан замон талабларига жавоб берадиган, рақобатбардош маҳсулотларни(хизматларни) ишлаб чиқарадиган тежамкор ва самарали технологияларнинг жорий қилиниши тушунилади.

Бошқарув усулларини модернизациялаш дейилганда бутун жараённи(ишлаб чиқариш, технологик, хизмат кўрсатиш, назорат, инновация каби) бошқаришнинг замонавий усулларидан фойдаланган ҳолда бошқариш тушунилади. Ушбу ҳолатга қуйидаги мисолни келтирамиз. Масалан, солиқ ундиришнинг назорати, олдин бевосита жойларга бориб амалга оширилган, ҳозир эса камерал назорат (жойларга бормасдан ҳисоботлар ва бошқа хужжатлар асосида солиқ идорасида текшириш) жорий қилинган.

Ходимлар малакаси ва кўникмасини модернизациялаш дейилганда, ходимлар малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш эвазига замонавий усулларда бошқариш, техника ва технологияларни ишлатишга қодир ходимларни янгидан шакллантириш тушунилади.(масалан, олдинги бухгалтерлар хисоб-китобни счетда ишлаган бўлсалар, ҳозир компютерни билишни тақозо қилади.)

Иқтисодий таҳлилда корхонада модернизация тадбирларининг амалга оширилишини баҳолаш ва таҳлил қилиш лозим бўлади. Бунинг учун қуйидаги кўрсаткичлардан фойдаланиш мумкин:

— Қорхонада модернизациялаш даражаси;

— Ишлаб чиқариш воситаларини модернизация қилиш жараёни;

— Технологик жараёнларни модернизация қилиш жараёни;

— Иқтисодиётни бошқариш усулларини модернизация қилиш даражаси;

— Ходимлар малакасини модернизациялаш даражаси.

Таҳлил жараёнида ушбу кўрсаткичларни аниқлаш ва корхоналарнинг аниқ маълумотлари асосида таҳлил қилиш лозим бўлади. Ушбу кўрсаткичларни меҳмонхона хўжаликларида ҳам қўллаш мумкин ва ушбу кўрсаткичларнинг аниқланиш усуллари қуйидаги жадвалда келтирилган(1-жадвал).

Жадвал 1. **Корхонада модернизациялаш жараёнини баҳолаш ва таҳлил қилишда қўлланиладиган кўрсаткичлар ва уларни аниқлаш йўллари**

| Кўрсаткичлар | Аниқланиш йўллари |
|---|---|
| Корхонада модернизациялаш даражаси ($М_д$) | **М = (Ичм +Тм +Бм + Хмм) / Барча жараёнлар**<br>Бунда: Ичм- ишлаб чиқариш жараёнларини модернизациялаш; Тм-технологик жараёнларни модернизациялаш; Бм –бошқарув жараёнларини модернизациялаш; Хмм- ходимлар малакасини модернизациялаш. |
| Ишлаб чиқариш восита-ларини модернизация қилиш даражаси (Ичм) | **Ичм= Мқич / ИЧ жараёнлари**<br>Мқич — модернизация қилинган ишлаб чиқариш жараёнлари |
| Технологик жараёнларни модернизация қилиш даражаси (Тм) | **Тм= Мқтж / Бтж**<br>**Мқтж-** модернизация қилинган технологик жараёнлар; **Бтж**- барча технологик жараёнлар |
| Иқтисодиётни бошқариш усулларини модернизация қилиш даражаси (Бм) | **Бм = Мқбу / Ббу**<br>Мқбу — модернизация қилинган бошқариш усуллари;<br>Ббу- барча бошқариш усуллари |
| Ходимлар малакасини модернизациялаш даражаси (Хмм) | **Хмм = Моха / Бх**<br>Мох — малакасини оширган ходимлар сони; Бх — барча ходимлар сони |

Ушбу кўрсаткичлар бевосита меҳмонхона хўжалик ларига хам дахлдор. Уларнинг барчасини бошқа соҳалар сингари бемалол меҳмонхоналар фаолиятини баҳолашда хам қўллаш мумкин. Модернизация жараёни шу жумладан иқтисодиёт соҳасида ҳам уни амалга ошириш кенг кўламли жараён эканлигини кўриш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. И. Қаримов Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида.Т. 16. — Т. «Ўзбекистон» 2008. 368 бет.
2. Пардаев М. Қ., Мамасоатов Т. Х., Пардаев О. М. «Модернизация, диверсификация ва инновация — иқтисодий ўсишнинг муҳим омиллари» Т. «Наврўз» 2014. 100 бет.

# Международные стандарты финансовой отчетности

Маткулиева Санобар Исмаиловна, старший преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)

**Международные стандарты финансовой отчётности** (**МСФО**; ***IFRS англ. International Financial Reporting Standards***) — набор документов (стандартов и интерпретаций), регламентирующих правила составления финансовой отчётности, необходимой внешним пользователям для принятия ими экономических решений в отношении предприятия.

Современные международные процессы регулирования бухгалтерского учета и отчетности характеризуются все более широким распространением международных стандартов финансовой отчетности (МСФО), обусловленным объективными причинами: ростом международной торговли, увеличением трансграничных потоков капитала, возрастающими потребностями в информационном обеспечении инвесторов, правительства, организаций, оказывающих финансовую помощь, коммерческих структур, бизнеса в целом.

Финансовая отчетность составляется не только единичными организациями, но и группами определенным образом взаимосвязанных организаций. К сожалению, многие из них не готовы к раскрытию не только финансовой информации, но и информации о нефинансовых факторах, влияющих на рыночную стоимость организации: о стратегии, о новых товарах, о проводимых научных исследованиях, о взаимоотношениях в группе. В результате этого возникают информационные пробелы при принятии решений, направленных на увеличение рыночной стоимости компаний.

Особое место в системе отчетности принадлежит отчетности о деятельности группы организаций, которая называется консолидированной финансовой отчетностью. Понимание принципов формирования такой отчетности будет способствовать удовлетворению интересов широкого круга пользователей. Консолидированная финансовая отчетность выступает в качестве связующего звена между эмитентами и инвесторами, способствует повышению уровня сопоставимости информации.

Седьмая директива Европейского союза (ЕС) о консолидированной отчетности предусматривает семь условий, при которых обязательно должна составляться такая отчетность:

1. **Большинство голосов**. Материнская компания составляет консолидированную с дочерним предприятием финансовую отчетность, если она владеет большинством голосов ее акционеров. Такой порядок касается голосующих акций.

2. **Контроль за формированием совета директоров**. Материнская компания составляет консолидированную с дочерним предприятием финансовую отчетность, если она является акционером и имеет право назначать или увольнять большинство членов ее администрации, управленческого или контролирующего органа.

3. **Контроль посредством контракта**. Материнская компания составляет консолидированную с дочерним предприятием финансовую отчетность, если она оказывает преобладающее влияние в соответствии с условиями заключенного контракта или положениями устава. Такой подход принят в германской практике. Однако преобладающее влияние не является обязательным условием.

4. **Контроль посредством соглашения**. Материнская компания составляет консолидированную с дочерним предприятием финансовую отчетность, если она является его акционером и в соответствии с соглашением, заключенным с другими акционерами или членами, контролирует большинство голосов дочернего предприятия. Это рассматривается как более строгое применение концепции контроля де-факто миноритарными акционерами, требующее соглашения с другими акционерами, а не просто их молчаливого согласия на осуществление такого контроля.

5. **Контроль де-факто за назначением членов совета директоров**. Материнская компания составляет консолидированную с дочерним предприятием финансовую отчетность, если она является его акционером или членом, а большинство членов совета директоров, которые управляли пред приятием на протяжении текущего или предшествующего года и до момента составления консолидированного финансового отчета, назначаются материнской компанией. Это возможно в ситуации, когда большая часть акций широко рассеяна.

6. **Процент участия с доминирующим влиянием, или объединенное управление**. Материнская компания составляет консолидированную с дочерним предприятием финансовую отчетность, если она имеет процент участия в нем и одновременно имеет доминирующее влияние на него или два предприятия управляются на объединенной базе материнской компанией.

7. **Горизонтальные группы**. Консолидированная финансовая отчетность должна составляться компаниями, имеющими незначительные акционерные связи, или в следующих обстоятельствах: если они управляются на объединенной базе в соответствии с контрактом или уставом; если тот же самый персонал составляет большинство членов совета директоров всех компаний в течение года или другого периода до составления консолидированной финансовой отчетности.

Приведенные требования в значительной мере пересекаются, усложняя порядок составления консолидированной отчетности.

8. **Как показывает международная практика, возможны и более простые, и более сложные взаимосвязи между отдельными предприятиями при включении их данных в единую консолидированную отчетность.**

В силу крепнущего влияния международные стандарты финансовой отчетности все шире применяются в качестве базиса национальных требований к консолидированной финансовой отчетности. Все более очевидно, что именно МСФО становятся основой, на которой будет осуществляться формирование сопоставимой консолидированной финансовой отчетности во многих странах мира.

МСФО представляют собой полную и концептуально устойчивую систему стандартов финансовой отчетности, удовлетворяющую требованиям международных деловых кругов. В настоящее время ведётся активная работа по уточнению МСФО в соответствии с изменениями в экономике различных стран. В распространении МСФО заинтересованы профессиональные организации и объединения. Международная организация комиссий по ценным бумагам (International Organization of Securities Commissions — IOSCO) отметила, что отсутствие единых стандартов дезориентирует инвестора. Глобализация финансовых рынков требует единых стандартов в области учета и отчетности.

В 2000 г. для размещения акций и прохождения процедуры листинга на международных фондовых биржах IOSCO рекомендовала своим членам разрешить транснациональным компаниям (ТНК-эмитентам) использовать МСФО при формировании финансовой отчетности.

Финансовая отчетность выступает в качестве связующего звена между эмитентами и инвесторами, поскольку способствует повышению уровня сопоставимости информации. Надлежащая финансовая отчетность — необходимое условие эффективного функционирования рынка капиталов.

Азиатский финансовый кризис конца 90-х гг. XX в. Свидетельствует о том, что неудовлетворительная бухгалтерская практика, неадекватная отчетность компаний могут оказать разрушающее воздействие на экономику целого государства. Скорость распространения финансовых кризисов и их масштабы таковы, что капитал, в одночасье теряя свою стоимость, оказывает негативное влияние на экономическое развитие целых регионов. Финансовая отчетность должна содержать информацию, позволяющую предвидеть подобные процессы.

Внедрение МСФО в конкретной стране вызывает необходимость корректировки законодательства национальных учетных норм и правил, что потребует значительных усилий и средств.

Улучшение качества представляемой отчетной информации приведет к экономии ресурсов, устранению двойной нагрузки на компании, которые сейчас вынуждены составлять отчетность в системе национальных стандартов и МСФО, будет способствовать принятию более эффективных управленческих решений. Все большую роль в регулировании бухгалтерского учета и отчетности в настоящее время играют международные профессиональные организации. Наиболее авторитетными международными организациями в области бухгалтерского учета являются Международная федерация бухгалтеров (International Federation of Accountants — IF AC), объединяющая в своих рядах более 150 профессиональных организаций из 114 стран, Совет по международным стандартам финансовой отчетности — СМСФО (International Accounting Standards Board — IASB, ранее — International Accounting Standards Committee — IASC, созданный в 1973 г. Решением Международного конгресса бухгалтеров). Совет по международным стандартам финансовой отчетности — независимый орган, целью которого является унификация принципов бухгалтерского учета, используемых компаниями во всем мире для составления финансовой отчетности. Обе названные организации тесно сотрудничают в подготовке стандартов финансовой отчетности.

В настоящее время разработано около 40 МСФО, где рассмотрены наиболее важные вопросы методологии финансового учета и отчетности.

Несмотря на широкомасштабные интеграционные процессы в области бухгалтерского учета и позитивное отношение к принятию МСФО со стороны международных и национальных профессиональных организаций, фондовых бирж, транснациональных корпораций, еще сохраняются существенные различия в методологии бухгалтерского учета в различных странах, объясняемые национальными, экономическими, историческими, культурными традициями и особенностями.

Стандарты, издававшиеся IASC, назывались International Accounting Standards — IAS, и в отечественной научной литературе это переводилось как «международные стандарты финансовой отчетности».

Первый уровень требует составления отчетности на основании глобальных стандартов, базирующихся на общих принципах, что позволит получить сопоставимую информацию о деятельности компаний из различных стран.

Второй уровень предполагает формирование отчетности в соответствии с отраслевыми стандартами, что позволяет обеспечить отраслевую сопоставимость.

Третий уровень определяет составление отчетности об особенностях деятельности, стратегических решениях, специфике управления, конкурентной среде компании, т. е. речь идет о наполнении отчетности небухгалтерской информацией [1].

Следует отметить, что консолидированная отчетность имеет свой круг пользователей, к которым относятся:

— внешние инвесторы;

— акционеры материнской компании;

— существующие и потенциальные акционеры дочерних предприятий;

— существующие и потенциальные кредиторы, поставщики, покупатели и др.;

— руководство и наблюдательный совет материнской компании и дочерних предприятий;

— служащие компании и дочерних предприятий;
— правительственные организации;
— аналитики и консультанты;
— деловые круги [2].

В США и Великобритании традиционно считается, что консолидированная отчетность необходима прежде всего акционерам материнской компании, а также кредиторам.

Теория и практика составления консолидированной отчетности в разных странах существенно различаются по следующим основным моментам:

— неодинаковая степень распространения консолидированной финансовой отчетности;
— различные подходы к пониманию категории «группа компаний» с точки зрения консолидации;
— неодинаковые объемы информации, публикуемой компаниями;
— разные методы консолидации.

В целях устранения сохраняющихся пробелов в отечественном законодательстве, упорядочения иерархии нормативных документов, регулирующих формирование консолидированной финансовой отчетности, следует на основе готовящегося Федерального закона «О консолидированной финансовой отчетности» разработать методические указания по её составлению.

Литература:

1. Палий, В. Ф. Перспективы применения МСФО в российских организациях // Бухгалтерский учет. — 2003. — № 8. — с. 17–21.
2. Солоненко, А. А. Вестник АГТУ. 2006. 173–177 с.

## Ҳудудларни ижтимоий–иқтисодий ривожланишида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ўрни (хоразм вилояти мисолида)

Рўзметов Баходир Шомуротович;
Атабоев Дилмурод Бахромбоевич
Урганч давлат университети (Ўзбекистон)

Рузметов Баходир Шомуратович, ассистент;
Атабоев Дилмурод Бахромбоевич, студент
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)

Мамлакатимизда ишбилармонлик муҳитини яратиш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришга алоҳида эътибор берилди. Қичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш буйича кейинги йилларда катор ишлар амалга оширилди. Ушбу соҳани ривожлантиришга қаратилган бир канча қонунлар ва қонуности ҳужжатлар қабул килинган. Уларнинг натижасида 2016-йилда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ЯИМдаги улуши 56.9 %ни ташкил этди. Ушбу кўрсаткич 2007-йилда 45.7 % эди.

Узбекистондада кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ижтимоий- иқтисодий ривожлантириш ўзига хос хусусиятларга эга. Жумладан, янги иш ўринларини очиш эвазига бандлик масаласини хал қилади, иш билан таъминлаш эвазига ходимларнинг фаровонлигини оширади, янги ўрта мулкдорлар қатламини шакллантириш эвазига ижтимоий баркарорликни таъминлаш имконини яратади, одамларда мулкдорлик ҳиссини уйғотади, боқимандалик руҳиятидан воз кечилиб, ташаббускорлик руҳияти шаклланади. Шу туфайли кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни мамлакат миқёсида ва унинг ҳар бир худудида ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга.

Қичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятларига қуйидаги масалаларни киритиш мумкин бўлади:

— Биринчидан, катта маблағ ва кўп вақт талаб қилмасдан фаолиятни юритиш имкониятининг мавжудлиги.

— Иккинчидан, асосан хусусий мулкка асосланган ҳолда ривожланиши.

— Учинчидан, оилавий тадбиркорлик ва оилавий корхона мақомида фаолият кўрсатиши.

— Тўртинчидан, мазкур соҳанинг асосан хизмат кўрсатишга қаратилганлиги.

— Бешинчидан, иш ўрнининг арзонлиги.

— Олтинчидан, талаб ва таклифнинг ўзгариши билан унинг фаолиятини ҳам тез ўзгартириш имкониятининг мавжудлиги.

— Еттинчидан, бозор коньюктурасига мослашувчанлиги.

Бозор муносабатлари шароитида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик иқтисодиётнинг асосий ҳал қилувчи бўғини сифатида майдонга чикади. Чунки ҳар қандай мамлакатнинг иқтисодиёти айнан ушбу соҳани ривожлантирилганлик даражаси билан белгиланади. Республикамизда ишбилармонлик муҳитини янада яхшилаш, кичик

бизнес ва хусусий тадбиркорликни ишончли ҳимоя қилинишини таъминлаш, уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва жадал ривожлантириш йўлидаги тўсиқларни бартараф этиш борасида амалга оширилаётган комплекс чора-тадбирлар натижасида 2016 йил давомида 31766 та янги кичик тадбиркорлик субъектларини (деҳқон ва фермер хўжаликларидан ташқари) ташкил этиш имконини берди. Натижада 2017 йил 1 январ ҳолатига фаолият кўрсатаётган кичик тадбиркорлик субъектларининг сони 218170 тани ташкил этиб, ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 11066 тага кўпайди.

Қичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларига янада қулай шарт-шароитлар яратиб берилаётганлиги натижасида 2016 йил январ-декабр ойларининг дастлабки якунлари бўйича уларнинг улуши мамлакатимиз ялпи ички маҳсулотида 56,9 фоизни (2015 йилнинг январ-декабр ойларида 56,5 фоиз), саноатда — 45,0 фоизни (40,6 фоиз), хизматлар соҳасида — 60,5 фоизни (57,8 фоиз), экспортда — 28,5 фоизни (27,0 фоиз) ва бандликда — 78,1 фоизни (77,9 фоиз) ташкил этди.

2016 йилнинг январ-декабр ойларида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари томонидан иқтисодиётга 19963,2 млрд.сўмлик инвеститсиялар киритилди. Бу Республика бўйича жами киритилган инвеститсиялар ҳажмининг 40,3 фоизини ташкил этади. Шунингдек, улар томонидан 20677,7 млрд.сўмлик қурилиш ишлари бажарилди (жами қурилиш ишлари ҳажмининг 70,7 фоизи) ёки ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 15,6 фоизга ўсди [2].

Хоразм вилоятининг ижтимоий- иқтисодий ривожланишида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг аҳамияти жуда катта бўлиб, улар минтақанинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётида муҳим ўринга эга.

Айниқса, сўнги йилларда мамлакатимизда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожлантириш бўйича қабул қилинган қарорлар ва улар асосида ишлаб чиқилган дастурлар ва уларни амалга оширилиши натижасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) ва ҳудудий ички маҳсулот(ҲИМ)да улуши сезиларли даражада оширилишига эришилди.

Жумладан, 2016 йилнинг январь-декабрда вилоятнинг кичик тадбиркорлик субъектлари маҳсулоти (ишлар, хизматлар) умумий ҳажмидаги хусусий тадбиркорликнинг (фуқаролар мулки) улуши қуйидагича ифодаланади:

**Манба: Хоразм вилоятининг статистик ахборотномаси**

| | Кичик тадбиркорлик субъектлари маҳсулоти (иш, хизмат) ҳажми, млрд. сўм | Кичик тадбиркорлик субъектлари маҳсулоти (иш, хизмат) ҳажмида хусусий сектор улуши, % ҳисобида |
|---|---|---|
| Қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги | 2885,9 | 95,1 |
| Саноат | 1330,0 | 47,6 |
| Қурилиш | 1136,9 | 87,0 |
| Чакана савдо | 2910,8 | 87,6 |
| Юк ташиш, млн тн. | 53,2 | 92,6 |
| Йўловчи ташиш, млн.киши | 416,1 | 94,0 |
| Экспорт, млн. АҚШ долл. | 94,8 | 61,4 |
| Импорт, млн. АҚШ долл. | 115,7 | 90,5 |

2017 йилнинг 1 январь ҳолатига вилоятда руйхатга олинган жами кичик тадбиркорлик (бизнес) субъектларининг сони 10819 тани ташкил қилди.

2016 йил январь-декабрда ялпи худудий маҳсулотнинг 74,2 фоизи (2015 йил январь-декабрда 74,1 фоиз) кичик бизнес субъектлари томонидан ишлаб чикарилди.

2016 йилнинг январь-декабрда кичик тадбиркорлик (бизнес) субъектлари томонидан:

— 589,5 минг нафар кишининг бандлиги таъминланди (жами иқтисодиётда банд бўлганларнинг 82,6 фоизи), шу жумладан банд бўлганларнинг 459,8 минг нафари якка тартибдаги тадбиркор, 129,7 минг нафари кичик корхона ва микрофирмалар ҳиссасига тўғри келди;

— саноат маҳсулоти ишлаб чикариш хажми 1330,0 млрд. сўмни (жами саноат ишлаб чикаришининг 47,6 фоизи) ёки 2015 йилнинг январь-декабрга нисбатан115,8 фоизни ташкил қилди;

— 2885,9 млрд. сўмлик қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжаликларининг ишлаб чикарилган (кўрсатилган хизматлар) ташкил қилиб, ўсиш суръати 108,3 фоизни (қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжаликлари ялпи маҳсулотининг 95,1 фоизи) ташкил қилди.

— 898,1 млрд. сўмлик инвестициялар (умумий инвестициялар хажмининг 61,9 фоизи) ўзлаштирилди ва 2015 йилнинг январь-декабрга нисбатан 103,8 фоизга ўсди;

— 1136,9 млрд. сўмлик курилиш ишлари (курилиш ишлари умумий ҳажмининг 87,0 фоизи) бажарилди ва 2015 йилнинг январь-декабрга нисбатан 115,4 фоизга кўпайди;

— автомобиль транспорти юк айланмасининг 108,9 фоизга (вилоят жами автомобил транспорти юк айланмасининг 96,0 фоизи), йуловчи айланмасининг эса 107,9 фоизга (умумий йуловчи айланмасининг 93,0 фоизи) кўпайиши таъминланди;

— чакана товар айланмаси умумий хажмининг 87,6 фоизи ёки 2910,8 млрд. сўмни (ўсиш 121,3 фоиз) ва хизматлар умумий хажмининг, мос равишда 70,0 фоизи ёки 1881,4 млрд. сўмни (ўсиш 116,1 фоиз) шакллантирилди;

— 94,8 млн. АҚШ доллари (умумий экспорт хажмининг 61,4 фоизи) микдорида маҳсулотлар (товар ва хизматлар) экспорт килинди, 115,7 млн. АҚШ доллари (умумий импорт хажмининг 90,5 фоизи) микдорида маҳсулотлар (товар ва хизматлар) импорт қилинди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:


1. Пардаев М. Қ. ва б. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик: ривожланиш муаммолари ва ечимлари. Монография. — Т.: «Навруз» — 2013.
2. Давлат статистика қўмитаси ахборот хизмати.
3. Хоразм вилоятининг статистик ахборотномаси.
4. www.lex.uz
5. www.stat.uz


# Минтақани ижтимоий–иқтисодий ривожланишида туристик хизматлар бозорининг ўрни


Рўзметов Баходир Шомуротович;
Юсупов Мухиддин Баходирович
Урганч давлат университети (Ўзбекистон)

Рузметов Баходир Шомуратович, ассистент;
Юсупов Мухиддин Баходирович, студент
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)


Мамлакатнинг ижтимоий—иқтисодий ривожланишида аҳолига хизмат кўрсатувчи соҳаларнинг ўрни ва роли ғоят сезиларли бўлиб, бунда туризмнинг аҳамияти бошқа хизмат кўрсатиш соҳаларига қараганда юқори суръатлар билан ривожланиш даражаси билан белгиланади. Шунинг учун ҳам кейинги йилларда Ўзбекистонда туризмни ривожланиши билан боғлиқ бўлган масалаларга жуда ҳам катта эътибор берилиб, унинг туристик салоҳиятидан самарали фойдаланиш йўллари шаклланмокда ва қарор топмокда.

Мамлакатимизда туристик хизмат кўрсатиш соҳаси мустақиллик йилларидан бошлаб иқтисодий тараққиётнинг устувор йўналиши сифатида эътироф этилди, ташкилий-ҳуқуқий механизми вужудга келтирилиб, давлат томонидан тегишли меъёрий ҳужжатлар қабул қилинди.

Таъкидлаш лозимки, туризм ривожида, айниқса, соҳанинг бошқарув тузилмаси муҳим ўрин тутади. Президентимизнинг 2016 йил 2 декабрдаги Фармонига асосан, янгидан ташкил этилган Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси фаолияти, энг аввало, назорат ва маъмуриятчилик вазифаларини амалга оширишга эмас, балки туризмда тадбиркорлик фаолиятини кучайтиришга қаратилгани билан аҳамиятлидир. Яъни қулай ишбилармонлик муҳитини яратиш, сайёҳликни ривожлантиришга тўсқинлик қилаётган ғов ва тўсиқларни бартараф этиш, хизматлар бозорида рақобатни ривожлантириш, лицензиялаш, сертификатлаш ҳамда бошқа рухсатномалар бериш унинг зиммасига юкланди.

2017—2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг «Иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришнинг устувор йўналишлари» деб номланган учинчи йўналишида туризм индустриясини жадал равнақ топтириш бўйича дастурий вазифалар белгилаб берилган.

Ўзбекистонда, шу жумладан Хоразмда туризм салоҳиятининг юқорилиги, унинг миллий ва ҳудудий иқтисодиёт тараққиётидаги устувор ўрни ва аҳамияти, туризм корхоналарининг ва улар билан бевосита боғлиқ хизмат кўрсатувчи тармоқ соҳаларининг фаоллиги туризм мажмуаси ва унинг инфратузилмалари шаклланиши ва ривожланишига боғлиқ бўлиб қолмоқда. Замонавий туризм мажмуаси ва унинг инфратузилмалари шаклланиши, авваламбор туризмнинг инновациявий-инвестициявий ривожланиши бошқариш моделига ва туризм тизимида иқтисодий-ижтимоий муносабатлар ривожланишига таянади. Замонавий туризм мажмуаси шакллантиришда унинг ишлаб чиқариш, транспорт, жойлаштириш воситалари, ахборот-коммуникация ва реклама хизматлари, ҳамда молия, кредит, суғурта инфратузилмалари билан бир қатор инфратузилмаларнинг ўрни ва аҳамияти жуда юқоридир.

Хоразм вилояти маданият ва спорт ишлари бошқармаси маълумотларига кўра фақат ҳозирги кунгача рўйҳатга олинган маданий ёдгорликларидан

18 та археологик, 134 та тарихий меъморчилик ёдгорликлари ҳамда 6 та диққатга сазовор ва 32 та муқаддас, жами 256 та бундай объектлар мавжудлиги худуд тарихий ёдгорликларга бойлигини кўрсатади, туризм салоҳиятини янада оширади ва туризмнинг ҳудуд учун янги йўналишла-

рини ташкил қилиш имкониятлари катталигидан далолат беради [1].

Бугунги кунда туристик хизмат соҳаси хусусийлаштириш ва модернизациялаш талабларига мос ҳолда қайта ислоҳ қилинди. Туристик хизматлар кўрсатишни яхшилаш учун туризм индустрияси асосида туристик ресурслар потенциали юқори бўлган Хоразм вилояти минтақасида ривожлантириш алоҳида аҳамиятга эга.

Охирги йиллар давомида вилоятда туристик хизматлар кўрсатиш тизимини яхшилаш билан туризм индустрияси фаолиятини шакллантириш омилларининг ижобий таъсири кучайтирилди, туризм хизмати сифатини кўтариш ишлари амалга оширилди, миллий туристик корхоналарнинг рақобатбардошлигини таъминлашга эришилди ва туристик маҳсулотга бўлган хориж талабини ўстиришга асос яратилди.

Вилоятимизда туризм соҳасини ислоҳ қилиш бўйича амалга оширилаётган чора-тадбирларнинг ижобий натижалари туристик хизматлар ҳажмининг ўсишида ўз аксини топмоқда. Шулардан келиб чиқиб буни қуйидаги кўрсаткичлар орқали кўриб чиқишимиз мумкин.

Хоразм вилоятига 2015 йилда ташриф буюрган жами *(хорижий ва маҳаллий)* сайёҳлар сони **63,4 мингдан ортиқни** ташкил қилган бўлса, 2016 йил якуни билан бу кўрсаткич **75,8 мингдан** ортиқни ташкил қилиб, деярли **20 % га** ошган.




Биргина, 2015 йилнинг ўзида дунёнинг **80 дан ортиқ** давлатидан **40,6 мингга яқин** хорижий сайёҳлар вилоятимизга ташриф буюришган бўлишса, 2016 йил якуни билан, бу кўрсаткич **46,6 мингдан ортиқни** ташкил қилиб, ўтган йилнинг шу даврига нисбатан **15 % га ошган**

Шу жумладан, МДҲ давлатларидан 2015 йил давомида **5767** та сайёҳ ташриф буюрган бўлса, 2016 йилда ушбу кўрсаткич **6600** тани ташкил қилиб, **15 фоизга** ошган.

2015 йилда **22767** та маҳаллий сайёҳлар ташриф буюрган бўлса, 2016 йилда ушбу кўрсаткич **29200** тадан ортиқни ташкил қилиб, қарийб **30 фоизга** ошган.




2012 йилда хорижий ва маҳаллий сайёҳларга кўрсатилган жами хизматлар хажми 5562,1 млн сўмни ташкил қилган бўлса, 2016 йил якуни билан 11389,9 млн сўмни ташкил қилди ва жами кўрсатилган хизматлар хажми 2012 йилга нисбатан икки баробарга ошди. Келгусида бу кўрсаткич янада яхшиланиши кутилмоқда [3].

Шу билан бирга, Хоразм вилоятида туристик хизмат бозорининг ривожи рекреацион талаб ва таклифнинг

ижтимоий характерига эга бўлиши билан ҳам боғлиқ. Келажакда вилоятда туристик хизматлар бозорини яхшилаш учун туризм соҳасидаги кадрларни тайёрлашни амалга ошириш, транспорт тизимини модернизация қилиш, туристлар хавфсизлигини таъминлаш ва атроф-муҳитнинг ифлосланишини бартараф этиш каби чора-тадбирларни ҳам амалга ошириш лозим.

— Юқоридагилардан келиб чиқиб, Хоразм вилоятида туристик хизматлар кўрсатиш бозорини такомиллаштириш учун қуйидаги йўналишлардаги чора-тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир:

— туристик ресурслардан самарали фойдаланиш;

— туризм хизмат бозорининг самарали иқтисодий механизмини шакллантириш;

— унинг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш ва янада ошириш;

— амалиётга йўналтириш ва корхоналар самарадорлигини таъминлашдаги ўрнини белгилаш;

— бозор ишлашини таъминловчи шарт-шароитларни янада яхшилаб, давлат томонидан қўллаб-қувватлаб бориш;

— туристик фирмалар томонидан инновацион стратегияларни тайёрлаб, бозорга йўналтириш;

— минтақага хос бозорни такомиллаштиришга йўналтирилган аниқ тадбирлар ўтказиш мажмуасини яратиш;

— туризмни ривожлантириш истиқболини башорат қилиш ва уни амалга ошириш бўйича дастурлар тизимини ишлаб чиқиш.

Шуларни амалга ошириш орқали минтақада туристик хизматлар бозорини такомиллаштиришга ва мавжуд туристик имкониятлардан кенгроқ фойдаланишга эришилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Хоразм вилояти маданият ва спорт ишлари бошқармаси хисоботи
2. Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси Хоразм вилояти минтақавий бўлими хисоботи
3. www.lex.uz
4. www.stat.uz

## Advantages and disadvantages of ISO 9001 certification in the sphere of service

Khodjaniyazov Elbek Sardorovich, teacher
Urgench state University (Uzbekistan)

Ходжаниязов Эльбек Сардарович, ассистент, преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)

The ISO 9000 family of quality management systems standards is designed to help organizations ensure that they meet the needs of customers and other stakeholders while meeting statutory and regulatory requirements related to a product or program [1]. ISO 9000 was first published in 1987. Since then it has been several times reviewed and reissued. It deals with the basics of quality management systems and requirements for organizations to meet in order to be certified.

Today the ISO 9001 model has become one of the most globally used management tools. Many customers require that the suppliers should hold ISO 9001 certification, which helps this model to enjoy demand (more than one million organizations across the globe). However, there are people who criticize ISO 9001 arguing that it is wasteful and not useful for all organizations.

For the successful implementation of its activities and sustainable functioning in a competitive market, it is essential for today's enterprises to implement quality management systems. The quality management system is part of the organization's management system, which aims to achieve results in accordance with the quality objectives, to meet the needs, expectations and requirements of stakeholders. In other words, the quality management system — a tool that allows to predict and measure the impact of decisions and ongoing events in the service quality. A range of quality standards have been designed and adapted over the years, with the ISO (International Standardization Organization) family of standards representing set of quality standards utilized by enterprises in order to deliver products and services that meet the customer's quality requirements.

This paper attempts to reveal the advantages of ISO 9001:2015 which is the latest version of standard that has been adopted after modification of ISO 9001:2008. Advantages that the organization gets after obtaining certification and benefits related with the ISO 9001:2015. After trying to define ISO 9001 series of standards, the paper investigates the usefulness of the standard. Further, the author tries to show limitations related with ISO 9001:2015 certifications. These limitations are mainly heavy documentation and registration costs that firms experience in adopting ISO 9001 model.

In September 2015 the International Organization for Standardization (ISO) published the revised version of the ISO 9001which is based on the process model of the 2008 revision. It mainly puts emphasis on Context of the Organization, Leadership and Planning and other changes [2].

Basic requirement of the ISO 9001:2015 consists in the fact that it continues to require documented procedures or references to them, documentation requirements are much less prescriptive and left more to the organization to define its own needs.

ISO 9001 is not the only standard that outlines requirements for the organization of the quality system. There are other, more specialized standards for quality systems. There is a separate standard for pharmaceuticals, a separate standard for the telecommunications industry, a separate standard for the food industry. A separate standard for automotive component manufacturers is an extended version of ISO 9001.

However, only ISO 9001 got so popular among them in the world. Today we are talking about hundreds of thousands of companies that have received the certificate of ISO 9001.




Fig. 1. **Number of ISO certifications worldwide in 2013. Source: ISO survey (2013)**

So what are the reasons for this popularity of the standard? There are several reasons:

Firstly, the standard sets out the non-specific («Pallets should not stand on the floor»), and the very general requirements («Staff... should be competent»). These general requirements, in fact, the principles on the basis of which a small kiosk, and a huge corporation can be run. On the one hand, this is a big minus of the standard, as it requires experts to translate the requirements of the standard bureaucratic language with a simple conversational. On the other hand, it is a great advantage as the standard suits and manufacturing, and service organizations of all sectors of the economy.

Secondly, the work itself to prepare for the certification brings a lot of benefit to the company. The standard was written based on years of experience of experts on quality and based on common sense. In general, it is like an exercise for the body, allows you to monitor and maintain the health of the organization.

Lastly, if the organization does not have the ISO 9001 nowadays, it means that the organization is not serious and is unable to provide a minimum degree of order, required for certification.

So managing quality with ISO 9001 requires company to follow basic principle, which is called PDCA (Plan-Do-Check-Act) [3].

All the processes and activities of the organization must be based on this simple principle. Any management activities should be

— planned
— implemented
— Checked for compliance with the plan (expectations)
— Fixed, if its results do not satisfy the organization.

**Benefits of ISO 9001 Model**

— It sets up and improves processes by process documentation
— It raises greatly the efficiency of operations
— Gives priority over competitors that don't have ISO 9001:2015 certification
— It establishes and improves training processes
— It determines responsibilities and roles
— It enhances the ability to improve shortcomings and attract new customers
— It creates relationships which help to keep existing customers
— Provides opportunities for business an international recognition
— Offers thoroughly planned improvements which are based on analysis and documentation
— Demands to review performance constantly.

So, if you apply this version of ISO it is supposed that you will increase productivity and maximize quality of your production. At the same time, by saving time and money you will raise your revenue, which will lead to satisfaction of employees.

Recently, numerous studies have attempted to explain that the disadvantages of applying ISO 9001:2015 to enhance the quality of products and services in organizations may appear when the standard is not implemented properly.

In that case, organizations have to pay excessive amount money for consultants and auditors.

Some obvious disadvantages of ISO 9001 are listed below:

— Owners and managers do not have an adequate understanding of ISO 9001.

— Most of companies do not have enough money to adapt the standard, therefore companies are finding difficulties to adopt ISO system.

— ISO 9001 registration need heavy document workload.

— ISO 9001 registration process usually takes a long time.

References:


1. Poksinska Bozena, Dahlgaard Jens Jörn, Antoni Marc (2002). «The state of ISO 9000 certification: A study of Swedish organizations». The TQM Magazine. 14 (5): 297.
2. «ISO Standards for Softare industry.» [Online]. Available: http://www.ukessays.com/essays/information-technology/history-of-spi-frameworksinformation-technology-essay.php.
3. «Guidance on the requirements for Documented Information of ISO 9001:2015.» [Online]. Available: http://www.iso.org/iso/documented_information.pdf


## Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasining roli


Cho'ponov Sanat Otanazarovich
Urganch davlat universiteti (Ўзбекистон)

Чупонов Санъат Отаназарович, ассистент, преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)


Respublikamiz mustaqillika erishgandan so'ng, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, bunday islohot turizmni rivojlantirish sanalib, ushbu sohani rivojlantirishga davlat tomonidan ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, turizmning izchil rivojlanishi natijasida transport, bozor infratuzilmasi, savdo-sotiq, oziq-ovqat, qurilish, hunarmandchilik va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlari taraqqiy qiladi.

Shuningdek, mamlakat turizm infratuzilmasini samarali shakllantirishda xorijiy mamlakatlardan qolishmaydigan imkoniyatlarga egaligi bu borada ko'plab muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Chunki, transport infratuzilmasi temir yo'l aloqalari va avtomobil yo'llari tarmoqlari, aeroportlar, dengiz portlari sanaladi [1]. Hamda transport infratuzilmasi sifat xarakteristikasi zamonaviy shinam transport vositalari mavjudligi hisoblanadi. Ana shularni hisobga olgan holda, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, hozirgi kungacha zamon talablariga javob beradigan turizm infratuzilmasini tarkib toptirish va rivojlantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar o'z ijobiy natijalarini berib kelmoqda.

Avvalo, transport sayohat sifatida turli transport vositalaridan foydalanib, ishlab chiqilgan yo'nalishlar bo'yicha turistlar guruhlarining sayohati sanaladi. Ulardan tashqari, avtobus, havo yo'li va temir yo'li vositasidagi sayohatlar kengroq tarqalgan bo'lib, ushbu sayohatlar bir necha transport turlari orqali, ya'ni temir yo'ldan avtobus, havo yo'lidan avtobus va boshqa vositalarda amalga oshiriladi. Shuningdek, transport tur sifatida avtobus va yengil avtomobildan mustaqil yo'nalish kabi turistlarni aeroport yoki vokzaldan mehmonxonaga olib boradi va aksincha undan olib borib qo'yishda keng foydalaniladi.

Umuman, turizm infratuzilmasi iqtisodiyotning agrosanoat kabi boshqa industriyalariga foyda keltiruvchi bir tarmoq hisoblanib, ushbu xususiyat bilan turizm infratuzilmasi sarmoya va foyda keltiradigan tarmoq ham hisoblanadi. Yuqoridagidardan kelib chiqib, turizm infratuzilmasi deganda turizm tarmog'ida bo'ladigan munosabatlar va hodisalar yig'indisi va yaxlitligi tushuniladi. Bunda turizm tashqi muhit bilan o'zaro aloqa qiluvchi turizm tashkilotlari va hududlarini o'z ichiga oluvchi munosabatlar tizimi sanaladi.

Shuningdek, Xorazm viloyati turizm sohasida transport infratuzilmasining o'zgarish tahlili uning rivojlantirish yo'nalishlarini bilishni talab qiladi. Chunki, viloyatda transport tizimi iqtisodiyot tarmoqlari yuklarini tashish va aholiga xizmat ko'rsatishda muhim o'rin tutadi va viloyatning izchil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Xorazm viloyatida har yili 40 ming nafar xorijiy turistlar va 8—10 ming nafar atrofidagi ichki turistlarga xizmatlar ko'rsatayotgan turizm infratuzilmalarining hozirgi faoliyati o'rganilib, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida turizm samaradorligini oshirishda tegishli turizm infratuzilmalarni tashkil qilishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ladi [2]:

— Urganch xalqaro aeroporti faoliyatini takomillashtirish va sifatli xizmatlar ko'rsatish bo'yicha infratuzilmalar yaratish;

— Xorazm viloyatidagi temir yo'l vokzallari turistik infratuzilmalarini yanada takomillashtirish;

— viloyatdagi mehmonxonalardagi turistik infratuzilmalarning mukammal va sifatli ishlashlari ta'minlash;

— viloyatdagi turistik va ekskursiya obyektlaridagi infratuzilmalarda samarali xizmat ko'rsatadigan kadrlar bilan ta'minlash.

Shu bilan bir qatorda, Xorazm viloyati turizmini rivojlantirishda pochta, telefon, telegraf, aloqa-kommunikatsiyalari o'z o'rniga ega hisoblanadi. Hozirgi kunda Samarqand shahri dunyoning barcha mintaqalari bilan xalqaro so'zlashuv, internet va faks orqali aloqa qilish imkoniyatiga ega. Biroq, Xorazm viloyatida 2015 yil mobaynida barcha transport turlari tomonidan 51,8 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,2 foizga ko'pni tashkil etadi. Hamda yuk aylanmasi barcha transport turlari tomonidan 1343,7 mln. tn.km.ni tashkil qildi va 6,8 foizga ko'paydi (1-jadval):

Jadval 1. **Xorazm viloyatida 2014–2015 yillarda transport vositalarida amalga oshirilgan yuk tashish haqida ma'lumot [3]**

| Ko'rsatkichlar | 2015 yilda | 2014 yilga nisbatan foiz hisobida |
|---|---|---|
| Tashilgan yuk, mln. tn. shu jumladan: | 51,8 | 107,2 |
| avtomobil transportida | 51,8 | 107,2 |
| Yuk aylanmasi, mln. tn.km., shu jumladan: | 1343,7 | 106,8 |
| avtomobil transportida | 1343,7 | 106,8 |

Jadvalga asosan, avtomobil transportida 51,8 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, bu 2014 yilga nisbatan 7,2 foizga ko'paydi hamda yuk aylanmasi 6,8 foizga ko'paydi va 1343,7 mln. tn-km.ni tashkil qildi. Shu bilan birga, xususiy yuk tashuvchilar avtomobil transportining yuk aylanmasi 2014 yildagi darajasidan 6,3 foizga ko'paydi va 1126,5 mln. tn-km. ni tashkil qildi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 83,8 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, 2015 yilda viloyatning transport tarmoqlarida yo'lovchi tashish ishlari ham amadga oshirildi. Bunda transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi quyidagicha ifodalanadi (2-jadval).

Jadval 2. **Xorazm viloyatida 2014–2015 yillarda transport vositalarida amalga oshirilgan yo'lovchi tashishlar haqida ma'lumot [3]**

| Ko'rsatkichlar | 2015 yilga nisbatan | 2014 yilga nisbatan foiz hisobida |
|---|---|---|
| Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln.kishi | 422,5 | 105,7 |
| avtomobil transportida | 421,7 | 105,7 |
| shahar elektr transportida | 0,8 | 97,5 |
| Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km | 4631,7 | 107,3 |
| avtomobil transportida | 4609,0 | 107,3 |
| shahar elektr transportida | 22,7 | 97,6 |

Jadvalga muvofiq, 2015 yil mobaynida barcha transport turlari tomonidan 422,6 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning ushbu davriga nisbatan 5,7 foizga ko'paygan. Hamda yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 7,3 foizga ko'payib, 4631,7 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi.

Darhaqiqat, transport infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan sayyohlik sohasini rivojlantirish dasturi turizm infratuzilmasini rivojlantirish, sayyohlik inshootlarini barpo etish va rekonstruksiya qilish, transport infratuzilmasini taraqqiy ettirish, hududdagi turistik marshrutlar va xizmatlarni takomillashtirish, sayyohlikning yangi yo'nalishlarini, mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqishni qamrab olgani bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shulardan kelib chiqib, Xorazm viloyati turizmi sohasini rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirishning strategik jihatlari va kelgusi istiqbollari viloyat hududlarida kelajak davrda bo'ladigan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi bilan belgilanadi.

Bularni yanada takomillashtirish uchun Xorazm viloyati turizmida transport infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida davlat tashkilotlari bilan xususiy sektor o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash lozim. Shu bilan birga, kelajakda Xorazm viloyati turizmida transport infratuzilmasini takomillashtirishning strategik jihatlari va kelgusi istiqbollarini amalga oshirish uchun transport infratuzilmasini rivojlantirish asosida viloyatda chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Shuningdek, Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasi muhim rol egallaydi. Bu borada turizmda transport tizimini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslarini chuqur egallash talab qilinadi. Jumladan, buning uchun transport sohasining tutgan o'rni, transport infratuzilmasi va uning muhim xususiyatlari hamda transport infratuzilmasini tashkil qilish omillarini hisobga olish lozim.

Ayniqsa, Xorazm viloyati turizmida transport infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishlarga ega bo'lib, istiqbollarini aniqlash transport infratuzilmasini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Bu borada viloyat turizmida transport infratuzilmasining hozirgi ahvolini o'rganish, transport infratuzilmasining o'zgarish tahlili va rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash hamda transport infratuzilmasini takomillashtirishning strategik jihatlari va kelgusi istiqbollari alohida hisobga olinadi.

Ana shulardan kelib chiqib, Xorazm viloyati turizmi sohasida transport infratuzilmasining hozirgi ahvolini transport infratuzilmasi obyektlari tavsiflaydi. Avvalo, turizm infratuzilmasiga hamroh obyektlar, ya'ni infratuzilma holatini yaxshilash quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi:

— hududning turistik salohiyati va kommunikatsiya imkoniyatlarini yaxshilash, shu jumladan veb-sayt yaratish va mehmonxonalarni bron qilishning onlayn tizimini joriy qilish,

— internetga chiqish yo'llarini kengaytirish to'g'risida axborot berish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va foydalanishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

— injenerlik va kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish, Tashqi ishlar vazirligining Urganch shahrida konsullik bo'limini ochish, shuningdek turistik obyektlarni ko'rsatish yo'nalishidagi 21 km. masofadagi yo'llarni qurish va ta'mirlash.

Umuman olganda, Xorazm viloyati turizmini rivojlantirishga qaratilgan turizm infrastrukturasi, ya'ni avtotransport vositalari, mehmonxonalar, restoran va boshqa xizmat turlariga bo'lgan talab yuqori bo'lib, ushbu sohalarga investitsiyalar yo'naltirilishi katta iqtisodiy samara keltiradi. Ushbu xulosalardan kelib chiqib, Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasining rolini oshirish uchun quyidagi takliflarni amaliyotga qo'llash joiz sanaladi:

— turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasi va uni tashkil qilish omillariga alohida e'tibor qaratish;

— viloyat turizm sohasida transport infratuzilmasining o'zgarishini doimiy tahlil qilib borish;

— viloyatda transport infratuzilmasini takomillashtirishning strategiyasini ishlab chiqib, kelgusi istiqbollarini prognoz qilish.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:


1. Mamatqulov X. M. Xizmat ko'rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug'ati. — T.: Iqtisod-moliya. 2010. — 268–269 b.
2. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda turizmning roli. // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. — Samarqand: SamISI, 24–26 noyabr 2010 yil. — 401 b.
3. Xorazm viloyati Statistika boshqarmasining ma'lumotlari.


## Мамлакатимизда мавжуд ишбилармонлик муҳити натижасида ҳалқимиз фаровонлигини ошиб бормокда

Юсупова Ильмира Рашидовна, старший преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)

Мамлакатимиз Биринчи Президенти И. А. Каримов томонидан белгилаб берилган иқтисодий ривожлантириш дастурининг устувор вазифаларидан бири бўлиб бу — ишбилармонлик муҳитини шакллантириш, макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаш, шунингдек хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришга тўлиқ эркинлик бериш, бу борадаги барча тўсиқлар ва чеклашларни бартараф этиш бўйича тегишли чора-тадбирларни амалга ошириш ҳисобланади [1].

Мамлакатимизнинг биринчи Президенти И. А. Каримов ўз маърузаларида қуйидаги кўрсаткичларни таъкидлаб ўтдилар: «Айни пайтда ишлаб чиқарилаётган жами саноат маҳсулотларининг 23 фоизи, кўрсатилаётган бозор хизматларининг деярли барчаси, маҳсулот экспортининг 18 фоизи, иқтисодиёт тармоқларида иш билан банд бўлган аҳолининг 75 фоизи кичик бизнес улушига тўғри келмоқда».

Ҳар қандай тадбирколик маълум бир худудда: мамлакат, вилоят, шаҳар ёки қишлоқ миқёсида олиб борилади. Тадбиркорлик фаолиятини самарали олиб бориш учун маълум бир ички муҳити бўлиши керак. Бундай муҳит айрим ҳудудлар миқёсида мужассамланиб, ўзида ишбилармонлик функцияларини амалга оширишни мужамлаштирган. Умумий ҳолда тадбиркорлик муҳити асосан қуйидаги тўртта омил: ҳуқуқий, сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий омилларнинг ўзаро боғлиқлиги натижасида амалга оширилади. Улар ижобий ёки рағбатлантириш кўринишида ҳам шаклланиши мумкин. Ушбу ҳолда мамлакат ёки минтақада мавжуд шарт-шароитлар тадбиророрлик фаолиятини олиб бориш учун мос бўлади. Чунки бундай муҳит тадбиркорга амалга оширилаётган ишларнинг натижалари қандай бўлишини олдиндан кўра билишга кенг имконият туғдиради.

Ҳуқуқий базанинг тўлиқ ёки бир меъёрда юритилмаслиги тадбиркорлик фаоллиги даражасига салбий таъсир кўрсатади. Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикасида амалиётда тадбиқ қилинаётган иқтисодий ислоҳотларнинг асосини ташкил қилаётган бир бутун ҳуқуқий база мавжуддир.

Сиёсий омил тадбиркорлик жараёнида бўлаётган барча ходисаларга давлатнинг муносабатини ва уларга давлатнинг таъсирини белгилаб беради. Давлатнинг тадбиркорлик фаолиятига қай даражада таъсир кўрсатиши ёки аралашиши кераклиги ҳам сиёсий омил тушунчасига киради. Бундай аралашиш олдиндан белгиланмаган ёки белгиланган бўлиши мумкин.

Ҳар бир мамлакатда тадбиркорликнинг ривожланишига ундаги сиёсий тизимнинг барқарорлиги катта таъсир кўрсатади. Агар сиёсий тизим барқарор бўлмаса тадбиркорлар катта инвестицияларни жалб қилмасдан юқори даражадаги фойда олиш мақсадидида кичик муддатга мўлжалланган турли хилдаги операцияларни амалга оширишга ҳаракат қилишади. Сиёсий аҳволнинг барқарорлиги тадбиркорга ўз фаолиятини стратегик жиҳатдан лойиҳалаштириш, яъни узоқ муддатга мўлжалланган ишларни амалга ошириш ишларини беради.

Мамлакатимизда ишбилармонлик муҳитини яхшилаш борасида олиб борилаётган ишларимиз халқаро иқтисодий ташкилотларнинг рейтингларида ўзининг ижодий ифодасини топмоқда. 2015 йилнинг октябрь ойида Жаҳон банки «Бизнес юритиш» рейтингини эълон қилди. Ана шу рейтингда Ўзбекистон фақат бир йилнинг ўзида 16 поғонага кўтарилиб, 87- ўринни эгаллади. Шуни алоҳида қайд этиш кераккки, «Янги бизнесни қўллаб қувватлаш» деб аталадиган мезон бўйича мамлакатимиз айни пайтда жаҳонда 42-ўринни, тузилган шартномалар ижросини таъминлаш бўйича 32-ўринни иқтисодий ночор корхоналарга нисбатан қўлланиладиган банкротлик тизимининг самарадрлиги бўйича 75-ўринни эгаллаб турибди. «Кичик бизнес субъектларига кредит бериш» деб номланадиган кўрсатгич бўйича Ўзбекистон сўнгги уч йилда 154-ўриндан 42-ўринга кўтарилди ва ўтган йилнинг ўзида рейтингини 63 позицияга яхшилади.

Жаҳон банкининг маърузасида Ўзбекистон кейинги йилларда тадбиркорлик фаолияти учун ишбилармонлик муҳитини яхшилаш соҳасида энг яхши натижаларга эришган дунёдаги ўнта давлат қаторидан жой олгани қайд этилган.

Мамлакатимиз Биринчи Президенти И. А. Каримов таъкидлаганидек: «Бизнинг эътиборимиз марказида туриши керак бўлган энг муҳим масалалардан яна бири — бу Конституциямизга мувофиқ кўп тармоқли иқтисодиётимизнинг устувор соҳалари бўлмиш хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликни тез суръатлар билан ривожлантириш йўлидан барча ғов ва тўсиқларни йўқ қилиш, уларнинг эркинлигини таъминлашдир. Хулоса қилиб айтганда, демократик ва бозор ислоҳотлари йўлидаги изчил ҳаракатларимизнинг мантиқи биздан доимо илгарилаб боришни талаб этаётганини таъкидлаш лозим. Бу борада жаҳон бозорида кескин рақобат кучайиб бораётгани ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда. Чунки бундай вазият Ўзбекистонда хусусий мулк, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни жадал ривожлантириш учун уларнинг йўлидаги, шуни яна таъкидлаш керак, ҳар қандай қаршиликни олиб ташлашни долзарб вазифа қилиб қўймоқда» [2].

Мамлакатимизда сўнгги йилларда иқтисодиётни барқарор суръатларда ривожлантириш, унинг макроиқтисодий мутаносиблигини таъминлаш борасида миқёси ва аҳамияти жиҳатидан улкан ишлар амалга оширилди. Давлатимиз раҳбари томонидан эълон қилинган 2017—2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида ҳам кичик бизнес йўналишини юксак босқичларга кўтаришга алоҳида эътибор берилган.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги «Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик — ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак» номли маърузасида ҳам бизнес юритиш бўйича кўрсаткичларимизни тизимли асосда чуқур ўрганиш, мавжуд камчилик ва нуқсонларни бартараф этишга доир аниқ чора ва таклифлар ишлаб чиқиш, аввало, Иқтисодиёт вазирлиги, Ташқи иқтисодий алоқалар, инвестициялар ва савдо вазирлиги ҳамда бошқа манфаатдор идораларнинг муҳим вазифасига айланиши лозимлигини таъкидлади. [3]

Ўзбекистонда босқичма-босқич олиб борилган иқтисодий ислоҳотлар ҳамда давлат мулкини хусусийлаштириш жараёнларида хусусий мулк устувор бўлган кўп укладли иқтисодиёт шаклланди ва у ҳозирги кунда самарали фаолият кўрсатмоқда. Ана шу иқтисодиётда аҳоли бандлигини таъминлаш ҳамда даромадларини оширишда йирик корхоналар билан бир қаторда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари муҳим роль ўйнамоқда.Шу билан бирга, мамлакатимиз иқтисодиётини барқарор ривожлантиришда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ўрнини янада кенгайтириш учун кичик бизнес корхоналари самарадорлигини ошириб бориш муҳим молиявий-иқтисодий аҳамиятга эга. Маълумки, юқори даромад (фойда) даражасига эга бўлган корхоналар ўзини ўзи инвестиция билан таъминлашда бозорда рақобат устунлигига эга бўлади ва бу ишлаб чиқариш (хизмат кўрсатиш) салоҳиятини кенгайтиришга ташқи инвестицияларни кўпроқ жалб этишда ҳам устунлик беради.

Кичик корхоналарнинг фойда даражаси нафақат махсулот сифати ва унинг бозор баҳосига, балки бир бирлик махсулотни ишлаб чиқариш ва уни сотишга қилинаётган харажатларни камайтириб боришга ҳам боғлиқдир. Ўзгариб борувчи бозор иқтисодиётида бундай мураккаб муаммони самарали ечимини топиш корхонада яқин, ўрта ва узоқ даврларга мўлжалланган, ҳар тарафлама чуқур асосланган бозор стратегиясига эга бўлишни тақозо қи-

лади. Бундай бозор стратегияси хусусий бизнесни амалга ошириш ғояси пайдо бўлиши, ривожланишини бошланиши, иқтисодий ўсиши ва етукликка эришиши босқичларини ўз ичига олган бўлиши керак. Хусусий бизнес юритишнинг ушбу қоидасига амалда бефарқ бўлиш ёки юзаки ёндашиш корхона ўз фаолиятининг дастлабки босқичидаёқ ёки кейинчалик молиявий инқирозга учрашига сабаб бўлади.

Албатта кичик корхона учун бозор стратегиясини ишлаб чиқиш, унинг мулкдори иштирокида махсус консалтинг марказлари ёрдамида кенг маркетинг тадқиқотларига таянган ҳолда амалга оширилиши лозим. Аммо ҳамма кичик корхоналарни ҳам дастлаб бундай вазифани бажаришга маблағлари етарли бўлмайди. Шу боисдан янги ташкил этиладиган корхона мулкдори дастлаб ўз ғояси ва билимига таянган ҳолда иш кўради. Кейинчалик тажриба, ахборотлар базаси стратегияни чуқурроқ асослашга имкон яратади.

Шундай қилиб, таъкидлаш мумкинки, кичик бизнес вакиллари ўз корхонасини пайдо бўлиш (рўйхатдан расмий равишда ўтиши) ва ривожланиш жараёнида ишлаб чиқаришга қилинадиган харажатлардан ташқари, бозор стратегиясини асослаш ва уни маркетинг тадқиқотини ўтказиш билан боғлиқ харажатларни қилишга ҳам мажбур бўладилар.

Таҳлилларнинг кўрсатишича, тадбиркорлар маҳсулотларини сотиш, ўз ишлаб чиқариши учун ресурслар сотиб олиш, мулк ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, маркетинг ахборотларига эга бўлиш ва шу каби бошқа мақсадлар учун сарф қилинаётган бозор харажатлари ошиб бориш тенденциясига эга. Ушбу харажатларни пасайтириш йўлларини қидириб топиш, кичик бизнесни ривожланиши ва фаолият юритишига кўмаклашувчи асосий омиллардан ҳисобланади.

Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида қонун устуворлигини таъминлаш фуқароларнинг ислоҳотларимизга бўлган ишончини мустаҳкамлаб, унинг ҳаётийлигини кўрсатмоқда. Шунинг учун ислоҳотларни амалга оширишнинг бугунги босқичида иқтисодий қонунларга амал қилувчи тадбиркорлик субъектларини рағбатлантириш йўлларидан бири сифатида солиқ юкини камайтириш, солиқларни унификация қилиш тадбирларини мисол қилиб келтириш мумкин.

Юртимизда тадбиркорликни қўллаб-қувватлашга қаратилган Фармон ва Қарорлар ҳамда давлат бюджет сиёсатини белгилашга оид қабул қилинган меъёрий ҳужжатлар асосида ҳисоб ва ҳисобот тизими ҳам такомиллашиб борди. Хўжалик юритувчи субъект фаолияти натижалари ҳисоб тизимининг дастлабки ҳужжатлар маълумотлари асосида шаклланадиган статистик, молиявий ва солиқ ҳисоботлари, шунингдек, солиқ тўловчи юридик ва жисмоний шахсларнинг солиқ ҳамда бошқа мажбурий тўловларга оид мажбуриятларини бажариш билан боғлиқ ахборотлардан иборат бўлади. Ушбу ахборотларнинг жамланиши нафақат давлат солиқ назорати сифатини оширишга, балки ахборотлардан ички ва ташқи фойдаланувчиларни маълумотлар билан таъминлаш учун ҳам хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:


1. Каримов И. А. «2015 йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг йўл очиб бериш — устувор вазифамиздир». — Тошкент.: «Халқ сўзи» газетаси, 2015, 18 январь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 22 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси: «Biznes Daily «Биржа» 2014 йил, 6 декабрь. (141–142-сон).
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси.
4. Lex.uz Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари миллий базаси.
5. http://www.stat.uz — Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий сайти.


## Детско-юношеский туризм как средство патриотического воспитания

Юсупова Ильмира Рашидовна, старший преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)

Стратегией действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017–2021 годах в развитии социальной сферы предусмотрено совершенствование государственной молодежной политики: воспитание физически здоровой, духовно и интеллектуально развитой, самостоятельно мыслящей, преданной Родине молодежи с твердыми жизненными взглядами, повышение его социальной активности в процессе углу-

бления демократических реформ и развития гражданского общества [1].

Детский и юношеский туризм — средство гармоничного развития детей (лиц, не достигших возраста 14 лет), девушек и юношей (лиц, не достигших возраста 18 лет), реализуемое в форме отдыха и общественно-полезной деятельности, характерными структурными компонентами которого являются поход, путешествие, экскурсия. Туристские походы и туристские экскурсии с детьми занимали значительное место в практике многих педагогов. Детский и юношеский туризм является эффективным средством воспитания, обучения, оздоровления, профессиональной ориентации, социальной адаптации учащихся, утверждения здорового образа жизни, эффективной системы непрерывного образования и развития личности детей и юношества. Одним из средств патриотического воспитания является туристско-краеведческая деятельность. Воспитательная роль данной деятельности базируется на воспитании патриотического сознания. В решении этой задачи большое значение принадлежит туристско-краеведческой деятельности, так как участие в спортивных мероприятиях, ознакомление с природой края, народным творчеством, традициями своего народа не только развивает физические и эстетические качества людей, но и их духовно-нравственную направленность, что позволяет решить задачу социального характера — сохранение, поддержание и возрождение в сельских поселениях культурного наследия (традиций, обрядов, ремесел, памятников природы, истории, религии и культуры).

На основе анализа психолого-педагогических источников определена система принципов и методов патриотического воспитания учащихся в туристско-краеведческой деятельности. Принципы патриотического воспитания: народности; активности; паритетности интересов личности и государства; учёта особенностей развития личности; единства познания, переживания и действия. [2] В качестве метода патриотического воспитания учащихся важна организация туристских мероприятий в национальные парки, которые входят в особо охраняемые природные территории (ООПТ), так как они относятся к объектам общенационального достояния и представляют собой участки земли, водной поверхности и воздушного пространства над ними, где располагаются природные комплексы и объекты, которые имеют особое природоохранное научное, культурное, эстетическое, рекреационное и оздоровительное значение.

Методы патриотического воспитания: игры, проекты, дискуссии, методы коллективных творческих дел, воспитывающих ситуаций.

Для проведения туристских мероприятий в регионах Узбекистана необходимо учреждениям образования развернуть государственно-общественную систему подготовки, переподготовки и повышения квалификации кадров для детско-юношеского спортивного туризма, а именно:

— инструкторов детско-юношеского туризма;
— инструкторов-методистов туризма;
— судей спортивных туристских соревнований;
— младших инструкторов туризма (школьники, до 18 лет) и юные судьи (до 16 лет).

Также важно в учреждениях образования организовать секции, кружки по спортивному туризму для детей и юношества. Для занятий туризмом и краеведением с детьми (туристско-краеведческая деятельность) сформировать в дополнительном (внешкольном) образовании детей отдельное направление, являющееся комплексным средством развития подрастающего поколения.

Немаловажную роль в патриотическом воспитании имеет развитие системы детско-юношеского туризма. Элементы системы детско-юношеского туризма: детский спортивно-оздоровительный туризм (слёты и соревнования, походы и экспедиции, подготовка общественного актива для клубной работы и проведения лагерей); музейная педагогика; краеведческая работа, в том числе природоохранная, экологическая; экскурсионная работа; лагерное дело (туристские палаточные лагеря, каникулярные познавательные и оздоровительные программы). Сочетание этих элементов на местах, в учреждениях, в общественных организациях даёт своё неповторимое качество и содержание туристской работы с обучающимися.

Литература:


1. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Узбекистана в 2017—2021 годах. 07.02.2017 г.
2. А. А. Остапец. Педагогика и психология туристско-краеведческой деятельности учащихся: Методические рекомендации. — М., РМАТ, 2001. — 87 с.
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/

# Мамлакатимиз иқтисодиётини ривожлантиришда солиқ сиёсатининг роли

Юсупова Ильмира Рашидовна
Урганч давлат университети (Ўзбекистон)

Юсупова Ильмира Рашидовна, старший преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)

Бугунги кунда республикамиз солиқ сиёсатининг муҳим йўналишлари сифатида юридик ва жисмоний шахслар даромадларини солиққа тортишни такомиллаштириш, билвосита солиққа тортиш самарадорлигини таъминлаш, ресурс солиқларига кўпроқ эътибор қаратиш, солиқ тизимининг соддалигига эришиш, давлат харажатларини оптималлаштириш кабиларни қайд этиш мумкин.

Бозор иқтисодиёти шароитида солиқ ислоҳотларини самарали юритиш мақсадида солиқлар воситасида таъсир этиш, улар бўйича имтиёзларни қўллаш, иқтисодиётнинг турли соҳаларини бир текис ривожланишини таъминлаш билан боғлиқ тадбирлар амалга оширилади. Давлат солиқ имтиёзларини қўллаш орқали иқтисодиётнинг турли соҳаларига турлича таъсир кўрсатади, яъни айрим рентабелли ва норентабелли соҳалар ўртасидаги мувозанатни таъминлаш муаммоси юзага келади.

Қайд этиш жоизки, солиқ имтиёзлари хусусида турли хил фикрлар мавжуд. Солиқ имтиёзларининг моҳиятини тўлароқ англаб етиш учун аввало ана шу турли хил фикрларни келтириш мақсадга мувофиқ.

Қ. Яҳёев фикрига кўра «Солиқ тўловчиларни солиқдан озод этиш, улар тўлайдиган солиқ миқдорини (солиқ базасини) камайтириш ёки солиқ тўлаш шартини енгиллаштириш солиқ имтиёзидир» [1]. Шунингдек, ушбу иқтисодчининг таъкидлашича солиқ имтиёзи деган термин ўрнига солиқ енгиллиги термини бу жараённинг моҳиятини очиб беради. Ш. Гатаулин солиқ имтиёзларига қуйидагича таъриф беради: «Солиқ имтиёзлари амалдаги қонунларга мувофиқ равишда солиқлардан тўлиқ ёки қисман озод қилишдир (скидкалар, чегириб ташлашлар ва ҳоказо)» [2].

Т. Маликовнинг таъкидлашича солиқ имтиёзлари деганда солиқ тўловчининг солиқ мажбуриятлари ҳажмининг тўлиқ ёки қисман қисқариши, тўлов муддатининг кечиктирилиши ёки орқага сурилиши тушунилади.

Республикамизда солиқ тизимини такомиллаштириш жараёнида хўжалик юритувчи субъектларга нисбатан солиқ юкини изчил камайтиришга алоҳида эътибор қаратиш лозимлиги кўп бора таъкидланмоқда. Бунда биринчи навбатда уларнинг даромадларидан ундириладиган бевосита солиқларнинг салмоғини камайтириш лозимлиги алоҳида аҳамиятга эга. Бунинг натижасида корхоналар ихтиёрида қоладиган маблағлар улушининг кўпайиши эвазига унинг айланма маблағлари миқдорини кўпайтириб бориш ва оптимал даражасини сақлаш, ишлаб чиқаришни замонавийлаштириш, унинг самарадорлигини ошириш мақсадида кўпроқ инвестиция киритиш, ходимлар меҳнатини янада рағбатлантириш имконини беради.

Жисмоний шахслар даромадларини солиққа тортилишини такомиллаштириш бўйича устувор йўналиш сифатида белгиланган солиқ ставкаларини камайтириш ва аҳоли даромадларини солиққа тортишнинг уч босқичли тизимидан икки босқичли тизимига аста — секин ўтиш концепциясини давом эттириш вазифаси турибди.

Бевосита солиқлар бўйича солиқ юкини изчил камайтириш солиқ сиёсатининг самарадорлигини ЯИМ га нисбатан улар тушумининг барқарор камайиши тенденцияси ҳам исботлайди. Солиқ тизимини такомиллаштиришда устувор аҳамият билвосита солиққа тортишга қаратилган. Билвосита солиқлар товарларга нисбатан қўшимча бўлгани ҳолда, пировард натижада ишлаб чиқарувчининг молиявий ҳолатига тўғридан-тўғри таъсир кўрсатмайди ҳамда ишлаб чиқаришни ривожлантиришга тўсқинлик қилмайди.

Ресурс солиқлари ер, сув ва бошқа табиий бойликлардан самарали фойдаланишни таъминловчи амалий восита бўлгани ҳолда бозор иқтисодиётида табиий ресурслардан фойдаланиш ва келажак авлодлар учун сақлаш борасида муҳим роль ўйнайди.

Солиққа тортиш тизимини такомиллаштиришнинг муҳим йўналишларидан бири солиқ тизимини тартибга солиш, солиқ турларини камайтириш, ҳисоб-китоб механизмини соддалаштириш ва улар бўйича тўлов даврийлигини камайтириш ҳисобланади.

Солиқ сиёсатини ишлаб чиқишда давлатнинг роли ижтимоий соҳаларни ривожлантиришни ҳисобга олган ҳолда солиққа тортиш тизимини такомиллаштиришнинг муҳим йўналишлари билан солиқ сиёсатининг асосий йўналишлари ўзаро боғлиқлигини таъминлаш лозим. Солиқ сиёсатининг асосий йўналишларини ишлаб чиқишда бир қатор таъсир этувчи мезонларни ҳисобга олган ҳолда ташкил этиш ва бу йўналишларни аниқловчи муҳим омилли кўрсаткичларни ўрганиш ҳамда унинг ўзига хос хусусиятларини тартиблаш муаммоси бугунги кундаги долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда.

Ўзбекистон солиқ тизимида соддалаштирилган (ихчамлаштирилган) солиқ тизимига ўтган юридик ва жисмоний шахслар ҳам мавжуд бўлиб, улар қуйидаги солиқларни тўлайдилар:

1) Микрофирмалар ва кичик корхоналар учун ягона солиқ тўлови тўланишини назарда тутувчи солиқ солиш тизими қўлланилиши мумкин. Акциз солиғи тўланадиган маҳсулот ишлаб чиқараётган, шунингдек фойдали қазилмаларни қазиб олишни амалга ошираётган микрофирмалар ва кичик корхоналар Солиқ кодексида (350-модда) белгиланган тартибда акциз солиғи ва ер қаъридан фойда-

ланувчилар учун солиқлар ва махсус тўловлар тўлаганлари тақдирда ягона солиқ тўлови уларга татбиқ этилмайди. Ягона солиқ тўлови тўловчиларда импорт қилинадиган товарлар бўйича акциз солиғини ва қўшилган қиймат солиғини тўлаш мажбурияти ҳам сақланиб қолади.

2) Савдо ва умумий овқатланиш корхоналари фойда солиғи, қўшилган қиймат солиғи (товарларни (ишларни, хизматларни) импорт қилиш бундан мустасно), сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ, ер қаъридан фойдаланувчилар учун солиқлар ва махсус тўловлар, ер солиғи, ободонлаштириш ва ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш солиғи, бошқа маҳаллий солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар (мол-мулк солиғи, айрим турдаги товарлар билан чакана савдо қилиш ва айрим турдаги хизматларни кўрсатиш ҳуқуқи учун йиғим бундан мустасно) ўрнига бюджетга 2007 йил 1 январга қадар ялпи даромад солиғи тўлар эдилар. 2007 йил 1 январдан бошлаб эса савдо ва умумий овқатланиш корхоналари ялпи даромад ва мол-мулк солиқларнинг ўрнига солиқ солишнинг бошқа тизимини танлаш ҳуқуқисиз ягона солиқ тўловини тўлаш режимига ўтказилди.

3) Қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари акциз солиғини ва товарларни (ишларни, хизматларни) импорт қилганлик учун қўшилган қиймат солиғини истисно этганда, амалдаги барча умумдавлат ва маҳаллий солиқлар ҳамда йиғимлар ўрнига ўзи етиштирадиган қишлоқ хўжалиги маҳсулотини ишлаб чиқариш ва қайта ишлаш бўйича ягона ер солиғини тўлайдилар. Ягона ер солиғини тўлаш тартиби ва ставкалари ҳар йили Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори асосида белгиланади.

4) Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тадбиркорлик фаолиятининг айрим турлари бўйича солиқ солишнинг ўзи белгилаган ставкалар бўйича солиқнинг қатъий белгиланган суммасини тўлашни назарда тутувчи алоҳида тартибини белгилаши мумкин.

5) Қончилик саноати тармоқларининг айрим корхоналари учун қўшимча фойда солиғи тўланишини назарда тутадиган фойданинг бир қисмига солиқ солишнинг алоҳида тартиби жорий этилиши мумкин. Қўшимча фойда солиғи тўловчилар, уни тўлаш тартиби ва солиқ ставкалари Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси ҳамда Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

6) Лотереялар, тотализаторлар ва бошқа таваккалчиликка асосланган ўйинларни ташкил этиш бўйича фаолиятни амалга оширувчи юридик шахслар фойда солиғи, мол-мулк солиғи, ер солиғи, ободонлаштириш ва ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш солиғи, сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ ўрнига ялпи тушумдан ягона солиқ тўловини тўлайдилар. Ялпи тушумдан ягона солиқ тўлови ставкалари Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори асосида белгиланади. [3]

Президентимизнинг 2017 йил 18 январдаги «2017–2021 йилларда Оролбўйи минтақасини ривожлантириш Давлат дастур тўғрисида» ги ПҚ-2731-сонли қарорида Оролбўйи минтақаси аҳолисининг турмуш шароитлари ва сифатини яхшилашга ва тадбиркорлик муҳитини янада яхшилаш, кенга имкониятлар яратиш мақсадида қуйидаги имтиёзлар белгилаб берилди:

— Қорақалпоғистон Республикасининг Мўйноқ, Шуманай, Қонликўл, Тахтакўпир, Чимбой туманларида, Хоразм вилоятининг Янгиариқ ва Қўшкўпир туманларида — 2027 йилнинг 1 январига қадар;

— Қорақалпоғистон Республикаси ва Хоразм вилоятининг қолган туманларида 2022 йилнинг 1 январига қадар муддатга ягона солиқ тўловини тўлашдан озод қилинсин.

Хулоса ўрнида шуни айтиш керакки мамлакатимизда тадбиркорлик муҳитини яхшилаш учун барча имкониятлар яратилиб келинмоқда. Шу имкониятлардан оқилона фойдаланиш орқали Ўзбекистон Республикасини энг тараққий этган мамлакатлар қаторига қўшиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Яҳёев Қ. Солиқ. Т.: «Меҳнат», 1997 й. 20-бет.
2. Гатаулин Ш. Солиқлар ва солиққа тортиш. Т.: 1996 й. 74-бет.
3. Солиқлар ва солиққа тортиш: Дарслик / Ҳаммуал.: А.Ваҳобов, А.Жўраев. — Т.: «Шарқ» нашриёти — 2009. — 50 бет.

# Формирование экономического мышления у студентов бакалавриата филологического направления

Юсупова Ильмира Рашидовна, старший преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)

В современном мире в условиях рыночной экономики необходимо сформировать у студентов экономическое мышление, т. е. взгляды и представления, порожденные практическим опытом людей, их участием в экономической деятельности, связями, в которые они вступают в повседневной жизни. Для студентов, получающих образование по филологическому направлению, введен обязательный курс экономической теории. При прохождении курса студенты очень часто встречаются с множеством непонятных и недоступных экономических терминов, которые формируют у студента недоступность понимания данного курса. «Филология» переводится как «любовь к слову». В процессе изучения экономической теории для студентов филологических направлений удобней объяснять все экономические процессы на примере изучения происхождения ключевых слов по изучаемой теме. Например: термин «Экономия» (от греческих слов «йокос» — дом, хозяйство и «номос» — учение, закон) впервые был введен в научный оборот Аристотелем, изучавшим рабовладельческие хозяйства. В настоящее время этот термин получил широкое распространение, но уже в несколько измененном виде. Сегодня под экономией обычно понимают сокращение затрат, бережливость при расходовании каких-либо ресурсов. Производным от греческого слова oikonomia — искусство ведения домашнего хозяйства — явился термин «экономика», который в современных условиях используется в различных значениях. [1]

**Филология** переводится как «любовь к слову» и относится к таким дисциплинам как: лингвистика, литературоведение, и текстология. Филологическая дисциплина занимается изучением культуры посредством текста.

Экономисты употребляют такие понятия, как «законы», «принципы», «теории» и «модели». Изучающие экономику иногда путаются а этих терминах, но по существу все они означают одно и то же, а именно, обобщение или констатацию закономерностей в экономическом поведении индивидуумов и институтов. Термины «экономические законы» и «принципы» являются полезными, но иногда вносят путаницу, так как они подразумевают большую степень точности, универсальность применения и даже нравственную справедливость, что является редкостью в общественных науках. В экономике часто используется и слово «теория», несмотря на то, что многие люди ошибочно полагают, что теория не имеет ничего общего с действительностью. [2]

Студенту-филологу эти понятия более понятны по происхождению: **Экономические законы** — устойчивые, существенные причинно-следственные, *повторяющиеся взаимосвязи* между экономическими явлениями и процессами. Иначе говоря, экономические законы — это проявление устойчивых отношений между людьми, складывающихся в процессе производства, распределения, обмена и потребления, которые в то же время проявляются как интересы. **Принцип** — основное, *исходное положение* какой-нибудь теории, учения, мировоззрения, теоретической программы. [3] **Экономические принципы** — это сущностная характеристика той или иной экономической системы, основные *начала взаимоотношений между людьми*, определяющие их поведение в процессе производства, распределения, обмена и потребления благ. По мнению проф. Кэмпбелл Р. Макконнелл, проф. Стенли Л. Брю эти термины можно использовать как синонимы. Принципы, в отличие от экономических законов, объективно в природе не существуют. Они специально создаются в процессе систематизации экономических знаний и выступают в виде определенных постулатов, которые можно рассматривать как форму реализации, использования экономических законов. Принципы носят менее устойчивый и менее обязательный характер, чем законы. А значит принципы лежат в основе законов. Термин **«Производство»** в словаре Ожегова, широко используемом студентами-филологами, — это общественный *процесс создания* материальных благ, охватывающий как производительные силы общества, так и производственные отношения людей. Товарное производство — изготовление, выработка, *создание* какой-нибудь продукции. Производство — это *процесс создания* материальных и духовных благ, необходимых для существования и развития человека. [4] Термин **«Процесс»** в этом же словаре — это *ход, развитие* какого-нибудь явления, последовательная смена состояний в развитии чего-нибудь. Исходя из этого, соединим ключевые слова в каждом определении и получим, что «Производство» — это процесс (ход, развитие) создания материальных и духовных благ. И это определение будет гораздо доступней для студента.

Литература:

1. акад., В. И. Видяпин, акад. Г. П. Журавлева, акад. С. С. Гулямов, акад. М. Ш. Шарифходжаев, акад. К. Х. Абдурахманов. Экономическая теория. Учебник. 1999 г. — с. 9. 614 стр.
2. проф. Кэмпбелл Р. Макконнелл, проф. Стенли Л. Брю. Экономикс (Принципы, проблемы и политика). Учебник. Четырнадцатое издание. с. 8, с. 925.

3. Толковый словарь Ожегова.
4. акад., В. И. Видяпин, акад. Г. П. Журавлева, акад. С. С. Гулямов, акад. М. Ш. Шарифходжаев, акад. Қ. Х. Абдурахманов. Экономическая теория. Учебник. 1999 г. — с. 42, 614 стр.
5. https://ru.wikipedia.org/
6. http://enc-dic.com
7. http://studopedia.su
8. http://gufo.me
9. http://vargin.ru
10. http://libfree.com


## Суғурта бозорининг Ўзбекистон Республикаси молия тизимидаги ўрни ва роли


Якубов Азизбек Ганибекович, преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)



*Ушбу мақолада суғурта бозорининг мамлакатимиз молия тизимидаги ўрни ва ролини мустаҳкамлашга оид баъзи долзарб масалалар ёритилган.*

*В данной статье освещены некоторые актуальные вопросы, касающиеся укрепления роли рынка страхования в финансовой системе страны.*

*This article describes the position of insurance market in financial system and focuses on some problems belong to strengthening its role.*


Бутун бизнинг ҳаётимиз тасодифий ҳодисаларга бой ва бу ҳодисалар ҳар доим ҳам тотли бўлавермайди. Кўпчилик ҳодисалар соғлиққа, мол-мулкка, инсониятнинг яшаш турмушига, корхоналарнинг молиявий ҳолатига зарар келтириши ѐки кўзда тутилган режаларни ўзгартириб юбориши мумкин. Бундай содир бўлиши мумкин бўлган ҳодисалар «қалтисликлар» номи билан боғлиқ. Кўзда тутилмаган қалтисликнинг содир бўлиши билан, табиийки унинг зарарларини қоплаш ва олдини олиш заруряти юзага келади. Бусиз ишлаб чиқариш жараѐнларини тўхтовсизлигини таъминлаб, ҳаѐт учун салбий таъсирини камайтириб бўлмайди.

Қалтисликларнинг инсонлар ҳаѐти учун салбий таъсирини камайтириш бу «суғурта» орқали амалга оширилади, бунда содир бўлган салбий ҳодисалар оқибатларини бартараф этишга кетган харажатларни бир нечта хўжалик юритувчи молиявий субъектлар ўртасида тақсимлаш тушунилади.

Суғуртанинг молиявий бозор муносабатлари тизимидаги асосий тушунчалари моҳиятини англамасдан туриб суғурта секторининг муаммоларини аниқлаш ва ҳал этиш масаласига нисбатан оқилона ѐндашиб бўлмайди. Шулардан энг муҳимлари жумласига, қуйидаги асосий тушунчалар киради: суғурта, суғурта фаолияти, суғурта таваккалчилиги (суғурта хавфи) [1], суғурта бозори, суғурта бозорининг профессионал иштирокчилари. Ушбу тушунчалар, одатда, суғурта фаолиятини тушунишга йул очиб беради. Уларнинг талқини эса суғурта ташкилотларининг фаолиятини тартибга солувчи тегишли меъѐрий-ҳуқуқий хужжатларда ўз аксини топган. Масалан, Ўзбекистон Республикасининг «Суғурта фаолияти тўғрисида» ги Қонунига мувофиқ «Суғурта деганда юридик ѐки жисмоний шахслар тўлайдиган суғурта мукофотларидан шакллантириладиган пул фондлари ҳисобидан мўайян воқеа юз берганда ушбу шахсларга суғурта шартномасига мувофиқ суғурта товонини тўлаш йўли билан уларнинг манфаатларини ҳимоя қилиш тушунилади». «Суғурта фаолияти деганда суғурта бозори профессионал иштирокчиларининг суғуртани амалга ошириш билан боғлиқ фаолияти»4 ни англатади. Суғурта таваккалчилиги (суғурта хавфи) тушунчаси— содир булиши ва зарар миқдори тасодифий булган ҳодисаларни англатади. «Суғурта бозори — суғурта ҳимоя (суғурта хизмати) олди-соттиси амалга ошириладиган ва унга талаб ва таклиф шаклланадиган иқтисодий пуллик муносабатларни айрим соҳасидир». Ҳамда шу қонуннинг 5-моддасида «Суғурта бозорининг профессионал иштирокчилари суғурта фаолиятининг субъектлари ҳисобланади. Суғурталовчилар, суғурта воситачилари, аджастерлар, актуарийлар, суғурта сюрвейерлари, шунингдек ассистанс суғурта бозорининг профессионал штирокчиларидир. Суғурта брокери, қайта суғурта брокери ва суғурта агенти суғурта воситачилари ҳисобланадилар» деб қайд этилган.

Кўриб ўтганимиз, суғурта ва суғурта билан боғлиқ тушунчаларнинг ҳуқуқий таърифларидир. Ушбу тушунчанинг мазмунини аниқлаш учун эса суғуртанинг келиб чиқиш сабабларини кўриб чиқамиз. Улар жамият ва унинг субъектлари учун маълум миқдорда зарар келтириши мумкин бўлган табиий, ижтимоий, хусусий, иқтисодий қалтисликларнинг мавжуд бўлиши каби жамият фаолияти объектив шароитларнинг таъсирига ва давлатнинг ижтимоий вазифаларига боғлиқ. Демак, суғурта муносабатлари вужудга келиши учун суғуртага нисбатан эхтиѐж бўлиши керак. Ушбу эхтиѐж, бир томондан, ўз фаолиятидаги (иқтисодий фаолиятидаги ҳам) қалтисликларни камайтиришга интиладиган субъект — фуқаролар, уй хўжаликлари ѐки тадбиркорлар (суғурта қилдирувчилар) да ва иккинчи томондан, бундай қалтисликларни камайтириш имконини берувчи тузилмалар (аниқ суғурта воситалари орқали) — ихтисослаштирилган хўжалик юритувчи субъектлар (суғурта ташкилотлари) да юзага келади. Шундай қилиб, суғурта — бу авваламбор, қалтислик ва уни барқарорлаштириш борасида суғурталовчи билан суғурта қилдирувчи ўртасида юзага келадиган муносабатдир.

Иқтисодий тараққий этган давлатларда суғурта кундалик ҳаѐтнинг ажралмас бир қисмига айланганлигини алоҳида қайд этиш лозим. Бугунги кунда АҚШ, Япония ва Европа Иттифоқи давлатларида кўпчилик Фуқаролар фақат ўз ҳаѐтларинигина эмас, балки бутун мол-мулкини, фарзандларининг ҳаѐтини тўлиқ суғурталагани айни ҳақиқатдир. Улар суғуртани «тинч ҳаѐт кечириш учун тўлов» деб талқин этадилар. Бу ўринда мазкур давлатларда суғурта муносабатлари бир неча ўн ва ҳатто юз йиллардан бери ривожланиб келаѐтганига эътиборни қаратиш лозим. Суғуртанинг моҳияти Ўзбекистонда мустақиллик йилларида янгича мазмун касб этди. Истиқлол йиллари суғуртанинг янада ривожланиши учун шундай қулай шароитлар яратилдики, бунинг натижаси ўлароқ, суғурта бозори кескин суръатларда ривожланмоқда. Агар собиқ иттифоқ даврида мамлакат ичкарисидаги барча суғурта ишлари фақат «Госстрах» деб аталмиш давлат суғурта органлари томонидан амалга оширилган бўлса, бугунги кунда суғурта бозорида турли мулкчилик шаклидаги 34 га яқин суғурта ташкилоти томонидан 200 дан ортиқ суғурта хизмат турлари кўрсатилмоқда ва ушбу ҳолат суғурта бозорининг мамлакат иқтисодиѐтидаги салмоғини орттирмоқда. Суғурта ташкилотларининг сонининг ортиб бориши суғурта қилдирувчиларга танлаш имконини беради, ўзаро рақобат муҳитини шакллантиради ва иқтисодиѐтнинг ўсишига салмоқли таъсир кўрсатиш имконини беради. Суғурта бозорининг тез суръатларда ўсиши молиявий тизимнинг ривожланиши ва жамиятнинг ривожланишга қараб илдамлашида муҳим аҳамият касб этади. Суғурта бозори худудий жиҳатдан миллий, минтақавий ва жаҳон суғурта бозори кўринишида шаклланади. Миллий суғурта бозорининг асосини давлат ичида ташкил этилган суғурта ташкилотлари ташкил этади. Ушбу бозорга таъсир кўрсатувчи омилларни ташқи ва ички омилларга бўлиш мумкин. Ташқи омилларга давлатнинг иқтисодий ва суғурта сиѐсати, ушбу мамлакатга чегарадош давлатлар ва жаҳондаги иқтисодий ҳолат, суғурта бозорларининг таъсири, молиявий инфляция, валюта курсининг ўзгариши кабиларни киритиш мумкин. Ички омиллар сифатида бозор инфратузилмасининг шаклланганлик ҳолати, ташкилотларнинг капитализация даражаси, малакали кадрлар билан таъминланганлиги, потенциал суғурталанувчиларнинг демографик ҳолатини келтириш мумкин.

Молиявий тизимнинг моҳияти бир томондан молиявий заҳираларнинг ҳаракатини тақсимлаш ва қайта тақсимлашда кўринади, бошқа томондан эса давлатнинг табиатига боғлиқ, яъни давлатнинг аҳоли олдидаги ўз функцияларини бажариши учун солиқ ва солиқ бўлмаган кўринишдаги мажбурий молиявий ресурсларни йиғишда ўз аксини топади. Шундай қилиб молиявий тизим — молиявий заҳиралар фондларининг турли кўринишдаги йиғиндиси бўлиб, бунда давлатнинг тасарруфида бўлган, иқтисодиѐтнинг нотижорат сектори, алоҳида молиявий институтлар ва аҳолининг зиммасига тушадиган вазифаларни бажариши, иқтисодий ва ижтимоий эхтиѐжларни қондириши учун мўлжалланган молиявий ресурслар фондларидир.

Давлатнинг молиявий тизими ташкилий тузилмасини молияни бошқариш тизими билан боғлиқ молиявий ташкилотларнинг ва институтларнинг йиғиндиси ташкил этади. Молиявий фаолият билан боғлиқ бошқарувни давлат бошқарув органлари ва ҳокимиятлар амалга оширадилар.

Молиявий тизимнинг ҳар бир аъзоси такрор ишлаб чиқариш жараѐнининг турли босқич ва даврида ўз таъсирини ўтказади. Давлатнинг тасарруфида бўлган пул фондларининг марказлашган тизимини англатувчи «давлат молияси» мамлакатнинг ишлаб чиқариш салоҳиятини оширишда ва ижтимоий ривожланишида катта аҳамият касб этади. Давлатмонетар сиѐсат, инфляция даражаси, умумишлаб чиқаришнинг асосий тақсимоти, молиявий ресурсларнинг иқтисодиѐт, худуд, соҳалараро тақсимоти, шунингдек, мамлакатдаги иқтисодий, инвестицион, ижтимоий жараѐнларнинг параметрларига ўз таъсирини ўтказади. Шу билан бир қаторда, бюджетдан ташқари фондлар орқали амалга ошириладиган ижтимоий суғурта аҳолининг ногиронлик, нафақа, меҳнатга лаѐқатлилиги билан боғлиқ шахсий манфаатларининг ҳимоясини амалга оширади. Давлат кредити суғурта тизимига ўз таъсирини, суғурта ташкилотларидан қарз олиш ѐки аксинча қарз бериш билан ўтказади. Давлат, суғурта ташкилотларининг молиявий барқарорлигига кафил бўлиб хам чиқиши мумкин.

Ташкилот, корхоналар молияси бирламчи фойда ва жамғармаларни акллантириши орқали такрор ишлаб чиқариш жараѐнида бевосита иштирок этади. Кўпгина ашкилотларда такрор ишлаб чиқаришни кенгайтириш жараѐни фақатгина ўз маблағлари эмас, банклар кредити, суғурта ташкилотларининг бўш маблағлари, қимматли қоғозлар бозорида молиявий ресурсларни жалб қилиш

орқали билан ҳам амалга оширилади. Шу билан бир қаторда, тижорат ташкилотлари, ижтимоий ташкилотлар ва жамғармалар транспорт воситалари, мол-мулки, молиявий ва техник қалтисликлари суғурталаниши бу ташкилотларнинг узлуксиз ва иқтисодий жараѐнларининг барқарор ривожланишининг муҳим омили бўлиб ҳисобланади.

Шундай қилиб, суғурта — такрор ишлаб чиқариш жараѐнининг микро ва макродаражаларида тартибга солиб турувчи, молиявий тизимнинг муҳим таркибий қисмидир. У аҳоли фаровонлиги, бизнес ҳимояси ва ишлаб чиқаришнинг тўхтовсизлигини таъминловчи асосий восита бўлиб хизмат қилади.

Бозор иқтисодиѐти шароитида давлат томонидан суғурта тизимини бошқариш ва тартибга солиш объектив зарурият ҳисобланади. Суғурта бозорида гоҳида суғурта ташкилотлари рақобатни чегаралаш мақсадида ҳамкорликда иш олиб боришлари ва бошқа суғурта ташкилотларининг бозорда фаолият кўрсатишларига қарши чоралар кўришлари, тарифларни сунъий равишда оширишга ҳаракат қилишлари, суғурта шартномалари шартларини бажариш билан боғлиқ суғурта қилдирувчилар ҳуқуқларининг поймол бўлишига сабаб бўладиган ҳолатларга йўл қўйишлари мумкин. Ушбу ҳолатларни бартараф этишда давлат назоратчи вазифасини бажаради.

Давлат суғурта тизимининг ривожланишини таъминлайдиган қонунларни такомиллиштириб бориши ва уларнинг реал амал қилишини ҳам таъминлаши лозим. Ҳар қандай суғурта компаниясининг фаолияти молиявий тизим билан чамбарчас боғланган бўлиб, ушбу молиявий тизим ичида суғуртачи ўз фаолиятини амалга оширади. Барча суғурта компаниялари ўзаро муносабатлари замирида суғурта тизими шаклланади ва ушбу тизим ичида компаниялар манфаатлари уйғунлашади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси 358-II-сонли «Суғурта фаолияти тўғрисида» қонуни 2002 йил 5 апрел.
2. Т. С. Маликов, Н. Ҳ. Ҳайдаров, МОЛИЯ: умумдавлат молияси, Ўқув қўлланма. — Т: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 426-бет.

## Япония банк тизими ҳамда уни тартибга солиш механизми

Якубов Азизбек Ганибекович, преподаватель
Ургенчский государственный университет имени Аль-Хорезми (Узбекистан)

*В данной статье проанализированы принципы развития банковской системы Японии, этапы формирования банковской системы и задачи, поставленные банком.*

*The below article analyses the principles which is done to develop Japan bank system, forming of bank structure and given tasks on the banks.*

Уруш даврида Япония пойтахти кучсиз молиявий инфратузилманинг шиддатли таҳчиллигига дуч келди. Иккинчи жаҳон уруши маиший тармоқларнимолиявий томондан буткул бадном қилганди. АҚШ таъсири остида тузилган янги ҳукуматнинг вазифаси мамлакатни молиявий ва иқтисодий томондан ўнглаш эди.Япон Банки томонидан қўллаб-қувватланган Молия Вазирлиги кучли назоратга асосланган барқарор молиявий тизимни йўлга вўйишга интилди. Ички ва ташқи,қисқа ва узоқ муддатли молиявий операцияларнинг фоиз ставкалари тартибга солинди, молиявий фирмаларнинг функционал линиялари алоҳида ташкил этилди. Япония Молия Вазирлиги асосан уч нарсани бошқарарди: Банк, қимматли қоғозлар ва халқаро валютани. Япония Молия Вазирлиги молиявий тизимни ишлатиш учун қонунлар ва низомларни бирлаштирган норматив хужжат ишлаб чиқди. [1]

1996 йилга қадар Япония юқори ҳимояланган молиявий секторини назорат қилувчи, битта доимий бериш созлагичини (Молия вазирлиги) бор эди. Банклар ва бошқа молия фирмалар билан жиддий муаммолар ортидан фонд бозори қулаши юз берди, чунки таркибий аҳамиятга эга йирик норматив ислоҳотлар ўтказилмаган эди. «Биг Банг» (1996) қисмли бозорлар учун охирида бошланганини белгиланган. Шу билан бирга, янги қоида, ягона молиявий созлагичи Япония мустақил Банк пул-кредит сиѐсати билан яратилган.

Буюк Британияда, функция билан ўзини-ўзи тартибга солиш ягона молиявий маслаҳатчиси билан алмаштирилди. Англия банки пул-кредит сиѐсатини ўтказиш орқали ўз мустақиллигини қўлга киритди-да, у Буюк Британия банкларининг рискларни камайтириш сифатида унинг ташкил этиш ролини йўқотди. Япония фарқли ўлароқ, ҳеч бир ҳодиса бу жуда радикал ўзгаришлар юз бермади, фақат ўз-ўзини тартибга солиш яхши йўлга солинмаган эди, шунингдек молия институтлари ўзгартириш табиат янги ѐндашувни талаб қиларди. Бу ўзгаришлар норматив ре-

жимини яхшилаш ѐки йўқлигини ҳукм қилиш учун жуда эрта. Мисол учун, бир молиявий инқироз тақдирда Англия банки, Молиявий хизматлар мақоми ва Ғазначилик ўртасида англашув меморандуми ҳали синов қилиниши керак. ФСА куч ҳақ эканини исботлаши ва норматив мақсадларга талаб тўртта учрашув пайтида унинг харажатларини назорат қилиш мумкин эканлигини кўрсатиши керак. [2]

1989 йилга келиб Япония фонд биржаси инқирозга учрайди. Бунинг натижасида Япон банклари 21 асрнинг бошларига қадар ночор ахволда қолади. Иккита асосий вазифани ҳал этиш мақсадида ислоҳотлар дастури ишлаб чиқилади. Биринчидан молиявий секторни тиклаш, иккинчидан молиявий стабилликни таъминлаш мақсадида Молиявий кузатув агентлиги ва Молиявий қайта тиклаш комиссияси ташкил қилинди. Япония банкига мустақиллик берилди. [3]

«Катта портлаш» япон Бош Вазири Хошимито томонидан 1996 йил Ноябрь ойида эълон қилинди. Унинг оптемистик фикрига кўра 2001 йилга бориб Токио Нью-Йорк ва Лондон билан тенг даражада бўлиши керак эди. Ислоҳот 3 тамойилдан иборат эди: *ЭРКИН, АДОЛАТЛИ* ва *ГЛОБАЛ.*

*ЭРКИН*: Эркин бозор принциплари молиявий секторга тегишли эди. Банклар интеграцияси, қимматли қоғозлар ва суғурта бозори ҳимояланиши керак эди. Молиявий махсулотлар ва нархлар эркинлаштирилиши керак эди. Банкларни қисқа ва узоқ муддатли операцияларини тақиқловчи қонун бекор қилиниши керак эди. Хақ ва компенсациялар айниқса фонд бозорида юмшатилиши керак эди.

*АДОЛАТЛИ*: шаффоф, адолатли молиявий бозор операциялари яратиш, барча даражадаги ахборотни ошкор қилиш, инвесторларни хати-ҳаракатларини ўз бўйниларига олишлари, аммо шу билан бир пайтда инвесторлар тўғрисида янги қонун лойиҳасини ишлаб чиқиш тавсия этилган эди.

*ГЛОБАЛ:* Токио халқаро молия марказига айланиши, Япониянинг халқаро обрўсини кўтариши керак эди. Бухгалтерия, қонунчилик, бошқарув ва солиқ тизими жаҳон стандардларига мос тарзда ўзгартирилиши керак эди. [4]

Илк замонавий кўринишдаги банклар Японияда 1872 йилдан кейин хусусий «миллий банклар» кўринишида ташкил қилинган. Худди тижорат банклари сингари улар бутун давлат бўйича филиалларга эга бўлишган ва шунингдек, банкнота эмиссия қилиш ҳуқуқига эга бўлишган. Ўша даврда 150 дан ортиқ шундай банклар бўлган. «Миллий банклар» интенсив тарзда конвентрланмайдиган банкноталар эмиссия қиларди ва бу инфляциянинг ошишига олиб келган эди ва шунингдек, ишлаб чиқариш кучларига ҳам салбий таъсир кўрсатарди. Бу ҳолатдан чиқиш марказий банкни ташкил қилиш заруратини келтириб чиқарди. Ва 1882 йилда 30 йил муддатга Япония Банки ташкил қилинди (кейин яна 30 йил муддатга узайтирилди). Бу банк банкнота эмиссия қилишда мутлоқ монопол ҳуқуқни олди, мавжуд барча «миллий банклар» эса эмиссия фаолиятини тўхтатиб, ўз банкноталарини аста-секин марказий банк банкноталарига алмаштириш мажбуриятини олди. 1998 йил 1 апрелига қадар Япония Банки 1842 йилда қабул қилинган ва 1947 ва 1949 йилларда ўзгартириш ва қўшимчалар киритилган «Япония Банки тўғрисида» ги Қонунга кўра фаолият кўрсатган. 1979 йилда қонунга жиддий ўзгартириш ва қўшимчалар киритилди ва марказий банкка чекланмаган муддатда фаолият юритиш ҳуқуқи берилди. 1998 йил 1 апрелдан бошлаб Япония Банки тўғрисидаги янги қонун қабул қилинди. Банкнинг устав капитали — 100 миллион иена, банкнинг 55 % акциялари давлатга, 45 % акциялари эса хусусий шахлар, молиявий институтлар, суғурта компаниялари ва бошқа хусусий акционерларга тегишли. Акционерларга йиллик 4 % миқдоридаги дивиденд ваъда қилинган бўлиб, банк даромади кўпайиб кетган тақдирда 5 % миқдорида дивиденд тўланиши ҳам мумкин. Банкнинг қолган барча фойдаси давлат бюджетига ўтказилади.

Япония банки — Япония банк тизимида марказий эмиссион банк ҳисобланади. Штаб-квартираси Япония пойтахти Токио шахрида жойлашган. 1882 йилда ташкил этилган бўлиб, президенти — Масааки Сиракава. Захираси 2009 йилги маълумотга кўра — 2 660 007 млн иена. Веб-сайти: www.boj.or.jp

Банкнинг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат:

— банкнота эмиссия қили;

— пул-кредит сиѐсатини олиб бориш: мажбурий захира нормаларини;

— белгилаш, молиявий бозорда операциялар ўтказиш, кредит ставкаси фоизини;

— тартибга солиш (ҳозирда 0—0,1 %);

— тижорат банклар ўртасидаги ҳисоб-китобларни тартибга солиш;

— молиявий ташкилотларнинг молиявий ва менежмент ҳолатини текшириш ва мониторинг қилиш;

— давлат қимматли қоғозлари билан операцияларни амалга ошириш;

— халқаро фаолиятни олиб бориш;

— назарий тадқиқотларнинг иқтисодий таҳлилини олиб бориш ва ҳоказо.

1957 йилдан бошлаб Японияда мажбурий резерв захира ташкил қилинган бўлиб, барча кредит ташкилотлари ўз маблағларининг маълум қисмини ЯпонияБанкининг захира депозитларига қўйишлари мажбурийдир. Миллий банк системасининг ликвидлигини таъминлаш Япония Банки томонидан белгиланган қайта молиялаш ставкаси орқали тартибга солинади. Шундан келиб чиққан ҳолда Япония Банки мажбурий резерв захираси ва қайта молиялаштириш ставкаси ѐрдамида мамлакатнинг молиявий тизимини тартибга солиб туради.

Япония тижорат банкларини қуйидагича классификация қилиш мумкин:

1. Шаҳар банклари. Мамлакат кредит ташкилотлари орасида бу 11 та банк муҳим рол ўйнайди. Уларнинг фаолият доираси мунтазам равишда кенгайиб боради. Улар ўз навбатида қисқа ва узоқ муддатли кредитлашда муҳим аҳамиятга эга ва асосан йирик концернларни кредитлаш

билан шуғулланишади. Шунингдек шаҳар банклар ҳиссасига Япония ташқи ҳисоб-китобларининг каттагина қисми тўғри келади. Хорижий операцияларда энг фаол қатнашувчи шаҳар банк «Bank of Tokio» ҳисобланади. У давлатнинг асосий вазифаларини ва ҳисоб-китобларини амалга ошириб, дунёнинг 2000 дан ортиқ банклари билан ваkиллик алоқаларини олиб боради. Япония қонунчилигига кўра, унга валюта операцияларини олиб бориш вазифаси юклатилган. Бу функцияларни амалга ошириш мақсадида банкнинг кўплаб хорижий давлатларда филиаллари очилган. Ўз навбатида, бундай банклар қаторида, у даражада таниқли бўлмаган «Дайва Банк» ҳам мавжуд. 1982 йил апрелида 1928 йилги қонунни бекор қилувчи, тижорат банклари фаолиятини тартибга солувчи янги қонун қабул қилинди. Янги қонунга кўра тижорат банкларига қимматли қоғозлар билан боғлиқ операцияларни бажариш ҳуқуқи берилган. Яъни тижорат банкларига ҳам қимматли қоғозлар бозорида фаол иштирок этиш имконияти тақдим этилган. Бу давргача бундай ҳуқуқ монопол бўлиб брокерлик фирмалари ихтиёрида бўлган. Шундай қилиб, ўша даврдан бошлаб Япония тижорат банкларини универсаллаштириш бошлаб юборилган.

2. Худудий банклар. 64 та ҳудудий банк Японияда фаолият кўрсатаётган бўлиб, улар банк операцияларининг кўлами шаҳар банкларга нисбатан кичик бўлса-да, филиаллари кўлами жиҳатидан ҳудудий банклар шаҳар банклардан бирмунча йирик ҳисобланади. Ўз банк фаолияти жараёнида ҳудудий банклар асосан кичик ва ўрта бизнесни кредитлаш фаолияти билан шуғулланади ва кўпинча ҳудудий банклар жамғарма омонатларни қабул қилиш фаолияти билан ҳам шуғулланишади. Ўз структурасига кўра улар кредитор банклар ҳисобланишади. Шунингдек, ҳудудий банклар жойлардаги бошқарув органларини молиялашда муҳим аҳамиятга эга.

3. Узоқ муддатли кредитлаш билан шуғулланувчи 3 та банклардир. Улардан 2 таси йирик тадбиркорларни кредитловчи банк бўлса, учинчиси — ипотека банки ҳисобланиб, асосан кичик ва ўрта бизнес субъектлари билан операцияларни амалга оширади. Бу 3 йирик банк Япония учун жуда катта аҳамиятга эга бўлиб, бутун банк системасидаги кредитлашнинг 10 % ини ва техника соҳасини молиялашнинг 20 % га яқини айнан шу 3 та банкка тегишли.

4. Траст банклар. Бошида пул ўтказувчи бўлинмалар шаклида ташкил этилган, бироқ 2 жаҳон урушидан кейин банк тарзида фаолият юрита бошлаган. Траст банкларнинг ресурслари депозитлар ва заёмлар ҳисобланади. Япония траст банкларидан 5 таси дунёнинг энг йирик 50 та траст банклари рўйхатига киради.

5. Хорижий банклар. Ички бозордаги хорижий банклар орасида АҚШ ва Буюк Британия банклари етакчилик қилишади. Шунингдек, Германия, Франция ва бошқа давлатларнинг ҳам банклари мавжуд. Япония банклари Осиё банклари орасида ҳам энг йирик банклардан ҳисобланади. Жумладан осиёнинг энг йирик 10 та банкидан 4 таси япон банки ҳисобланади:

1. Mitsubishi UFJ Financial Group (1-ўрин)
— Активлари: 1999,58 (млрд $)
— Қапитали: 72,17 (млрд $)
2. Mizuho Financial Group (2-ўрин)
— Активлари: 1538,94 (млрд $)
— Қапитали: 30,37 (млрд $)
3. Sumitomo Mitsui Financial Group (4-ўрин)
— Активлари: 1202,59 (млрд $)
— Қапитали: 45,82 (млрд $)
4. Resona Holdings (7-ўрин)
— Активлари: 400,47 (млрд $)
— Қапитали: 14,73 (млрд $)

Шунингдек, 1 та Япония банки 50 та энг йирик жаҳон банклари рўйхатида 12- ўринни эгалламоқда. Япония банк тизими дунёдаги электрон банк фаолияти ривожланган энг йирик тизимлардан бири ҳисобланади ва бу ерда 100 мингдан ортиқ электрон банк апаратлари мавжуд.

1960 йилларда ташкил этилган кредит карточкалар системаси ҳам юқори ривожланиш даражасига эришган ва мамлакат миқёсидаги жами муомаладаги банк электрон карточкаларининг сони 110 млн. донага тенг.

Ҳозирда ҳар бир япон фуқароси бир қанча банкларнинг электрон кредит карточкаларига эга ва улардан керакли суммани нақд пул қилиб олишда муаммоси фаолият олиб боришмоқда. Бунинг учун жойларда электрон банкоматлар ўрнатилган. Ўз навбатида, истеъмолчилар банкоматлар орқали кичик суммадаги кредитларни ҳам олишлари мумкин, бироқ йирик кредитлар борасида улар банк офисларига мурожаат қилишларига тўғри келади.

Япония банк тизимини кўриб чиққан ҳолда, унинг дунёдаги энг йирик ва Осиёдаги энг муҳим банк тизими эканлигини таъкидлаб, қуйидаги хулосага келишимиз мумкин: Япония банк тизими бошқа иқтисодий жиҳатдан ривожланган давлатлар банк тизимлари билан солиштирганда анча ёш, яъни давлатда илк банклар ташкил қилинганига ҳали энди 130 йил тўлмоқда. Шунга қарамасдан Японияда банк тизими эътироф этарли даражада ривожланди ва дунё банклар тизимлари статусини белгилаб берувчи тизимлар қаторига қўшилди. Мамлакат молия-кредит тизимининг шиддатли ривожланиши натижасида «япон иқтисодий мўъжизаси» атамаси пайдо бўлди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Shelagh Heffernan, Modern Banking, John Wiley & Sons Ltd, The Atrium, Southern Gate, Chichester, West Sussex PO19 8SQ, England, 2005, 258 p.
2. Shelagh Heffernan, Modern Banking, John Wiley & Sons Ltd, The Atrium, Southern Gate, Chichester, West Sussex PO19 8SQ, England, 2005, 285 p.

3. Shelagh Heffernan, Modern Banking, John Wiley & Sons Ltd, The Atrium, Southern Gate, Chichester, West Sussex PO19 8SQ, England, 2005, 260 p.
4. Shelagh Heffernan, Modern Banking, John Wiley & Sons Ltd, The Atrium, Southern Gate, Chichester, West Sussex PO19 8SQ, England, 2005, 261 p.

# МОЛОДОЙ УЧЁНЫЙ

Международный научный журнал
Выходит еженедельно

№ 24.1 (158.1) / 2017



Редакционная коллегия:

**Главный редактор:**
Ахметов И. Г.

**Члены редакционной коллегии:**
Ахметова М. Н.
Иванова Ю. В.
Каленский А. В.
Куташов В. А.
Лактионов К. С.
Сараева Н. М.
Абдрасилов Т. К.
Авдеюк О. А.
Айдаров О. Т
Алиева Т. И.
Ахметова В. В.
Брезгин В. С.
Данилов О. Е.
Дёмин А. В.
Дядюн К. В.
Желнова К. В.
Жуйкова Т. П.
Жураев Х. О.
Игнатова М. А.
Калдыбай К. К.
Кенесов А. А.
Коварда В. В.
Комогорцев М. Г.
Котляров А. В.
Кошербаева А. Н.
Кузьмина В. М
Курпаяниди К. И.
Кучерявенко С. А.
Лескова Е. В.
Макеева И. А.
Матвиенко Е.В.
Матроскина Т. В.
Матусевич М. С.
Мусаева У. А.
Насимов М. О.
Паридинова Б. Ж.
Прончев Г. Б.
Семахин А. М.
Сенцов А. Э.
Сенюшкин Н. С.
Титова Е. И.
Ткаченко И. Г.
Фозилов С. Ф.
Яхина А. С.
Ячинова С. Н.

**Международный редакционный совет:**
Айрян З. Г. (*Армения*)
Арошидзе П. Л. (*Грузия*)
Атаев З. В. (*Россия*)
Ахмеденов К. М. (*Казахстан*)
Бидова Б. Б. (*Россия*)
Борисов В. В. (*Украина*)
Велковска Г. Ц. (*Болгария*)
Гайич Т. (*Сербия*)
Данатаров А. (*Туркменистан*)
Данилов А. М. (*Россия*)
Демидов А. А. (*Россия*)
Досманбетова З. Р. (*Казахстан*)
Ешиев А. М. (*Кыргызстан*)
Жолдошев С. Т. (*Кыргызстан*)
Игисинов Н. С. (*Казахстан*)
Кадыров К. Б. (*Узбекистан*)
Кайгородов И. Б. (*Бразилия*)
Каленский А. В. (*Россия*)
Козырева О. А. (*Россия*)
Колпак Е. П. (*Россия*)
Кошербаева А. Н. (*Казахстан*)
Курпаяниди К. И. (*Узбекистан*)
Куташов В. А. (*Россия*)
Лю Цзюань (Китай)
Малес Л. В. (*Украина*)
Нагервадзе М. А. (*Грузия*)
Прокопьев Н. Я. (*Россия*)
Прокофьева М. А. (*Казахстан*)
Рахматуллин Р. Ю. (*Россия*)
Ребезов М. Б. (*Россия*)
Сорока Ю. Г. (*Украина*)
Узаков Г. Н. (*Узбекистан*)
Хоналиев Н. Х. (*Таджикистан*)
Хоссейни А. (*Иран*)
Шарипов А. К. (*Казахстан*)
Шуклина З. Н. (*Россия*)

**Руководитель редакционного отдела:** Кайнова Г. А.
**Ответственный редактор спецвыпуска:** Шульга О. А.
**Художник:** Шишков Е. А.
**Верстка:** Бурьянов П. Я.



Статьи, поступающие в редакцию, рецензируются.
За достоверность сведений, изложенных в статьях, ответственность несут авторы.
Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов материалов.
При перепечатке ссылка на журнал обязательна.

Материалы публикуются в авторской редакции.



Адрес редакции:
**почтовый**: 420126, г. Казань, ул. Амирхана, 10а, а/я 231;
**фактический**: 420029, г. Казань, ул. Академика Кирпичникова, д. 25.
E-mail: info@moluch.ru; http://www.moluch.ru/

**Учредитель и издатель:**
ООО «Издательство Молодой ученый»

ISSN 2072-0297

Подписано в печать 28.06.2017. Основной тираж номера: 500 экз., фактический тираж спецвыпуска:20 экз.
Отпечатано в типографии издательства «Молодой ученый», 420029, г. Казань, ул. Академика Кирпичникова, 25